

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

SOYIBNAZAR DAVLATOV

**O'ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING
ETNOHUDIDIY XUSUSIYATLARI**

5151600-Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya) ta'lim yo'nalishi uchun

O'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2018

Uslubiy qo`llanma 5151600-Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan. Uslubiy qo`llanmada o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odat va marosimlarning hududiy o'ziga xos jihatlarini to'g'ri o'rganish, talqin etish uchun uslubiy tavsiyalar berilgan.

Uslubiy qo`llanmadan oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, malaka oshirish tinglovchilari, shuningdek, mazkur muammoga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

OYGUL AXMEDOVA

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

JABBOR ESHONQULOV

filologiya fanlari doktori, professor;

ADHAM ASHIROV

tarix fanlari doktori, professor.

Uslubiy qo`llanma O'zDSMI Badiiy, o'quv-uslubiy kengashining 2018 yil
“ _____ ” _____ gi _____ - sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbek xalq og'zaki ijodi ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma'naviyat xazinasidir. Zukko ajdodlarimizning dastlab voqielikka bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, so'z vositasida poetik ifodalashlar natijasida xilma-xil janrlardan tarkib topgan folklor an'analari shakllanib, asrlar davomida xalq badiiy salohiyati sarchashmasidan oziqlanib, rivojlanib kelgan. Folklor xalqimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma'naviyat sarchashmasidir. Xalq og'zaki ijodiyotida mujassamlashgan xalqona g'oyalar yosh avlodni ma'naviy komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Xalq yaratgan bebaho tafakkur durdonalari o'zbek madaniyati, xususan, yozma adabiy an'analarning shakllanishi va takomillashishini ta'minlagan manba bo'lib hisoblanadi.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan folklor san'ati an'analari rivojlantirish va yanada kamol toptirishda, ayniqsa, folklor qadriyatlarini jahonga tanitishda o'zbek folklorshunoslari, san'atshunoslar qatori folklor-etnografik jamoalar, askiyachi va qiziqchilar, dorbozlar va xalq hunarmandlari, baxshi-shoirilar, xalifa va jirovlar ulkan ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Mamlakatimiz o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab xalqimizning urf-odatlarini, marosimlari va an'analari berilayotgan e'tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodga yetkazish yo'lida samarali sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Zero, yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni eng avvalo milliy an'analari, o'tmishimizga hurmat, tariximiz bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash masalalariga davlatimiz tomonidan e'tibor berilishi mamlakat va millat uchun juda muhim.

Ma'lumki, o'zbek folklorshunosligi o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam tashlab, odimlab bormoqda. Dastlabki qadamlarini xalq ijodini aniqlash va ularning repertuarini yozib olish, turli janrlarni tadqiq etishdan boshlagan folklorshunosligimiz filologik yo'nalishdagi mustaqil fan

tarmog'i sifatida shakllanish barobarida xalqimizning betakror ijodini dunyo miqyosida tanitishga ham erishdi. Mana shu davrda xalq dostonlari, ertak va maqollari, topishmoq va latifalari, afsona va naqllari, qo'shiq va og'zaki drama janrlari, marosim folkloriga aloqador ko'plab janrlar tadqiq etildi.

O'zbek xalqi esa tarixan to'qsondan ortiq urug' va qabilalar birlashmasidan lashkil topgan. Ana shu urugiarning respublikamiz hududida joylashish tarzi ham, ma'lum darajada, alohida-alohida hududlarga to'g'ri keladi. Endilikda o'zbek xalq ijodining janrlari, ularning marosim va marosimga aloqador bo'lmagan ko'rinishlari haqida to'laroq tasavvurga erishish uchun har bir hudud alohida-alohida o'rganilishi lozim. Demak, hozirgi o'zbek folklorshunosligining muhim xususiyati xalqimiz ijodini muayyan hududlar doirasida o'rganish bilan xarakterlanadi. Bu yo'nalishda esa marosim folklorini o'rganish nafaqat folklorshunoslik, balki etnografik jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki turli urug'lar va ular yashaydigan joylardagi marosim folklori umumo'zbek marosim folklori doirasida ko'pgina umumiyliklarga ega bo'lishi bilan birga qator o'ziga xos xususiyatlarga ham egaki, bunday holat o'z-o'zidan marosim folklorini hududiy o'rganishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Buning bosh sababi hozirgi paytda xalqning yagona millat sifatida tobora jipslasha borishi, turli urug'lar o'rtasida quda-andachilik aloqalarining kuchayib borishi sekin-asta urug'lar o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Oqibatda marosimlarimiz va ularda ijro etiladigan folklor janrlari tabiatida ham umumiylik kuchayib, turli joy va urug'larga xos kolorit so'nib bormoqda. Bundan tashqari madaniy rivojlanish oqibatida marosimlarda fan-texnika yutuqlaridan foydalanishning kuchayishi, eski urf-odatlarimiz bilan bog'liq aytimlarni biladigan qariyalarimizning tobora kamayib borishi ham xususiy tadqiqotlarni ko'paytirishni talab etadi. Hududiy o'rganishlar bahonasida, birinchidan, u yoki bu hududga xos folklor asarlari jamlanadi, tahlil etiladi, ikkinchidan, bu materialning umumxalq miqyosida tutgan o'rni belgilanadi. Mana shunday hayotiy ehtiyoj bizni Qashqadaryo viloyati to'y marosimlari folklorini o'rganishga da'vat etdi.

Endilikda xalq an'ana va marosimlari eskilik qoldig'i yoki feodal jamiyatdan saqlanib qolgan sarqit emas, balki xalqimizning qadim-qadimdan beqiyos badiiy dahoga ega ekanligini isbotlovchi nodir an'analar sifatida baholanishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-son qarori, shuningdek, ilmiy-pedagogik faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu uslubiy qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

QASHQADARYO VOHASI O'ZBEK BESHIK TO'YLARIGA XOS AYTIM, OLQISH VA QO'SHIQLAR

To'y ota-bobolarimizdan qolgan bebaho madaniy-ma'naviy qadriyat bo'lib, u tiriklik shukronasi, orziqib kutilgan ezgu tilaklar, shodu xurramlikning ramziy ifodasidir. Xoh moziyga nazar tashlaylik, xoh bugungi kunimiz nazari bilan ertangi kunimizni fikran tasavvur etaylik, to'y marosimlari o'zining shakliy va mazmuniy jihatlari bilan barcha davrlarda hamohanglik kasb etadi. Ammo to'y atamasi barcha tarixiy davrlarda o'z mohiyatini bir xilda saqlab qoldi.

Har bir davr kishilariga xos ma'naviy va madaniy hayot tarzining darajasi ularning to'ylarga bo'lgan munosabatlari bilan izohlanadi. Binobarin, muayyan xalq yoki hududda yashovchi aholi to'y marosimlarini davriylikda o'rganish to'y folklori tabiatida yuz bergan zamonaviy va makoniy o'zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, to'y va uning barcha shakllari, o'zining genezisi bilan, qadimgi ajdodlarimizning jins-yosh jihatidan o'tkazilgan ritual magik (sehr-jodu), initsiatsiya (sirli voqeya bo'lish) marosimlaridan iborat, Keyinchalik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot natijasida elat va millatlarning vujudga kelishi bilan to'ylarning turli mahalliy va milliy shakllari yuzaga keldi. Tarixiy taraqqiyot natijasida qanchalar mahalliy va milliy shakllar kasb etmasin, to'y baribir o'zining genetik-semantik mohiyatini saqlab qoladi. Ko'pgina tarixiy manbalar, shuni ko'rsatadiki, milodning dastlabki asrlarida ham to'y, birinchidan, milliy-mahalliy marosim sifatida, ikkinchidan, tinch-totuvlik, to'qlik va xursandchilik bilan o'tkaziladigan ma'naviy-axloqiy hamda huquqiy akt sifatida ma'lum bir qonun-qoidalar, talablar asosida o'tkazilgan.

Yuqorida zikr etilgan to'yga xos an'anaviy belgilar rang-barang shakllarda barcha xalqlar va millatlarda umumiylik kasb etsada, ularning alohida xalq yoki millat doirasidagi mahalliy (lokal) shakllarini ham e'tirof etish lozim. Bunday mahalliy yoki arealli farqlar, asosan, yerli aholining etnik asoslari va makoniy alohidaligi bilan shartlangan holda vujudga kelgan. To'y marosimlari folklori janrlarining mahalliy shakllari, ularning vazifalarini o'rganish, ilg'or an'analarini targ'ib etish, kam o'rganilgan rasm-rusumlarni yoritish orqali mahalliy aholi

e'tiboriga havola etish folklorshunosligimiz, etnografiyamizning bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, to'y atamasi o'z ichiga juda ham ko'plab rasm-rusumlar, irim-sirimlar va kichik-kichik marosimlar majmuasini qamrab oladi. Aslida, mazkur atama, professor B.Sarimsoqovning ko'rsatishicha, "to'ymoq", "el-yurtga ziyofat bermoq", "do'stlar diydoriga to'ymoq" singari ma'nolarni anglatga ham, insonning yosh-jins kategoriyasiga qarab o'tkaziladigan an'anaviy marosim bolib, tarixan beshik to'yi, xatna (sunnat) va nikoh to'ylaridan tashkil topgan.

Juda ko'p xalqlar folklorshunosligi va elatshunosligiga nazar solinsa, ko'proq nikoh to'ylari tadqiq etilganligining guvohi bo'lamiz. Buning sabablari, birinchidan, mustabid tuzum davrida uzoq ajdodlarimiz qo'llab kelgan beshik eskilik va bolaga zararli buyum sifatida taqiqlanganligi uchun beshik to'ylari ham ma'lum darajada quvg'inga uchradi. Oqibatda, beshik to'ylari va unda aytiladigan aytim va olqishlar ham to'planmadi, beshik to'ylari haqida hech narsa yozilmadi. Ikkinchidan, bolalikdan o'smirlik davriga o'tishni nishonlovchi xatna to'ylari ham diniy marosim sifatida qoralandi. Mana shuning uchun ham sunnat to'ylari tadqiqotchilar diqqat-e'tiboridan chetda qoldi.

Faqat keyingi yillardagina beshik to'ylari va sunnat to'ylari haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayrim ishlarda to'ylarning turlari biroz ko'paytirib ko'rsatiladi. Bular: kumush to'yi, payg'ambar yoshi to'yi, oltin to'y kabilardan iborat. Bu borada shuni aytish lozimki, to'y marosimi moddiy va ma'naviy hodisa hisoblanib, xalqning moddiy turmushi yaxshilanishi bilan to'y shakllari ham ortib bordi. Ularga mo'ylab to'yi, soqol to'yi kabilarni ham qo'shish mumkin.

Lekin xalqning qadimgi tarix bilan mustahkam bog'langan va boshqa xalqlar tarixi bilan tipologik xususiyat kasb etgan to'y turlari beshik, xatna va nikoh to'ylari, xolos. Mana shuning uchun ham biz to'yning zikr qilingan uch an'anaviy turi haqida fikr yuritamiz.

Yangi insonning dunyoga kelishi hayotdan umidvor bo'lgan har bir kishi uchun ulkan baxt hisoblanadi. Bu narsa o'zbeklardek bolajon xalq uchun quvonch, alohida shukronalik kasb etadi. Shuning uchun Qashqadaryo vohasida

yashovchi aholi o'rtasida homiladorlik, chaqaloq tug'ilishi, uning chilla davri va beshik to'ylari bilan bog'liq bir qator irimlar vujudga kelganki, ular tarixan juda qadimiy bo'lishlariga qaramay, hozirda ham ko'pchilik tomonidan, ayniqsa, keksa otaxon va momolari bor xonadonlarda yashab keladi.

Bunday irimlarning aksariyati taqiqlovchi irimlardan bo'lib, ular hali tug'ilmagan chaqaloqni yovuz ruhlar xurujidan, ko'zdan va hasadgo'y kishilar ziyon-zahmatidan himoya qilish uchun xizmat qiladi. Masalan, Qamashi tumanidagi Badaxshon qishlog'ida chaqaloqning tug'ilishi yaqinlashganligidan xabardor bo'lgan kishilarning ro'molchalari yig'ib olingan.

Bu narsa o'z mohiyatiga ko'ra muloqot magiyasi bilan aloqador. Uning mohiyati shundaki, ro'molchasini bergan shaxs tug'ilajak chaqaloqqa xayrixoh bo'lib, unga nisbatan hech qanday yomon niyati yo'qligi, agar biror yomon niyati bo'lsa, berilgan ro'molcha orqali ana shu niyatda o'ziga qaytarish mumkinligi anglatiladi.

Homilador ayol va tug'ilajak chaqaloqning hayotini turli-tuman xavf-xatarlardan saqlash maqsadida amal qilinadagan irim-sirimlar vohada yaxshi saqlanib qolgan. Xususan, homilador ayol ko'p saqich chaynamasligi lozim, sababi chaqaloqning qulog'i yiringlab, og'rib qolishi mumkin. Arqon yoki ip ustidan hatlab o'tmasligi kerak, chaqaloqning kindigi bo'yniga o'ralib, nobud bo'ladi. Cho'pon tayog'ining ustidan hatlasa, bola xunuk tug'iladi. Kesov ustidan hatlasa, chaqaloq nobud bo'ladi. Oynaga ko'p qarasa, ayniqsa kechqurun qarasa, bola xunuk bo'ladi. Supurgi yoki taxta o'qlog' ustidan sakrasa, chaqaloqqa ziyon-zahmat yetishi mumkin.

Homilador ayol va uning xomilasini har xil ruhlar tajovuzidan sog'-salomat saqlash uchun Qashqadaryo vohasida tug'ilgan chaqaloqning kiyimiga, ot yoki itning yungi solingan yoxud bo'rining tishi, bir parcha terisi solingan tumorlarni tikib qo'yganlar. Ular barcha balolardan ona va bolani himoya qiladi, deb qaralgan.

Yuqoridagilardan tashqari homilador ayolni yolg'iz qoldirmaslik, mozorga, katta suv bo'ylariga, xilvat go'shalarga bormasligi, qorong'uda

yurmasligi, yelli deb hisoblangan yoki qon bosimini oshiradigan, ko'p suyuqlik ichishiga sabab bo'ladigan, qiyin hazm bo'ladigan taomlarni iste'mol qilishi taqiqlangan.

Ilgari maxsus tug'ruqxonalar bo'lmaganligi sababli o'zbek ayollarining o'z uylarida ko'zi yorigan, homilani esa ko'p bolali, tajribali momo-doyalar qabul qilganlar. Ayol ko'zi yorigandan keyin ahvoli yaxshi bo'lsa, ertasi kuni chaqaloq va onasining tozalanish kuni hisoblangan. Agar ona-bolaning ahvoli ko'ngildagidek yaxshi bo'lsa, o'sha kuniyoq ular cho'miltirilgan. Darhol atala pishirilib, onaga ichirilgan. Atala albatta juvoz yog'idan tayyorlanib, beli bo'shagan onaga quvvat bo'ladi, deb hisoblangan.

Dunyoga kelgan chaqaloq esa, isitilgan alohida xonada cho'miltirilgan. Qaynatilgan suv iliq holga keltirilgach, tutilmagan yangi tog'oraga suv quyiladi. Suvga ozgina tuz, tandirning pishgan kesagidan solingan. Doya momo ikki oyog'ini tog'oraga solib, ustiga bolani o'tqazib cho'miltiradi. Tuzli va tuproqli suv bilan bolaning milklari, quloqlari, qo'l va oyoq panjalari, qoitiqosti hamda chatanoqlari yaxshilab yuviladi. Bu narsa chaqaloqni yara-chaqa chiqishidan saqlaydi.

Chaqaloq ustidan toza suv quygach, bolaning badani yaxshilab artiladi va mayda tuyilgan tandir kesagi bilan tuproqlanadi. Bola ilk bor cho'miltirilganda Qashqadaryo vohasida ijro etiluvchi maxsus aytimlar bor bolib, ular hozir ham ayrim momolar tomonidan aytiladi. Masalan:

Suv toza, sen toza,

Toza suv senga bo'lsin.

Sening endi nopokliging,

Yomon odamlarga bo'lsin.

Ushbu aytimning aynan o'zi, biroq ayrim tojikcha so'zlar bilan almashtirilgan shakli "Boychechak" to'plamida ham keltirilgan. Mana shu bilan ona-bolaning chilla davri boshlanadi.

Chilla davri bilan bog'liq juda ko'p irim-sirimlar voha aholisi orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, Kitob tumanidagi Qaychin qishlog'ida

yashovchi (1926-yilda tug'ilgan) S.Luqmonovaning xabar berishicha, chaqaloq bor uyga o'zgalar issiq non, issiq choy, xom go'sht olib bormasliklari lozim.

Qo'ni-qo'shni yoki qarindoshlar yuqorida aytilgan narsalarni olib borishsa, ona-bolaga yomon niyat qilishgan bo'lishadi. Chillali chaqaloq bor uy egalari bolaga ziyon yetmasin deb uyga hech kimni kiritmasligi kerak. Chaqaloqning birinchi tirnog'ini yo kitobning, yo nonning ustiga olish yaxshi. Bu bilan chaqaloq ulg'aysa, bilimli va rizqi ulug' bo'lsin degan niyat qilingan bo'ladi. Yomon niyatli, ko'zi bor kishilarning nazari va niyatlari kesilsin deb chaqaloq yotgan uyni orqasiga o'roq ilib qo'yganlar. Chaqaloq ulg'aysa, baxtli va hurmatli inson bo'lsin, ko'p umr ko'rsin deb keksa yoshli ko'p bolani tarbiyalab yetishtirgan, el hurmatini qozongan momoning etagiga solib olishgan.

Chilla davrida farzandi yo'q, yolg'iz ayollar kiritilmagan, bola qo'rqqoq bo'lmasin deb yuvilgan kiyim va boshqa narsalar baland dorga ilinmagan. Chaqaloqning kiyimlari yuvilganda qattiq siqilmaydi, agar qattiq siqilsa, bolaning qorni og'rib qoladi, deb irim qiladilar. Chilla davrida bola kechqurun hech joyga olib borilmaydi, mabodo olib borishga to'g'ri kelsa uning qo'yniga bir burda non solib qo'yiladi.

Ma'lumki, chilla katta va kichik kabi qismlarga bo'linadi. Kichik chilla dastlabki yigirma kun bo'lib, Qashqadaryo vohasida uning uchinchi, beshinchi, yettinchi, to'qqizinchi kunlari chaqaloq va onasi uchun juda xavfli hisoblangan. Qashqadaryo viloyatida ko'pgina momolar 3,5,7,9-kechalarda alohida e'tibor va hushyorlik ko'rsatishni hozirga qadar saqlab qolganlar.

Shu bois, beshinchi kecha biror suyuq ovqat (masalan, kesgan osh, chuchvara) yoki holvaytar pishirib, qo'ni-qo'shnilarga tarqatilgan. Kecha o'tgach, keksa momosi bolani qo'lga olib, u yoq-bu yoqqa yotqizib, quyidagi aytimni ijro etishgan:

Beshidan o'tdi bu jonim,

Teshidan o'tdi bu jonim.

Jomonlarning ko'ziga,

Parilarning so'ziga.

*Onasining o'qlog'i,
Otasining pichogi
Em bo'ladi bu jonim.*

Mana shu tariqa chaqaloqning yetti, to'qqizinchi kechalari ham maxsus tayyorgarlik va aytimlar bilan o'tkazilgan. Ushbu davr ichida, aniqroq qilib aytganda, yetti kun ichida chaqaloqqa ism qo'yish shart. Bolaga ism qo'yish an'anasi qadimgi ajdodlarimizda o'ziga xos bo'lib, oilada o'g'il farzand tug'ilsa, uni ins-jinslar, ziyon-zahmatlar xurujidan himoya qilish maqsadida dastlab yolg'on ism qo'yganlar, bola o'z faoliyatida biror ezgu ish ko'rsatgach, unga haqiqiy ism qo'yganlar.

Albatta, bu xildagi an'analarning barchasi ham hozir saqlanib qolmagan. Ammo Qashqadaryo vohasida yashovchi aholi o'rtasida chaqaloqqa ism qo'yish bilan bog'liq qator irim-sirimlar saqlanib qolgan. Yolg'iz farzand yoki ketma-ket tug'ilgan bolalarga Hamro, Yo'ldosh, Ergash, Tirkash kabi ismlar qo'yilishi kerak. Agar shunday ismlar qo'yilmasa, bolalar uzoq umr ko'rmasliklari yoki biror halokatga uchrashlari mumkin.

Qator uchta o'g'il tug'ilsa - to'rtinchisiga Chori, beshinchisiga Panji, oldinma-keyin ikki o'g'il tug'ilsa - ikkinchisiga Jo'ravoy, ikki qiz tug'ilsa - Jo'ragul, egiz bolalardan keyin qiz tug'ilsa - Xadicha, o'g'il tug'ilsa - Tohir yoki Yunus, tug'ilganda ona vafot etsa - qizga Nusxa, o'g'il bolaga Yodgor deb nom qo'yiladi.

Ko'p yillar farzand ko'rmay tilab olgan bolalariga yoki bolalari turmagan ayollar keyingi farzandlariga Tursunboy, Tursunoy, Ko'paysin, Berdi, Toshtemir, Toshpo'lat, Oytosh, Tilov, To'xtasin, Turg'un, Orzi, Mahkam kabi ismlar qo'yadilar. Ba'zan bolaning kindigini tesha, bolta, qilich kabi narsalar bilan kesib, o'sha asbobning nomini bolaga ism qilib qo'yadilar. Masalan, Teshavoy, Boltavoy, O'roqvoy, Qilichvoy kabi.

Tirnoqqa zor kishilar muqaddas avliyolar yoki eshonlarga nazr-niyoz qilib topgan farzandlariga Nazir, Nazira, Niyozqul, Narziqul kabi ismlar qo'yadilar. Qatorasiga qiz ko'rganlar keyingi bolalari o'g'il bo'lsin deb O'g'iloy, Qizmon,

Jongil, Adash kabi ism qo'yadilar. Biror nuqson yoki belgi bilan tug'ilgan farzandlarga o'sha nuqson yoki belgining oti qo'yilgan. Masalan, nafas tomoqdan xirillab o'tsa - Xurram, chaqaloqning nafas olishi qiyin bo'lsa - Ochil. badanida oq dog'i bo'lsa - Oppoq, Oqmamat, Oqqo'zi, tojisi bilan tug'lsa - Tojivoy, Tojigul, parda ichida tug'lsa - Pardavoy, Pardagul, badanida qizil xol bilan tug'lsa - Nor, Normamat, Norboy, Norgul, badanida xoli bo'lsa - Xol, Xolyor, Xolida, Xolmomo, Xolchuchuk, ortiqcha o'simta bilan tug'lsa - Ortiq, Ziyoda, Ziyod, Do'qqi, kamchilik bilan tug'lsa - Qudrat, Karomat, Xosiyat. Xislat, Hikmat, chala tug'lsa - To'lavoy, Kamol, Oyto'la, To'lqin, qalliq ko'rish davrida tug'lsa - Boboqul kabi ismlar qo'yilgan.

Bolaga ism qo'yishda amal qilingan bunday irim va an'analar hozirda ham ma'lum darajada saqlansa-da, biroq ba'zi yosh ota-onalar ularga to'la amal qilmaydilar. Bolaga ism qo'yish marosimiga kichik dasturxon tuzalib, qishloqdagi mulla taklif qilingan. Mulla chaqaloqni qo'lga olib, ikki qulog'iga ham azon o'qib, bolaning ismini ham sekin o'ziga ta'kidlab aytadi. Ism qo'yilgach, mulla biroz taomlardan tatiydi. Uy egasi unga atalgan sarpo yoki boshqa sovg'alarni berib kuzatib qo'yadi. Mana shu bilan ism qo'yish marosimi tugaydi.

O'zbeklarda bolani ilk bor beshikka belash chilladan keyin maxsus beshik to'yi marosimida amalga oshiriladi. Biroq chilla chiqquncha ham ko'p bolalik oilalarda chaqaloq tinch yotsin, u yer-bu yerini tirnab olmasin deb opa yoki akalari yotgan beshikka belanadi. Agar bola birinchi farzand bo'lsa, beshik to'yiga qadar ko'p bolali oiladan beshik olib, chilla chiqquncha ana shu beshikka belab turadilar. Mana shunday hollarda beshikka belash o'ziga xos kichik marosim sifatida o'tkazilgan.

Ona-bola yuvinib tozalangan kun, ya'ni kichik chilla chiqqan kuni qishloqdagi keksa kampirlar taklif qilinadi. Ular oq ro'molga non tugib kelishadi va chaqaloq yotgan uyga to'g'ridan-to'g'ri kirib bormaydilar. Dastlab hovlida bir to'xtashib, yuz-qo'llarini yuvishib, ona-bolaga ins-jins tegmasin deb isiriq solishib, keyin dasturxon tuzalgan xonaga kiradilar. Bir ikki piyola choy

ichishib, so'ng chaqaloq yotgan xonaga o'tadilar. Oldindan tayyorlab qo'yilgan beshikni ham olib keladilar. Bir olovkurakda isiriq tutatilgan cho'g'lami olib kiradilar. Shunda ko'p bolani boqib voyaga yetkazgan, el orasida obro'li ayol beshikni ko'tarib, cho'g' ustidan hatlab o'tadi. Uning ortidan chaqaloqni ko'tarib onasi cho'g' ustidan hatlaydi. Bu bilan ular beshikni ham, bolani va onasini ham, hattoki ilk bor bolani belovchi momoni ham yomon ruhlardan, ins-jinslardan poklashadi. Mana shundan keyin momo beshikning ustiga urib-urib ziyon-zahmatlarni quvadi va quyidagi aytimni aytadi:

Egasi kirsin beshikka,

Shayton chiqsin eshikka.

Bobovlari ketsin,

Bolajonim kelsin.

Ko'rinadiki, mazmunan sodda bo'lgan mana shu aytimning ham o'ziga xos badiiyligi, obrazlilik mavjud. Jumladan, aytim turkiy xalqlar she'riyati uchun xos bo'lgan to'rtlik shakliga, ritmik-sintaktik parallelizmga asoslangan.

Mana shundan so'ng momo beshikka solingan to'shakchalarni urib-urib, "hov beshigi taxta, orqasi paxta" deb aytadi "Taxta", "paxta" sajlari bilan ohangdoshlik kasb etgan ushbu misrada beshik taxtalari bolaga ozor bermasin, uning orqasi yumshoq, ya'ni sog'lom bo'lsin degan istakni bildirganlar.

Shu xildagi aytimlar ijro qilinib, bolani ilk bora beshikka belagan momo mulla azon aytgan chaqaloqning quloqlarini u yoq-bu yoqqa sekin-sekin tortib, olqish aytadi. "Shalpangquloq bo'lgin, bo'ying terakday bo'lsin, qorning qopday, mo'yloving shopday yigit bo'lgin, ota-onangni hurmat qilgin, o'zingdan kattalarga olayib qaramagin, tilingdan saloming tushmasin, eshak mingan bobolaringni ko'rsang, mazax qilmagin". Albatta, keltirilgan olqish poetikasi u qadarmukammal bo'lmasa ham, biroq u barcha xalq olqishlariga xos ezgu tilak va istaklarga boy. Hattoki, olqishda mubolag'a, saj, yengil yumor bilan bir qatorda qishloq kishilariga xos sodda hazil ham mavjud. O'zbek xalq olqishlarida keltirilishicha: "... farzand inson umrining davomchisi, o'zidan keyin qoladigan zurriyod. Agar ana shu farzand keksaygan ota-onasiga

mehribon bo'lmasa, unday ota-onaning ikki dunyosi qorong'u. Chaqaloqqa sut emizish paytidan boshlab mana shu xildagi olqishlarni ovoz chiqarib aytish, bolaga ezgu tilakni ona suti bilan qo'shib ichirish, ota-onaga mehribonlikday ezgulikni bolaning qon-qoniga singdirib yuborishday gap. Chaqaloq bilan bog'liq olqishlar kattalarning bolalarga atab aytadigan shunchaki oddiy istaklarigina emas, balki bunday olqishlar chaqaloqni kamolot cho'qqisiga yetaklaydigan da'vatlardan, o'gitlardan iborat". Olqishdan so'ng momo o'qlog'i bilan beshikka urib:

Akang baqirib kelsa, qo'rqma,

Onang chaqirib kelsa, qo'rqma.

Yurtga yov kelsa, qo'rqma,

Mardga dov kelsa, qo'rqma. deb aytim aytadi.

Ma'lumki, xalqning irim-sirimlariga ko'ra, o'qlog'i xalq tasavvurida sehr-jodu qudratiga ega bo'lgan narsa bo'lib, uni tik holda qo'yib bo'lmaydi, o'qlog'i bilan o'g'il yoki qiz bolani urib bo'lmaydi. Agar bola o'qlog'i bilan urilsa, u befarzand bo'ladi deb irim qiladilar. U holda nega beshikka o'qlog'i uriladi? Buning sababi shundaki, o'qlog'i qut-baraka bag'ishlovchi sehr-joduli narsa ham sanaladi. Mana shu qarashdan kelib chiqilsa, beshikka o'qlog'i bilan urish orqali chaqaloqqa qut-barakali umr tilanadi. Bundan tashqari, o'qlog'i yomon ruhlarni quvuvchi narsa ham hisoblanadi. Demak, beshikka o'qlog'i bilan urish orqali bola yotgan nar- sadan yomon ruhlarning quvilishi ham nazarda tutiladi.

Agar she'riy misralardagi mazmuniy bosim tashuvchi so'zlarning qofiyalanib kelishi qonuniyati jihatidan olqishga qaralsa, bolaning baqirib-chaqirishlaridan, yov-dovlardan qo'rqmas bo'lib o'sishi endigina beshikka belanayotgan farzandiga xalqning xohish-istagini ifodalaydi. Beshik to'yi o'zbeklarda qadimdan saqlanib kelinayotgan marosim bo'lib, u asosan oiladagi bosh farzandga bag'ishlab o'tkaziladi. Lekin oilaning moddiy ahvoli yaxshi bo'lsa, beshik to'yi har bir farzand uchun ham alohida-alohida o'tkazilib kelingan.

Vohada qadimdan o'tkazib kelingan beshik to'ylarida ma'lum bir lokal farqlanishlar mavjud. Bu farqlanishlar u yoki bu hududda yashovchi aholining qaysi urug'ga mansubligi bilan aloqadordir.

Voha aholisining an'analariga ko'ra, to'ng'ich farzand qiz bo'lsa, shu xonadonning yetti pushti ma'mur bo'ladi deb yetti kundan keyin beshik to'yi o'tkazganlar. To'ng'ich farzand o'g'il bo'lsa, to'qqiz yoki o'n bir kundan so'ng beshikka belanib, oradan yigirma bir kun o'tgach, beshik to'yi qilib berilgan. Vohada beshik to'ylarining chilladan keyin o'tkazilish odati 40 raqamining sehr-jodu qudratiga ishonishdan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik qiz va o'g'il chaqaloq uchun ham qirq kundan keyin beshik to'yi o'tkazish an'anasi mustahkam saqlanib qolgan.

Beshik to'yi marosimini nishonlashda raqamlar magiyasidan tashqari kunlarning ham xosiyatiga amal qilishgan. XIX asrga mansub "Majmuat al-ahkom" nomli ta'birmomada ko'rsatilishicha, yakshanba Shams-quyoshga taalluqli kun bo'lib, bu kun imorat boshlamoq, ulug'larga, podsholarga uchramoq xayrli hisoblanadi. Bu kun haftaning birinchi kuni bo'lib, davlat va izzat kuni hisoblangan. To'y marosimlarini o'tkazish uchun juma kuni xosiyatli hisoblangan.

Xullas, kuyov va kelinning ota-onalari qishloq momolari bilan maslahatlashib, beshik to'yi kunini belgilaydilar. Ana shu kunga qadar har ikki ota ham tayyorgarlik ko'rishadi. Nihoyat, to'ydan bir yoki bir necha kun oldin butun qishloqdagi ayollar (tug'mas xotinlar bundan mustasno) kayvoni xotin tomonidan to'yga aytiladi.

Beshik to'yi kuni qizning ota-onasi qarindosh-urug'lari bilan sovg'a-salomlar olib kuyovnikiga keladilar. Ular kuyov hovlisiga yaqinlashganda ko'p bola tarbiyalab o'stirgan momolardan bin beshikni boshi ustiga ko'tarib oldinda keladi. Qolganlar uning ketidan hovliga kirishadi. Hovlida ularni karnay-surnay, nog'ora chalib kutib olishadi, beshik ustidan har xil sochqilar sochiladi, ularni bolalar terib olishadi. Mana shundan so'ng ziyofat beriladi. Ziyofatdan keyin bolani beshikka solish marosimi boshlanadi. Kayvoni

ayollar o'tirgan xona o'rtasiga yaxshilab bezatilgan beshikni keltirib, bosh tomonini qiblaga qaratib qo'yishadi. Beshikning yopqichlari ochilib, ichiga kerakli to'shakchalar solinadi. Tuvak, sumak qo'yiladi. Chaqaloqning yostiqchasi ostiga non, sarimsoq, qayroq tosh, ba'zan pichoq va bosh tomonga oq matoga o'rab Qur'oni karim qo'yiladi. Bularning barchasi chaqaloqni ziyon-zahmatdan, yomon ruhlardan saqlash uchun qilinadi.

Mana shundan keyin beshikni xaloslash udumi o'tkaziladi. Xaloslash beshikka yopishgan har xil yovuz ruhlardan tozalash udumi bo'lib, unda sehr-jodu qudratiga ega deb tasavvur qilingan narsalar va aytimlar vositasida beshik tozalanadi. Qashqadaryo vohasida alos-xaloslash marosimida beshikni ko'tarib kelgan momo yonib turgan olov ustidan hatlab o'tadi. Alos-xalos marosimida quyidagicha aytm aytib, beshik atrofidan isiriq tutatib aylantiriladi:

Xalos, xalos, xalos,

Barcha balolardan xalos.

Adrasmon dori-dori,

Har bir dardga siz dori.

Adrasmoni har davo,

Har bir dardga siz davo.

Beshik to'yida beshikka qo'yiladigan narsalar ichida chaqaloq kindigini qo'yish odati alohida ajralib turadi. Kesilgan kindik toza matoga o'ralib, saqlab qo'yilgan. Beshik to'yida bolaning beshigiga-bosh tomoniga ana shu kindik yo osib qo'yilgan, yo yostiq ostiga qo'yilgan. Tasavvurlarga ko'ra, bolaning kindigi yo'qolib qolsa, chilla davrida bola turli kasalliklarga chalinadi, deb qo'rqanlar. Chaqaloq kindigini beshikning bosh tomonida saqlash udumida bola sog'lom unib-o'ssin, bevaqt nobud bo'lmasin degan istak mavjud.

Mana shundan keyin beshikning uch joyiga: bosh tomoniga, bel qismiga va oyoq tomoniga paxta qo'yilib yoqiladi va kuyindilari yig'ib olinadi. Bu narsa qadimgi otashparastlikdan saqlanib qolgan o't bilan poklanish udumining qoldiqlaridan iborat. Kayvoni momo beshikni boshi barobarida ko'tarib,

quyidagi aytimlarni aytadi. Bu aytimlarning Qashqadaryo voxasida bir necha variantlari mavjud bo'lib, biz ularning ayrimlaridan namunalar keltiramiz, xolos:

Shugina jonim - bir jonim,

Bo 'ynimdagi marjonim.

Xudo bergan sevsin deb,

Bu dunyoni ko 'rsin deb.

Oltin beshik ham berdi,

Shu beshikka kirsin deb.

Kayvoni beshikni yerga qo'yib, chaqaloqni qo'lga oladi va chaqaloning boshini beshikning oyoq tomoniga qilib yotqizmoqchi bo'lib, atrofdagi ayollardan "shunday yotqizamizmi", deb so'raydi. Ayollar "yo'q" deyishgach, chaqaloqni qo'lga olib, to'g'ri, ammo o'ng yog'i bilan yotqizib, yana ayollardan "shunday yotqizamizmi", deb so'raydi. Ayollar yana "yo'q" deyishgach, kayvoni chaqaloqni chap yoni bilan yotqizib, xotinlardan "shunday yotqizamizmi", deb so'raydi. Ayollar "yo'q" deyishgach, bolani to'g'ri yotqizadi va xotinlardan yana so'raydi. Ular "ha" deb aytishgach, kayvoni quyidagi aytimni aytib, bolani belay boshlaydi:

Qoch-qoch babasi,

Keldi beshik egasi.

-Bu yonida yotasanmi ?

-Yo 'q-yo'q yotmayman.

-U yonida yotasanmi ?

-Ha-ha bibijonim,

Bo'ldi, yotadi, bibijonisi.

Oy keladiyo botgani,

O'g'lim keladi yotgani.

Man qo'rqaman zamonadan.

Qo'lim tegib uyg'otgani.

Ket-ket babasi,

Keldi egasi,

*Tillo qayg asi,
Gulday bolasi.
Taq-tuqi gavora,
Dushmanlari ovora.
Ona kasbing, ena kasbing,
Egalari keldi, bobovlari ketsin.
Uxlab qolgin, jonim bolam,
Uyqung kelsa, mana juyang.
Uxlab qolgin, jonim bolam.*

Yuqoridagiga o'xshash aytimlar ijro etilib, chaqaloq beshikka belanayotganda, bolaning yaqin qarindoshlaridan bo'lgan bir ayol beshikning bosh tomonida yong'oq chaqib o'tiradi. Bolaga yumshoq fe'l tilanib, beshik ustiga po'stak ham tashlab qo'yadilar. Chaqilgan yong'oq mag'izlari mayiz, qand bilan aralashtirilib, uni beshik ustidan sochadilar. Bu chachala sochqi deyiladi. Chachalani to'yga kelgan mehmonlar, bolalar terib olishadi. Qizaloqlar patir bilan birgalikda chachalani qo'shnilarga tarqatib chiqadilar.

Shundan keyin isiriq, nazari-suqi bor kishilarning choponidan olingan paxta qo'shib tutatiladi va beshik atrofidan uch marta aylantirib olinadi. Isiriq tutatilganda aytilgan maxsus aytimlar borki, ulardan eng ko'p tarqalgan nusxasi quyidagicha:

*Isiriq, isiriq,
Tutasin isiriq.
Chatnasin isiriq,
Bolamga ko'z tegmasin,
Kim ko'zimga ko'z qilsa,
Ko'zlari oqib tushsin.*

Aytim mazmunidan ko'rinib turibdiki, bolaga yomonlarning nazari tushmasin deya istak qilish, isiriq esa ana shu yomon nazardan saqlovchi vosita ekanligi aytimlarda oddiy shaklda ifodalangan.

Keltirilgan aytimda isiriq ta'rifu tavsif etiladi va bolaga tikilgan ko'zlar begona emasligi, barchasi qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarning ko'zi ekanligi ta'kidlanib, o'zlarini yupatish bayon etiladi. Aytim esa bolaning omon-eson qolishini tilashdan iborat an'anaviy tugallanma bilan yakunlanadi.

Mazkur aytim, birinchidan, ritmik izchillik, vazn jihatidan izosilla bizmga cgahgi, binobarin, ohangdorligi bilan tinglovchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Ikkinchidan, aytimda hasadli, g'arazli ko'zlarning ko'chishi tilanadi va yovuz ruhlarning "cho'l" yoki "ko'l" ga ko'chishi isiriqning kuchi yordamida amalga oshishi ifodalangan. Uchinchidan, aytimda faqat to'q qofiya qo'llanilgan. Masalan: dona-xona, cho'lga-ko'lga kabi qofiyalar aytimga o'zgacha ohang, o'zgacha tarovat bag'ishlab turibdi. Mazmun va poetikadagi bunday mukammallik esa aytimning juda uzoq vaqtlar xalq og'zida aytilib, yaxshigina sayqal topganligidan dalolat beradi.

Mana shundan keyin momo bolaning quloqchalarini ohista cho'zib tortqilaydi va shunday olqish aytadi:

*Shalpangquloq bo'lg'in, bo'ying terakday bo'lsin,
Qorning qopday, mo'yloving shopday yigit bo'lg'in.
Uylanib olganingda ota-onang hurmatini qilgin.
O'zingdan kattaga olayib qaramagin,
Tilingdan saloming tushmasin,
Eshak mingan bobolaring mazax qilmagin.*

Yumorga boy bu olqishda bolaga chaqaloqligidayoq ahloqiy barkamollik tilanadi. Shalpangquloqlik , terakday bo'y, qopday qorin, shopday mo'ylov kabi detallar bolaga jismoniy barkamollik, bahodirlik kabi xislatlarning istioraviy yo'l bilan tilanishidan iborat.

Momo qo'lining bir barmog'ini sariyog' bilan asal aralashmasiga botirib olib, chaqaloqning tanglayiga surtadi va tanglayni ko'tarib turib:

*Bismillohir rahmonir rohiym,
Tiling shirin bo'lsin,
Og'zing shirin bo'lsin,*

*Qo'ling molli bo'lsin,
Rizqing ulli bo'lsin,
Farzanding ul bo'lsin,
Omin, ollohu akbar, deb olqish aytadi.*

Mana shundan keyin barcha xotinlar omin deyishib, beshikdagi chaqaloqni boshqa xonaga, onasining ixtiyoriga beradilar. Barchaga osh tortiladi. Osh yeyilgach. qudalar, qarindosh-urug'lar sarpolarini topshiradilar. Keyin keksa momolardan bin fotiha o'qiydi va beshik to'yi yakunlanadi.

Beshik to'ylarining mazmuni va mohiyati Qashqadaryo vohasining barcha joylarida bir xillik kasb etsa ham. biroq uning o'tkazilish paytidagi rasm-rusumlarda biroz farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, Kitob tumanining ayrim qishloqlarida beshik to'yi uchun qilinadigan sarf-xarajatlar, dasturxonga qo'yiladigan noz-ne'matlar, taomlar kelin va kuyov tomonning hamkorligida tashkil etiladi. Bundan tashqari, kelinning ota-onasi bolaning yetti yil kiyishga yetadigan kiyim-kechagini tayyorlab beradilar.

Vohaning Chiroqchi tumani qishloqlarida esa beshik to'yi uchun ketadigan noz-ne'matlar asosan kelin tomonning zimmasiga tushadi. Qudalar, kuyov, kelin va bola uchun sarpolar ham kelinning ota-onasi zimmasida bo'ladi. Bunga javoban kuyov tomon ham qudalarga, nomiga bo'lsa ham, sarpo tortiq qiladilar.

Dehqonobod tumani qishloqlarida esa qizning onasi boshchiligida ketayotgan xotin-xalajlar to'yxonaga yaqin qolganda beshikni boshlariga ko'tarib olishib, kuyovning uyigacha alia aytib borishadi. Holbuki, beshik to'yiga alia aytib borish udumi boshqa joylarda uchramaydi. Ular aytgan allalarda chaqaloqni suyish, erkalash motivlari ustunlik qiladi:

*Alla aytsam ovungin
Oppoq qo'zim, alla.
Beshigingda quvongin
Jonim bolam, alla.*

Endi beshik to'yidan keyingi aytimlar haqida. Chunki beshikka belangan bolani yechish va undan keyingi udumlarda aytiladigan aytim, olqishlar ham Qashqadaryo vohasida anchagina va o'ziga xoslik kasb etadi.

Bola beshikda miriqib uxlab olgach, uni yechib olib, qo'l-oyoqlarini yozib erkinhk beriladi. Qashqadaryo vohasida bolani beshikdan yechib olishda xilm-xil aytimlar aytiladi. Ularda bolani yomon ko'zlardan asrash, ziyon-zahmatlarni quvish kabi motivlar ifodalanadi. Masalan:

Taqir-tuqir chavorasi,

Dardidili ovvorasi,

deyiladi va uch marta "o's, o's, o's" deyilib, o'ng qo'l bilan chaqaloq yotgan o'rin siypalanadi, keyin chaqaloqning orqasi uqalanadi. Bu bilan chaqaloq orqasidagi qon aylanishiga ko'mak beriladi.

Ayrim aytimlarda esa chaqaloqni yovuz ruhlardan asrash bilan birga beshikda unga hamisha yaxshi uyqu nasib etishi ham bayon etiladi:

Taq-to'qi gavora bo'lsin,

Dushmani ovora bo'lsin.

Uyqusi beshikda qolsin,

Dushmani eshikda qolsin.

Ba'zi aytimlarda esa chaqaloqqa beshikning botmaganligi, aksincha, bolaning miriqib dam olganligi ta'kidlanadi:

Bolam beshigi taxta, Bolam orqasi paxta. Taxtasi yumshoqqina, Shu bolam oppoqqina. Beshikdan bolani yechib olishda aytiladigan ba'zi aytimlarda chaqaloq tilidan turli sovg'a-salomlar olib kelishni so'rab erkalamalar ham aytiladi:

Chaqaloqqa choponcha

Olib keling, dadasi.

Yoqasiga ko'zmunchoq

Taqib keling, dadasi.

Yoqasi moyli bo'lsin,

Etagi loyli bo'lsin.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, chaqaloqni beshikdan yechib olishda ijro etilgan aytimlar bolaga omonlik tilash, uni madh etish va erkalash kabi mazmunga ega bo'ladi. Aytimlarning mazmuni va ruhiga mos holda ularning vazni ham yetti-sakkiz hijoli bo'lib, to'q qofiyalanadi. Aytimlardagi ohangdorlik qofiyadan tashqari so'z yoki so'z birikmalarining takrori hisobiga ham ta'minlanadi.

Chaqaloq ilk bor beshikdan yechib olinganda o'sha yerda o'tirgan bobo-momolari, otasi, xolasi, opa-ukalariga hazilomuz aytimlar aytib tanishtiriladi. Bu aytimlarda o'tirganlar sha'niga madh aytilib, chaqaloqning ortida ana shunday suyanchilari borligi ifodalanadi:

Hoy-hoyasi bordi shuning,

Zap doyasi bordi shuning.

Mard otasi bordi shuning,

Bek buvasi bordi shuning.

Jon buvisi bordi shuning,

Zo'r akasi bordi shuning.

Jo'r onasi bordi shuning,

Uzoq-uzoq joylarda

Baxshidasi bordi shuning.

Beshikdan yechib olishda aytiladigan ayrim aytimlar esa alohida to'rtlik shaklida bo'lib, ularda beshikda to'yib uxlagan bolasiga iyigan, mehri jo'sh urgan onaning erkalashi va shu yerda o'tirgan buvisi hamda buvalarini madh etuvchi so'zlar ifodalangan. Masalan:

Bama'ni bo 'ppisi bor,

Boshida do 'ppisi bor.

Kayvoni buvisi bor,

Sarkarda buvasi bor.

Buvisini doim el nazarida yuradigan kayvoni deb ta'riflash, buvasini sarkarda deb sifatlash bunday aytimlarda kelinning qaynota va qaynonalariga hurmatini, ularga minnatdorchilik tuyg'ularini ifodalashga xizmat qiladi.

Qashqadaryoning ayrim joylarida bolani beshikdan olishda aytiiadigan shunday aytimlar borki, ularda beshikka nisbatan qo'llanilgan elementlar, ya'ni beshik yasalgan daraxt nomiga bolaning ahvol-ruhiyasi, ona istagan holat anglatuvchi so'zlarning birinchi tovushlari uyg'un qilib olinadi, ya'ni misralar anaforik alliteratsiyalar bilan boshlanadi. Anaforik alliteratsiyalar esa aytimlarning ohangdorligini, fonetik tovlanishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Masalan:

Qarolidandir beshigi,

Qayrilib olsin onasi.

Tillo qamishdan beshigi,

Tovlanib olsin buvisi.

Shaftolidandir beshigi,

Shapillab o 'psin opasi.

Jiyda daraxtidan beshigi,

Ko 'tara qolsin akasi.

Bola yechib olingandan keyin onasi yoshiga qarab uni o'tirganlarga bir-bir uzatadi va ular qo'l haqi berishib, chaqaloqni qo'llariga oladilar. Mana shu paytning huzur-halovati, xursandchiligi yuqorida keltirilgan aytimdagi alliteratsiyada, ya'ni tovushlar uyg'unligida o'zgacha tarovat kasb etadi.

Beshik to'ylarining o'ziga xos tomonlaridan yana biri shundaki, ularda erkaklar deyarli ishtirok etmaydilar. Bu esa to'yda xotin-xalajlarning o'yin-kulgi, hazil-mutoyiba qilishlari, qo'shiq va laparlar aytib, erkin xursandchilik qilishlariga katta imkoniyat yaratib beradi.

Qashqadaryo vohasidagi deyarli barcha beshik to'ylarida ayollar "Omon yor" laparlarini aytadilar. Mohiyat e'tibori bilan "Omon yor" beshik yoki chaqaloq bilan aloqador bo'lmasa ham, biroq laparda ular o'zlarining orzu-olamlarini, ichki dardlarini bayon etadilar:

Osmonchadir otingiz, omon yor,

Kuydiradi savlatingiz, omon yor.

*Borish-kelish qilmaysiz, omon yor,
Kimdan qoldi ko 'nglingiz, omon yor.*

Keltirilgan lapar bandida unutilgan sevgining alamli nidosi va bevafo yorning hijron dardi o'z ifodasini topgan. To'rtlik o'zbek xalq lirikasiga xos tartibda qofiyalangan, ya'ni laparning 1, 2, 4-misralar qofiyalanib, uchinchi misra qofiyalanmay qolgan. To'rtala misra so'ngida takrorlanib kelgan "omon yor" radifi barcha misralarning ohangdorligini, uyg'unligini ta'minlagan. Quyidagi lapar bandida yoshlikda suygani bilan to'yib o'ynay olmagan armonli dilning nolalari o'ziga xos tarzda ifodalangan:

*-Dod-ey, voy dod-ey, omon yor,
Bo'yginangdan aylanay, omon yor.
Kashta tikdim ayvonda, omon yor,
Ikkala ko 'zim narvonda, omon yor.
O'ynamadim, kulmadim, omon yor,
Qolib ketdim armonda, omon yor.*

Laparning mazkur bandi qofiyalanish tartibi va boshqa poetik jihatlari bilan yuqoridagi banddan farqlansa ham, biroq ijrochilar band boshlanishida ikki misra qo'shib, bandga alohida ta'sirchanlik bag'ishlaganlar.

*-Samovar qo'ydim o'tinsiz, omon yor,
Qaynamadi o'zimsiz, omon yor.
Suygan yorim kelmasa, omon yor,
Ichgan choyim ko'ngilsiz, omon yor.*

Qizil gul-sevgi ramzi. Yorning ko'ngli-qizil gullarga boy hovli. Biroq sevgan kishing senga qizil gul hadya etmasa, ya'ni sevgi izhor etmasa, bu gullarning nafosati, ifori, qisqasi, dunyoning lazzati qayerda qoladi. Sevgi izhor etilmasa, u chakkaga taqilmagan gul kabi hech kimga nafi tegmagan narsa sifatida hayron qolishga mahkum. Laparning quyidagi bandida ana shu g'oya o'ziga xos ramziy yo'l bilan ifodalangan:

*-Qizil gullar hovlingda, omon yor.
Men taqmadim davringda, omon yor.*

Men taqmasam davringda, omon yor,

Hayron qolsin hovlingda, omon yor.

Beshik to'ylarida ishtirok etgan ayollar mana shunga o'xshash "Omon yor" laparlarini ijro etishib, o'yin-kulgi qilishib, ko'ngil ochishadi. Bunday laparlar esa beshik to'ylariga o'ziga xos ta'sirchanlik, sayqalini beradi. Shu bois "Omon yor" lar voha beshik to'ylari an'anasidan mustahkam o'rin egallagan.

Chaqaloq beshikka belangandan keyin onalar uning to'yib uxlashini ta'minlash maqsadida "Alla" qo'shig'ini aytadilar. Mazkur janr o'zining mohiyatini, ohangi va ta'sirchanligi bilan alohida ajralib turadi. "Alla" laming badiiy tabiati, janr xususiyatlari haqida ko'plab olimlar fikr-mulohazalar bayon etganlar.

"Alla" janrining atamasi va uning etimologiyasi haqida turlicha qarashlar, taxminlar mavjud bo'lib, ulami rad etish yoki tasdiqlash juda qiyin. Masalan, J.Qobulniyozov alla o'zining dastlabki ma'nosi bilan "yuksak, juda yuksak" kabi ma'nolarni anglatadi, deb ta'kidlasa, M. Yoqubbekova V.Radlovning qadimgi turkiy lug'atlaridagi "ohista", "juda sekin" ma'nolarini ifodalovchi "alan" so'ziga, O.Safarov esa sekin-asta uxlatish ma'nosini ifodalovchi "allakolang" so'ziga bog'laydi. Bizningcha, alia so'zi holat, vaziyat ma'nolarini ifodalovchi -al o'zagiga -la fe'l yasovchi qo'shimchasining qo'shilishidan yasalgan.

M.Yaqubbekova professor O.Safarovning nazariy qarashlariga asoslanib, alla janrining vujudga kelish davrini XIV - XVIII asrlarga bog'laydiki, bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Bizningcha, alla juda qadimda yuzaga kelib, bu qo'shiqni har bir qabila, har bir urug' dastlab o'zlaricha atamalar bilan yuritishgan. Masalan, hozir ham Qashqadaryo va Surxondaryoning ko'p yerlarida alla o'rnida "huyya", "huvva-huv" kabi taqlidiy so'z yoki undovlar janr atamasi sifatida ishlatiladi. Markaziy Osiyo arablar tomonidan istilo etilgach, cho'zilib yotish ma'nosini anglatuvchi "al" so'zi yuqorida ko'rsatganimizdek, alla shakliga kelgan va bolalami uxlatish uchun aytiladigan beshik qo'shiqlarini anglata boshlagan. Bundan tashqari, alla atamasining bevosita arab istilosidan keyin, ya'ni VIII asrlardan keyin iste'molga kirganligini tasdiqlovchi yana bir tarixiy asos borki, u

ham bo'lsa Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridagi quyidagi qaydi hisoblanadi: "Shu bilan birga bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allasidir".

Keltirilgan iqtibosdan bir detal biz uchun ahamiyatli. Unda Ibn Sino bola uxlatish uchun aytiladigan allani alohida ta'kidlab o'tadi. Agar Ibn Sino X asrda tug'ilib, XI asrning birinchi yarmida olamdan o'tganligini hisobga olsak, allaning vujudga kelish davri XIV - XVIII asrlarda degan fikr hech qanday obyektiv asosga ega emasligi, balki bu janr Ibn Sinoga qadar ham mustahkam an'analar sifatida xalq hayotidan o'rin olganligiga qanoat hosil qilamiz. Demak, alla vazifasida ijro etiluvchi aytilmalar turk qabila va urug'larda arab istilosigacha mavjud bo'lib, ushbu qo'shiqlarning keyinchalik alla, ya'ni yotib uxlash holatini bildiruvchi yaxlit janr holiga kelishi bevosita VIII - IX asrlarga aloqadordir. Bularning barchasi alla atamasi etimologik jihatdan arabcha cho'zilib yotish holatini va asta-sekin tebratish ma'nolarini anglatuvchi "al" so'ziga -la fe'l yasovchi qo'shimchasining qo'shilishidan vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Qashqadaryo vohasining ko'pgina chorvador yerlarida "huyya", "huvva-huv" kabi atamalar bilan aytilmalar aytsalar ham, biroq o'troq aholi yashaydigan qishloqlarda alla deb yuritiladigan beshik qo'shiqlari ijro etiladi.

Allalar mavzu jihatdan juda keng qamrovli bo'lib, ularda onaning o'z bolasiga mehri, orzu-istaklari bayon etilishi bilan birga bevafo, o'tkinchi dunyoning g'animatligi, o'z dard-alamlari va hokazo mavzular qo'shiqning har bir bandida erkin kuylanaveradi. Boshqacha aytganda, bolani beshikka belash va alla aytib uxlatish onalar uchun dard-alamlarini, quvonch-u tashvishlarini, orzu-istaklarini to'kib solish uchun bir bahona vazifasini o'taydi. Shuning uchun allani maxsus doiralarga bo'lib tasnifetish mumkin emas. Chunki ona alia aytarkan, qo'shiqning bir bandida o'z farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatini izhor etsa, navbatdaxisida o'z dard-hasratini bayon etishi mumkin. Binobarin, alla qo'shiqlari ham folklorga xos sinkretlilik xususiyati bilan yashaydi. Bu fikrimizni quyidagi alia namunalari to'la tasdiqlaydi. Quyidagi allada katta

buvising, xolaning yoki boshqa yaqinlarining o'z nabirasiga bo'lgan mehri ona tilidan oddiy, samimiy bir tarzda bayon qilingan:

Alla-yo, alla

Bolaginam bolasi,

Iskaganda lolasi,

Ming o'rgilsin xolasi,

Alla-yo, alla.

Yo'qdan yo'nib olganim,

Ko'kdan qo'nib olganim,

Olamga jar solganim,

Alla-yo, alla.

Sayrab turgan bulbulim,

Yayrab turgan sunbulim,

Bulbul bilmas gulgulim.

Alla-yo, alla.

Keltirilgan alla bandlari o'ziga xos badiiyligi, ohangdorligi bilan ajralib turadi. Birinchidan, alla aytimlari bandlararo bosh g'oyani-leytmotivni ta'kidlash maqsadida "alla-yo, alla" refrenini aytish bilan boshlanib, keyingi misralarni aytish uchun emotsional vaziyat, ekspressiv maydon hozirlab beradi. Ikkinchidan, allaning mustaqil misralari yetti bo'g'inli bo'lib, to'la izosillobizm (bo'g'inlar tengligi) va izoxronizm (teng vaqt birligi)ga ega. Vazn tengligi, ritmik uyg'unlik tinglovchi ruhini mahliyo etadi.

Uchinchidan, har bir misra "bolasi-lolasi-xolasi; olganim-solganim; bulbulim-sunbulim-gulgulim" kabi to'q qofiyalar uyg'unligi bilan tugallanadi. Bundan tashqari, alla bandlaridagi ayrim misralarning boshlanishi ham to'Uq qofiyalanuvchi so'zlar bilan boshlanganki (yo'qdan-ko'kdan, sayrab-yayrab kabi), bu narsa ham alla ohangdorligiga, binobarin, uning ta'sirchanhgini oshirishga xizmat qilgan. To'rtinchidan, ayrim bandlarda onaning bolaga yoki buvining nabiraga bo'lgan mehri to'g'ridan-to'g'ri istiora (metafora)orqali ifodalanadiki, bunday ko'chimlar qo'shiqqa o'ziga xos obrazlilik, ta'sirchanlik

bag'ishlaydi. Beshinchidan, bandlar o'rtasida doim takrorlanib turadigan "alla-yo, alla" qo'shiqning maqsadini, leytmotivini ta'kidlab turadi.

Qashqadaryo vohasida aytiladigan allalarga xos shakliy o'ziga xoslik ularning izchil band tuzilishiga ega emasligi hisoblanadi, chunki aytuvchining badihago'yligi bilan bog'liq holda allaning bandlari to'rt yoki olti misradan iborat bo'lishi mumkin. Alla bandlarining bunday noizchil hajmga ega bo'lishi mazmuniy qamrov bilan shartlangan. Quyidagi alla namunasi fikrimizning dalili bo'la oladi:

Alla, merting oy bolam-a,

Tog'lardagi do'lanam-a,

Koz'dan, suqdan asrasin-a,

Beshikdagi tug'donam-a.

Ko'rinib turibdiki, alla bandi turkiy xalqlar og'zaki lirikasi uchun an'anaviy bo'lgan to'rt misradan iborat. Har bir misra shunchaki bandning ritmi yoki ohangdorligini ta'minlash maqsadida keltirilgan "to'ldiruvchilik" vazifasini ado etmay, balki bandning umumiy mazmunini bevosita ta'minlovchi semantik jihatdan teng huquqli uzviyligini tashkil etgan. Jumladan, birinchi bandda ona o'z bolasini tun bag'rini nurafshon etib balqib turgan oyga o'xshatadi va "oy bolam" istiorasi orqali o'z mehrini ifodalaydi. Ikkinchi misrada esa barcha xavf-xatar, ziyon-zahmatdan muhofaza etilgan bola tog'ning inson qo'li yetmas qoyalarida, binobarin, bevaqt zavol ko'rmaydigan joylarda meva tuggan do'lanaga qiyoslanib, "dolana" istiorasi bilan atalgan. Ko'kdagi to'lin oy istiorasi go'zallik ramzi bo'lishi barobarida hech bir jonzo'ning qo'li, hamlasi tegmaydigan narsa, ikkinchi istiora tog' do'lanasi ham ana shunday ramziy obraz, ammo birinчисiga qaraganda ancha realroq va hayotiyroq. Ikki ramziy istiora birikib, onaning o'z bolasiga bo'lgan iliq va bitmas-tuganmas mehrini jo'shqin tuyg'ular bilan ifodalashga imkon bergan. Bunday go'zal, jozibali va ta'sirchan tasvirlangan obraz albatta himoyaga, yovuz kuchlardan, inson ko'zidan o'tadigan suq-hasadlardan muhofaza qilinishga muhtoj. Bunda himoya vositasi ham muhayyo. U ham bo'lsa, bolaning beshigiga qo'yiladigan rang-

barang magik narsalardan biri va xalq nazarida eng kuchli sehr-jodu qudratiga ega bo'lgan tug'dona hisoblanadi. Ushbu narsa bolani yomon ko'zli kishilarning nazaridan, suqidan, yovuz ruhlar xurujidan yaxshi saqlaydi. Shuning uchun ham o'z bolasining tinch-omonligi haqida qayg'urgan ona barcha magik narsalardan ko'ra tug'donani alohida ajratib tilga olgan. Demak, tug'dona birinchidan, eng kuchli magik narsa bo'lsa, ikkinchidan, bu detalning atama shakli yuqoridagi do'lanaga juda uyqash, qofiyadoshdir. Mana shu faktning o'ziyoq an'anaviy xalq allalarining ham mazmuniy, ham g'oyaviy, ham badiiylik nuqtai nazaridan nihoyatda yaxshi sayqallanganligini tasdiqlaydi. Ona o'z allasida davom etadi. Endi u o'z chaqalog'ining tashqi qiyofasini ta'riflashdan uning sog'lom va durkunligini tavsiflashga o'tadi:

Qo'li qo'liga tegadi-yo,

Jovrinlari jovqillab.

To'nlar kiyib, alla-yo,

Buyraklari bo'killab.

Alla, bolam, alla-yo,

Omnchog'im, alla-yo.

Yuzaki qarasa, bu bandda g'ayrioddiy hech qanday ifoda, obrazlilik yo'qdek tuyuladi. Ammo jiddiyroq ahamiyat berilsa, alla bandida shaklan oddiy, ammo mohiyatan kuchli pardalangan obrazli ifoda mavjudligi anglashiladi. Chaqaloqning sog'lom va durkunligi ikki badiiy detal orqali ifodalangan. Xuddi mana shu ikki poetik detal qo'shiqqa ham ifodaviylik, ham tasviriylik bag'ishlagan. Bir paytning o'zida ikki kichik badiiy detal orqali nozik ifodaviylik va tasviriylikni ta'minlash faqat an'anaviy xalq qo'shiqlaridagina ko'p uchraydi xolos. Bolaning qo'lini qo'lga tekizishi uning sog'lom va harakatchanligidan dalolat beradi. Agar u sog'lom bo'lmasa, shalpayib yotishga mahkum. Ammo allada u qo'lini qo'lga urib yoki bir qo'li bilan ikkinchi qo'lini ushlab, tortib doim harakatda. Alla aytayotgan ona mehri bu bilan qanoatlanmaydi. U endi boladagiana shu faoliyatni kuchaytiruvchi, tasdiqlovchi ikkinchi bir detalga murojaat etdi. Bu bolaningjovrinlari (yelkalari)ning semizligini ta'kidlashdan

iborat. Yelkalar yaltirab tursa, demak, bola semiz, kuch-quwatga to'la, binobarin, uning harakatchanligi uchun imkon bor. Ma'lum bo'lib turibdiki, alladagi bola obrazining faolligini ko'rsatuvchi, ifodalovchi badiiy detallar bir-biriga bog'liq, bir-birini tasdiqlab, talab etib turadi. Bu ham ona allasi uchun kamlik qiladi. Natijada, allaga yuqoridagi badiiy tafsillar bergan tasvirni yanada kuchaytiruvchi uchinchi detal - buyraklari bo'lkillab to'nlar kiyishi esa uning ulg'ayishini anglatadi.

Allaning keyingi ikki misrasi esa butun bandlar uchun leytmotivlik (bosh g'oyalik) vazifasini o'tagan motivni ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Refrendagi "ovunchog'im" istiorasi esa ona uchun farzand shu o'tkinchi dunyoda tutib turadigan va barcha hayot tashvishlarida suyab turadigan ovunish manbai ekanligi alohida jarang va latofat bilan ifodalashga xizmat qilgan.

Bola-onaning ko'z qorachig'i. U bu olamni, qorong'u tunlarni faqat ana shu qorachig'i bilan nurafshon etib turadi. Vohadan yozib olingan ko'pgina alia namunalarida ana shu g'oya qarog' (ko'z qorachig'i), chiroqqa o'xshatilgan detallar vositasida jozibali ifodalangan:

Aylanayin qarog'im,

Qorong u kechalarni

Ovdin qilgan chirog'im,

Alia, jonim, alla-yo.

Allaning oxirgi bandi tashqi badiiy shakli bilan ham diqqatga molik. Birinchidan, to'rt misraning birinchi, uchinchi misrasi to'liq qofiyalangan, ikkinchi to'rtinchi misralar qoflyalanmagan. Ikkinchidan, ikkinchi misradagi fikr uchinchi misraga ko'chirilgan. Bu hodisa xalq she'riyatida juda kam uchrasa-da, bu o'rinda ikkinchi qofiyasiz misraning ochiqligini ma'lum darajada yopib, yashirib turadi. To'rtinchi misra esa odatdagidek refrenlik vazifasini o'tagan.

Qashqadaryo vohasidan yozib olingan ayrim allalar asosan ikki tema-rematik misradan tashkil topgan bo'lsalar ham, biroq ular takrorlanib keluvchi ikki misradan iborat refrenlar bilan qo'shib, yaxlit to'rtlik bandni tashkil etadilar. Quyidagi alla namunalari fikrimizning dalili bo'la oladi :

*Alla deb atta qilay,
Ko'tarib katta qilay.
Alla, bolam, alla-yo,
Jonim bolam, alla-yo.
Boqqa kirsam, gulg 'uncha,
Uxlab olgin to 'yguncha.
Alla, bolam, alla-yo,
Jonim bolam, alla-yo.*

Keltirilgan ikki band allaning dastlabki ikki misrasi alladagi mavzuni ham mavzu, ham fikr oqimi, ya'ni tema-rematik jihatdan harakatlantirib turadi, refrenlar esa alla leytmotivini ta'kidlashga xizmat qiladi. Shu bois dastlabki ikki misra o'zaro to'q qofiya bilan (atta-katta, gulg'uncha- to'yguncha) bilan ta'minlangan.

Qashqadaryo vohasi allalari koloriti bilan alohidalik kasb etib turadi.
Masalan:

*Qo'zi boqqan qo'y etsin,
To'yganingcha to'y etsin.
To'y-to 'ylarga ulashsin,
Davlat boshingga o'rnashsin,
Alla, bolam, alla-yo,
Jonim bolam, alla-yo.*

Ushbu alladagi "qo'zi", "qo'y", "davomli to'y berish" kabi tafsillar orqali voha aholisining ko'pchilik qismi chorvachilik bilan shug'ullanishi, to'ylarda ko'pkari berilishi va ularning ko'p kunlar davom etishi bilan bog'liq mahalliy xususiyatga urg'u berilgan.

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G'uzor, Nishon tumanlarida quyidagi allalar keng tarqalgan. Ularda bolaga ezgu istaklar, porloq kelajak va omad tilanadi :

*Qo'ng'iroqday qo'shig'ing,
Olchi bo'lsin oshig'ing,*

Qayrang bo'lsin qoshig'ing,

Alla-yo, alla.

Quyidagi allada esa chaqaloq tavsiflanadi, uning nodir va noyobligi vasf etiladi:

Yo'qdan yo'nib olganim,

Ko'kdan qo'nib olganim,

Olamga jar solganim,

Alla-yo, alla...

Keltirilgan har ikki allaning bandi o'zaro qofiyalangan uch misra va refren sifatida takrorlanib keluvchi "alla-yo, alla" so'zlaridan tashkil topgan. To'q qofiya bilan uyg'unlashgan misralar yetti bo'g'inli barmoq vaznida bo'lsalar, refrenlar bosh hijoli vaznga ega.

Ayrim alla bandlari olti misradan tashkil topgan bo'lib, dastlabki ikki misra o'zaro, keyingi ikki misra o'zaro qofiyalangan, so'nggi ikki misra esa refrendan iborat. Ushbu allalarda bolaga yaxshi, davomli uyqu tilanadi, uning sifati vasf etiladi:

Uyqu bersin ko'zingga,

Insof bersin o'zingga.

Bolaginam bolasi,

Qo'lidagi lolasi.

Alla, bolam, alla-yo,

Uxla, erkam, alla-yo.

Quyidagi alia esa bolali kelinchakning taqinchoqlari, farzand oiladagi totuvlikni ta'minlovchi baxt nishonasi ekanligi ifodalangan:

Qizni yaxshi ko'rsatgan

Bo'ynidagi jilosi.

Xotinni erga suydirdan

Qo'lidagi bolasi.

Alla, bolam, alla-yo,

Erka, bolam, alla-yo.

Ushbu bandning birinchi, uchinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralari o'zaro qo'riyalangan. Dastlabki ikki misra bilan keyingi ikki misra o'zaro tematik-psixologik parallelizm qonuniyati orqali bog'langan. Chunki qiz bolani go'zal, suyumli qilib ko'rsatgan narsa bo'ynidagi taqinchoqlar bo'lganidek, oilada ayolni suyumli qilib ko'rsatgan vosita farzanddir. Demak, chaqaloq ota-onaning, oilaning ko'rki, boyligi va baxti.

Qashqadaryo vohasida ijro etilgan allani ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, ularda onalarning quvonchi, faxri, shodligi, g'am-anduhi, alami, hayot, sevgi va hijron haqidagi o'ylari, kechinmalari o'z ifodasini topgan. Eng muhimi, ana shu o'y va kechinmalar sinkretik holda ifodalanganki, ko'p hollarda ularni mana bu - emotsional alla, mana bu - sentimental alla deb alohida-alohida tasnif etishning imkoni yo'q.

Qashqadaryo vohasida beshik to'yidan keyin bola to yurib ketguncha aytiladigan turli-tuman aytimlar borki, ular bola hayotida yuz beradigan u yoki bu voqea-hodisa munosabati bilan ijro etiladi. Mavzu jihatidan bu aytimlarning beshik to'yiga aloqasi yo'q. Lekin ijro etilishi payti bevosita bolaning beshik davri bilan bog'liq. Bolaning ilk bor tishi ko'ringanda ota-ona uchun ham quvonchli, ham tashvishli onlar boshlanadi. Chunki tish chiqishi insonning rizq-baraka pallasiga oyoq qo'yishini anglatadi. Bu narsa ota-ona uchun katta quvonch bag'ishlaydi. Ammo tishlarning milkni asta-sekin yorib chiqishi qiyinchilik bilan kechadi: bola isitmalaydi, injiqlik qiladi va hokazo. Ayniqsa, uning ilk tishi ko'rinishi ota-ona tomonidan katta quvonch va tashvish bilan kechadi. Mana shunday paytlarda chaqaloqing onasi yoki momosi injiqlanayotgan bolaning boshidan bir siqim guruchni sepib, quyidagi aytimni ijro etadi:

Bahor keldi, qish chiqdi.

Chaqaloqqa tish chiqdi.

Kichkintoy deb o'ylamang,

Bolamga yumush chiqdi.

Ovqatni chaynashiga,

Har kuni bir ish chiqdi.

Aytimning dastlabki ikki misrasi tematik-psixologik parallelizm usulida yaratilgan bo'lib, chaqaloqqa ilk tish chiqishi ota-ona qalbida qish ketib bahor kelganday quvonch bag'ishlaganligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Keyingi misralar esa ana shu quvonch va shodlikning sabablarini ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqatan ham tish chiqishi "bir parcha go'sht" bo'lgan chaqaloqning tish chiqarib, asta-sekin o'z rizqini tishlab yeydigan odam qatoriga kirganligini bildiradi. Xalq o'rtasida tishning rizq-ro'z ramzi ekanligi, "tishi bor qulning rizqi bor" kabi maqollarning mavjudligi ham bu fokmi tasdiqlaydi.

Ilk tish chiqqandan keyin ko'p vaqt o'tmay ikkinchi tish ham ko'rinib qoladi. Chaqaloqning ota-onasi yana bolaning boshidan guruchday oq va tekis chiqsin deb guruch sepadi va quyidagicha aytimni aytadilar:

Ikki tishingga dur bo'lay,

Qilgan ishingga qur bo'lay.

Xaloyiqning ko'zi bo'lib,

Kissa buring o'zim bo'lay.

Yoki:

Ikki tishingdan aylanay,

Qilgan ishingdan aylanay.

Madrasaning qubbasiday

Qora boshingdan aylanay.

Keltirilgan ikki to'rtlikda ham ikki tishli bo'lgan bolani madh etish, otalarning o'z farzandlariga fidoyiliklari vasf etilgan. Aytimlar yetti, sakkiz hijoli barmoq vaznida bo'lib, to'q qofiya holida qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'zlar bilan ta'minlangan. Bu narsa aytimlarga o'ziga xos ohangdoshlik, uyg'unlik bag'ishlagan. Keyingi to'rtlikda esa bolaning boshi madrasaning qubbasiga o'xshatilgan. Bu narsa bolaning sog'lomligi va durkunligini ifodalashga xizmat qiladi.

Tug'ilgan farzand har vaqt, har kun ota-onaning, bobo-momoning, barcha yaqin kishilarning diqqat markazida bo'ladi. Uning qiqirlab kulishi, hech kim tushunmaydigan tovushlarni aytishi, xatti-harakati barchani quvontiradi. Ayniqsa, bolaning ilk bor gavdasini tik tutib o'tirishi oilada katta shodiyonaga sabab bo'ladi. Mana shunday paytlarda momolar yoki onalar bolani erkalab, bag'riga bosib, quyidagi misralarni aytadilar:

O'tirsin-o, o'tirsin,

Boshini gulgun to'ldirsin.

Bolaginamni k'rgan qizlar

O'zini osib o'ldirsin.

Bolaning ilk bor o'tirishi - uning hayotga qad rostlayotganligidan nishona. U endi asta-sekin qaddini rostlaydi, sog'lom, baquvvat o'sadi. Mana shu orzu-ishonch kelajakda uning qaddi-qomati kelishgan, husni-chiroyiga, bo'y-bastiga oshufta qizlar o'zlarini qurbon qilishga tayyor turgan yigit bo'lib yetishishini istaydilar, bu aytim misralarida dadil mubolag'alar qo'llashga olib keladi. Demak, aytimning so'nggi misralaridagi yigitning qaddi-qomatini ko'rgan qizlarning o'zini osib o'ldirishga tayyor ekanligini ifodalagan mubolag'a ota-ona yoki bobo-momolarning istaklari tufayli vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Bunday aytilar yetti, sakkiz yoki to'qqiz hijodan iborat vaznga ega bo'lib, o'ynoqi ohangda ijro etiladi. Aytimning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari to'liq ohangdosh so'zlar vositasida qofiyalangan. Hozir yosh onalar bunday aytilarni unutib yuborishgan. Biroq ularni yana hayotga qaytarish, bir tomondan, unutilib ketayotgan milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishday xayrli ish bo'lsa, ikkinchidan, ular ota bo'lish baxtiga muyassar bo'lgan kishilarga farzand ko'rib, ularni tarbiyalash gashtini yaxshiroq surishga xizmat qiladi.

Farzand ko'rgan kishilarning eng quvonchli kunlaridan biri - bolaning ilk bor qadam qo'yishi, atak-chechak yurishi hisoblanadi. Chunki bolaning ilk bor yurishi uning butun hayotida mustaqil qadam qo'yishi va butun umrini o'z qilmishlari bilan kechirishidan darak beradi. Mana shuning uchun qadamlari tezlashsin, dadillashsin deb momolar bolaning oyog'iga ip bog'lashib, keyin shu

ipni kesib yuborishadi, o'z oyog'i bilan bosib o'tadigan yo'li shirin va rizqli bo'lsin deb oyoqlari ostiga kulcha nonlar yumalatishadi, boshidan shirinliklar sochishadi. Bu qand-shirinliklarni, kulchalarni bolalar terib olishadi. Shunday paytlarda bolaning momosi yoki boshqa ayollar quyidagi aytimlarni aytadilar:

Toy-toy, toy yursin,

Toyday bo'lib shul yursin.

Ko'zi yomon kishilarning

Ko'zi toyga tegmasin.

Ayrim joylarda aytimning birinchi misrasi "atak-chechak yursin" shaklida ham aytiladi. Aytimning turli nusxalaridagi farqlaridan qat'i nazar, ularda bola butun umri mobaynida yomon kunlar ko'rmasin, bosgan qadami o'ziga yaxshilik, yomon kishilar nazaridan uzoq yursin, degan ezgu istaklar tilanadi. Aytimlar asosan yetti bo'g'inli barmoq vaznida yaratilib, to'q yoki och qofiyalar bilan ohangdoshlik kasb etadilar.

Bola ilk bor yurganda aytiladigan yana shunday aytimlar ham bor, ular turlicha band tuzilishiga ega. Ular yetti bo'g'inli barmoq vaznida bo'lib, dastlabki to'rt misra alohida, keyingi ikki misra alohida qofiyalangan. Biroq olti misraning oxiri aytim ota-onaning farzandga yaxshi tilaklar bildirganligi uchun shart fe'li qo'shimchasini olgan so'zlar takrori bilan yakunlangan :

Yugursa - onasi ko'rsa,

Yugursa - otasi ko'rsa.

Yugurib bozorga borsa,

Go'shtni birinchi keltirsa,

Onasi pazanda bo'lsa,

Bolasi xo'randa bo'lsa.

Hozir bunday aytimlar xalq orasida juda oz saqlanib qolgan.

Bolaga yangi kiyimlar kiydirish ham ota-ona uchun katta xursandchilik keltiradi. Chunki yangi kiyim barcha uchun alohida nishonlanishi lozim bo'lgan kunlarda - bayram va to'y-ma'rakalarida, shuningdek, bolaning bo'yi o'sganda kiydiriladi. Yangi kiyim kiyish paytida yaxshi istaklar tilanadi va bolaga doim rang-barang

kiyimlar nasib etishi, eskilari esa tez-tez yirtilishi nasib etishi ta'kidlanadi. Xalq nazarida yangi kiyim kiyish paytida tilangan istaklar albatta amalga oshadi. Masalan, bolaga yangi ust-kiyimlar kiydirilganda quyidagicha aytimlar ijro etiladi. Bu aytimlar bolani ki- yintirayotgan momo yoki ona tomonidan, ammo bolaning tilidan aytiladi:

San ko'hna-yu, men yangi,

San o'lginu man qolay.

Maning umrim ming yillik,

Sani umring bir yillik.

Keltirilgan to'rtlikdan ma'lum bo'layaptiki, bolaga uzoq umr, kiyimiga esa o'z umr tilanadi. Bolaga oyoq kiyimi kiydirilganda ham o'ziga xos to'rtliklar aytiladi. Ularda bolaning sog'lom bo'lishi, tepib-tepib yurishi uning dadil va baquvvatligidan dalolat beradi:

Tepa-tepa to'zdiray,

Mingan otim o'zdiray.

San bir yillik,

Man ming yillik.

Oyoq kiyimning tepa-tepa kiyishi oqibatida to'zishi - farzandga tilanadigan sog'liq, durkunlik va baquvvatlik nishonasi. Shunday ekan bunday bolaning omadi olchi boiadi, mingan oti ko'pkarilarda, poygalarda o'zib ketadi. Mana shunday ezgu istaklar tilash yangi kiyimlar kiydirishda aytiladigan aytimlarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Yuqoridagilardan tashqari, yangi kiyim kiydirilganda aytiladigan aytimlarning shunday umumiy turlari borki, ular xalq olqishlari bilan singishib ketadi. Shu sababli ularni xalq olqishlaridan farqlash qiyindir. Masalan:

Yoqasi toyli bo'hin,

Etagi loyli bo'lsin.

Kiyimi bir yilda to'zsin,

O'zichi, ming yil kulsin.

Yoqaning moyli bo'lishi sog'lik, to'lalik nishonasi, etakning loyli bo'lishi harakatchanlik, sog'lomlik nishonasi, o'zining ming yil kulishi uzoq umr, kiyimning bir yilda to'zishi o'sish ulg'ayish va salomatlik nishonasi. Xullas, xalq olqishlari shaklida aytilgan aytimlar ommabopligi va ravonligi bilan alohida ajralib turadi. Yangi kiyim kiydirilganda aytiladigan aytimlar asosan yetti bo'g'inli barmoq vaznida bo'lib, to'q qofiya va so'z takrorlari evaziga alohida qofiyadoshlik kasb etadilar. Bu xildagi aytilarning ayrim namunalari vohaning ko'p joylarida keksaroq momolar tomonidan hozir ham aytib turiladi.

Bolaning ishtaha bilan ovqatlanishi uchun yaxshi kayfiyat kerak bo'ladi. Chunki bola bir kunda to'yib bir necha marta ovqatlansa, kuch yig'adi, tez ulg'ayadi va sog'lom o'sadi. Binobarin, bolani ovqatlantirishda ijro etiladigan aytimlar uning ruhini ko'tarish, kayfiyatini yaxshilash, ishtahasini ochishga xizmat qiladi. Mana bir misol:

Desam-chi, ho, desam-chi,

Chorvoqqa gul eksam-chi.

Sedanali nonini

Qavmoq bilan vesam-chi.

Bo'm-bo'sh yotgan chorvoqqa gul ekish gulzor qilishni anglatadi. Bu misra kishida yaxshi kayfiyat uyg'otadi. Sedanali issiq nonni qaymoqqa tegizib yeyishdan lazzatliroq narsa yo'q. Bu misralar esa kishida ishtaha ochadi. Demak, bolani ovqatlantirganda ijro etiladigan aytimlar uning kayfiyatini ko'tarish, ishtahasini ochishga xizmat qiladi. Bu xildagi aytimlar ham yetti bo'g'inli barmoq vaznida bo'lib, to'rtlikning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari to'q qofiya orqali o'zaro uyg'unlashadilar.

VOHANING SUNNAT (XATNA) TO'YLAR FOLKLORI JANRLARI

Sunnat (xatna) to'ylari musulmon olamida, jumladan, Markaziy Osiyoda yashovchi yerli aholi tomonidan o'tkaziladigan qadimiy marosimlardan hisoblanadi. Qashqadaryo vohasida ham ushbu to'y "sunnat to'yi", "xatna to'yi", "chupron to'yi", "qo'lini halolash" kabi atamalar bilan yuritiladi. Mazkur atamalardan "sunnat to'yi" yerli aholi arablar istilosidan so'ng islom dinini qabul qilib olgandan keyin kirib kelgan. Chunki sunnatning to'liq atamasi "sunnati Rasulluloh" deb atalib, payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi-vassallam tomonidan qilingan va boshqa musulmonlar tomonidan amalga oshirilishi, rioya qilinishi shart bo'lgan narsa ma'nosini anglatadi. Darhaqiqat, "pas sunna" so'zining lug'aviy ma'nosi ham "odat", "namuna" kabilarni anglatadi.

Sunnat to'ylarining o'zbeklarda qachon paydo bo'lganligi, uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi genezisi haqida hozirgacha aniq bir to'xtamga kelingan emas. Professor B.Sarimsoqovning fikricha, o'g'il bolani toq yoshlarida (3,5,7,9 kabi) xatna qilish juda ko'p xalqlarda bo'lgan jins-yosh initsiatsiya (sinov)marosimlari sifatida O'rta Osiyoda yashovchi urug' va qabilalarda ham qadimda bo'lgan. Shu munosabat bilan B.Sarimsoqov elshunos G.P.Snesarovning bir o'rinda xatna qilish islomga qadarli initsiatsiya marosimiga aloqador, ikkinchi o'rinda esa xatna qilish islomga qadar O'rta Osiyo xalqlarida bo'lmagan kabi fikrlariga e'tiroz bildiradi. Haqiqatdan ham xatna qilish odati Qashqadaryo vohasida yashagan urug' va qabilalarda islomga qadar

bo'lgan yoki bo'lmaganligini tasdiqlovchi aniq tarixiy ma'lumotlar yo'q. Marhum elshunos H.Ismoilovning yozishicha, xatna qilish ibtidoiy jamoa tuzumi davrida o'g'il bolaning o'spirinlik yoshidan balog'at yoshiga yetishi munosabati bilan o'tkaziladigan jismoniy sinov an'alariga borib taqaladi.

Bizning fikrimizcha, bu masalada aniq va tugal bir fikr aytish ancha qiyin. Juda ko'p tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, miloddan ikki-ikki yarim ming yillar oldin Misrdagi kohinlarda oddiy odamlardan ajralib turish uchun xatna qilish odati mavjud bo'lgan ekan. Ammo Markaziy Osiyo xalqlarida bu odatning qachon va qay yo'sinda paydo bo'lganligini aniq aytish mushkul. Buning sababi shundaki, birinchidan, xatna qilish haqida na biror tarixiy manbada, na arxeologik qazilmalarda aniq ashyo-dalil yoki fikr yo'q. Ikkinchidan, birgina Farg'ona vodiysi, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida miloddan oldin yashagan turli-tuman urug' va qabilalarda qanday urf-odatlar bo'lganligi ham hali to'liq aniqlangan emas. Uchinchidan, tilga olingan hududlarda yashovchi xalqlar urf-odatlarida turli xildagi etnik migratsiyalar va aralashuvlar oqibatida turlicha o'zgarishlar yuz bergan. Balki miloddan oldin hozirgi O'zbekiston hududida yashagan urug' va qabilalarda turlicha odatlar bo'lgandir, ya'ni biror urug' yoki qabilada xatna qilinsa, boshqalarida bunday odat bo'lmagandir? Bu masalani hal qilishda ko'p izlanish, tarixiy manbalarni jiddiy o'rganish, arxeologik qazilmalar olib borish bilan birga aholining turmush kechirish tarziga qarab ish tutish kerak bo'ladi. Chunki o'zbek etnosining o'zi ikki katta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Bular o'troq o'zbeklar (sartlar) va ko'chmanchi (nomand)lar. Har holda B.Sarimsoqovning "bolaning qo'lini poklash" marosimi islomga qadar ham O'rta Osiyo xalqlarida bo'lgan, degan fikri o'troq o'zbek urug'lariga nisbatan to'g'ri bo'lsa. ko'chmanchi o'zbek urug'lariga nisbatan bir o'ylab ko'rish kerak bo'ladigan masaladir.

Har holda, O'rta Osiyoning jug'rofiy, iqlim shart-sharoitlari bilan bog'liq holda yerli aholining tibbiy, gigiyena talablariga ko'ra yerli o'troq aholi o'rtasida xatna qilish odati islomga qadar ham bo'lgan, islom dini qabul qilingach, boshqa ko'chmanchi urug' va qabilalarda ham odat haqiqiy sunnat talablariga aylangan,

deb xulosa qilish mumkin. Bizning vazifamiz ana shu janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini, mavzu doirasi va ijrochilari tarkibini, ijro shartlari va usullarini, hozirgi holatlarini o'rganishdan iborat. Shu o'rinda, ya'ni voha sunnat to'ylari folklori janrlari haqida fikr yuritishdan oldin etnograf H.Ismoilovning yuqorida aytilgan fikriga o'z munosabatimizni bildirib o'tishni lozim topdik. Olim sunnat o'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish paytida o'tkaziluvchi jismoniy sinov shartlariga borib bog'lanadi, deydi. Bizningcha, mazkur odat ana shunday jismoniy sinov shartlari bilan bog'lansa ham, biroq bolaning o'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish paytida emas, balki bolalikdan o'spirinlik davriga o'tish paytida o'tkazilgan.

Endi xalqimizning azaliy marosimlaridan biri bo'lgan sunnat to'ylarining Qashqadaryo vohasida tashkil etilishi va o'tkazilishi paytida ijro etiladigan ayrim folklor janrlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, har bir ota-ona o'g'il farzand ko'rganda, uni alohida quvonch, alohida shod-xurramlik bilan kutib oladi. Chunki o'g'il farzand otaning merosxo'ri, uning xonadonidagi chiroqni yoqib turuvchi, kasbi va boshqa xohishlarining davomchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'g'il farzand tufayli xonadoniga yangi inson qo'shiladi, nasl-nasabi davom etadi. O'g'il farzand ko'rgan kishilar bola yoshidan o'tishi bilanoq uni sunnat qilish taraddudini ko'ra boshlaydi. To'yni o'tkazish uchun ota-ona avvaldan moddiy va ma'naviy jihatdan tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Sunnat to'ylari Qashqadaryoda ham bolaning toq yoshida ya'ni B.Sarimsoqov ko'rsatganidek, uch, besh, yetti, to'qqiz yoshlarida o'tkazilgan. Buning sababi sunnat juft yoshlarida qilinsa, bolaga baxtsizlik keltirar emish. Darhaqiqat, xalqimiz o'rtasida narsa yoki yoshning toq va juftligi haqida turlicha qarashlarmavjud. Masalan, sunnat to'ylaridagi yoshning toq bo'lishi, birinchidan, bolaning umri uzoq bo'lishini, ikkinchidan, farzandni sunnat qildirishdek baxt ota-ona uchun davomli bo'lishini anglatadi. Chunki toq narsa juftlikka, to'lishga intiladi. Juftlik esa to'lish, kamolot va narsaning, nisbiy intihosini ham anglatadi. Demak, sunnat to'ylarini toq yoshlarda o'tkazish an'anasi asosida mana shunday

to'ylarni o'tkazish baxti bizga yana nasib etish degan istakni, irimni anglatadi. Ammo toqlik boshqa marosimlarda o'zgacha ma'no anglatadi. Masalan, motam marosimida narsalarni toq qo'yish, nonni ham toq olib borish va toq tarqatish an'anasi asosida shu xonadonga kelgan o'lim shu bilan ketsin, juft bo'lmasin degan ma'noni bildiradi. Mana shundan kelib chiqilsa, sunnat to'ylarini bolaning toq yoshlarida o'tkazish ezgu maqsadlarni ko'zlash istagi bilan bog'lanadi.

To'y egasi o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, to'yni qachon o'tkazish, kimlarni taklif etish va boshqa xarajatlarni hisoblab chiqib, qarindosh-urug'lari, yaqin og'aynilari va qishloq yoki mahalla oqsoqollari bilan oldindan maslahatlashib oladi. Ularning taklif va mulohazalarini hisobga olib, tayyorgarlik ko'rgach, qishloq yoki mahalla oqsoqollari bilan yaqin qarindoshlarini, juda yaqin og'ayni-jo'ralarni "maslahat"ga chaqiradi. Ushbu yig'inda to'yning vaqti, masalliq va pishiriqlar, mehmonlar soni, ularga joy, xizmat qiluvchi kishilar va boshqa barcha narsalar haqida kelishib olinadi.

O'zbeklarda to'y qiluvchi xonadon egalari to'y uchun kerakli bo'lgan barcha narsalarni tayyorlab, xizmatga belgilangan mas'ul kishilar ixtiyoriga berib, o'zlari faqat kelgan mehmonlarning ko'ngli ovlash bilan band bo'ladilar. Erkak to'y egasi erkak mehmonlar bilan, ayollar esa ayol mehmonlar bilan band bo'ladilar. Shu o'rinda xalqimizdagi yaxshi bir an'ana - "to'y qarzi" haqida qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, to'y marosimini o'tkazish kishidan katta sarf-xarajatni talab etadi. Ana shu xarajat to'yni o'tkazish paytida to'y egasiga og'irlik qilib qolishi mumkin. Mana shunday paytlarda to'y egasining og'a-inilari, yaqin qarindosh-urug'lari, o'rtoqlari yoki hamqishloqlari ketadigan xarajatning bir tomonini ko'tarib yuborishadi; biri un yoki guruch, biri qo'y yoki novvos, biri ichkilik yoki meva-cheva kabi narsalarni yetkazadilar, bunday narsalarni ko'tarishga qurbi yetmagan kishilar esa imkoni doirasida pul bilan, xotin-xalajlar esa kiyimlik mato, to'ybolaga sarpo bilan to'yona qiladilar. Mana shularning barchasi "to'y qarzi" deb ataladi va bu "qarz"ni qilgan kishilarga to'y yoki boshqa ma'raka qilganlarida, albatta, qaytariladi. Xullas, to'yona yoki to'y qarzi

xalqimizning eng yaxshi an'anasi, uning olihimmatligidan nishona beruvchi dalil bo'lib, u hozir ham yaxshi saqlanib qolgan.

To'y kuni ertalab atrofdagi qishloq va mahallalarga maxsus kishilar yuborilib, beriladigan nonushta yoki elga tarqatiladigan oshga xabar beriladi. Ilgarilari bu vazifani ovozi o'tkir kishilar-jarchilar ado etganlar. Har bir qishloqning yoki mahallaning o'z jarchilari bo'lgan. Agar biror qishloq yoki mahallada jarchi bo'lmasa, bor joylardan xizmat haqi evaziga taklif qilingan. Ular erta tongdanoq oqsoqollarning ko'rsatmasi bilan ot yoki eshakka, hozir velosiped yoki boshqa ulovlarga minib olib, qishloqma-qishloq, mahallama-mahalla yurib to'yga taklif qilganlar. Jarchilar ikki xil xarakterdagi matnlardan foydalanganlar. Masalan, ayrim jarchilar falon kuni, falon vaqtda falonchilikiga oshga yoki nonushtaga, deb qichqirib xabar berganlar. Bunday jar matnlari o'ta erkin, badiiylikdan xoli va an'anaviy bo'lmaganliklari sababli folklor janri bo'la olmaydi.

Ammo professional jarchilarning ota-bobolardan an'ana bo'lib kelayotgan jar aytimlari borki, ular tuzilishi, mazmuni va badiiyati bilan, ayniqsa, go'zal tashbih hayratomuz mubolag'alari bilan bemalol folklor janri hisoblanadi. Ana shunday jar matnlari to'y marosimiga taalluqli mustaqil janr sifatida ilk bor professor B.Sarimsoqov tomonidan folklorshunosligimizga olib kirilgan edi. Bizning keyingi qidirishlarimiz ham mazkur janr Qashqadaryo vohasining ayrim joylarida juda ham qisqa shaklda saqlanib qolganligini tasdiqladi.

To'y kuni ertalab atrofdagi qishloq va mahallalarga maxsus jarchilar tayinlangan. Ular atrofdagi odamlarni to'y oshiga taklif etishib, maxsus aytimlarni bor ovozda ijro etganlar. B.Sarimsoqov ana shunday jar matnining to'liq nusxasini Shimoliy Totemistonning Shahrison yaqinidagi Yangiqo'rg'on qishlog'idan yozib olgan. Uning birinchi bandi quyidagicha edi:

O, tepadan-o o'chog'ini o'ydirgan,

Tevali (qashqa)qo'yini-yo so'ydirgan.

To 'shini menga-yo qo'ydirgan,

Katta-katta qozonni qurdirgan,

Barakalla-yo, boyvachcha-yo, Ubaydullo.

Bizning Qashqadaryo vohasida olib borgan izlanishlarimiz jar janrining faqat yuqorida keltirilgan bandiga juda yaqin bo'lgan bir-ikki bandni yozib olishga imkon berdi. Albatta, biz qayd etgan band o'ziga xos farqlanishlarga ega bo'lsa ham, biroq ifodalangan mazmuni jihatidan yuqorida keltirilgan banddan farqlanmaydi. Unda ham to'y egasining tepalik joydan o'choq o'ydirgani, ko'plab qoramol so'ydirgani, katta qozonlarni qurdirgani aytilib, to'y og'asinikiga barchani da'vat etishi ifodalangan:

*O, baland joydan o'chog'ini o'ydirgan,
Qoratovday buqasini so'ydirgan,
To'shini siylab, faqat menga kiydirgan,
Katta-katta qozonlarni qurdirgan,
(Falon joylik falonchinikiga) to'yga-a.*

Jarning navbatdagi bandi ham shaklan ayrim tafovutlarga ega bo'lsada, mazmunan bir xillik kasb etadi. Masalan:

*O, men yuraman-o chayqalib,
O, o'tiringlar-o so'ljayib.
O, bedovlarga ulog'ini orttirgan,
O, ming-ikki ming pulni tikib choptirgan,
(Falon joylik falonchinikiga) to'yga-a.*

Jar aytimlari izchil vazn tuzilishiga ega bo'lmasalar ham, barcha misralar 11-12 bo'g'inli barmoq vaznida bo'lib, misralar oxirida to'q misralar qo'llanilgan. Mazkur janr sunnat to'ylarida utilitar (sof maishiy)vaznda ado etilib, ulardan yuksak g'oyaviy-estetik maqsadlarni kutib bo'lmaydi. Jar matnlari bor ovoz bilan qichqirib aytilganliklari sababli har bir misra yoki banddagi ayrim misralar oldidan "o" undovi qo'shib ijro etiladi.

Vohada ijro etilgan jar namunalarini B.Sarimsoqov e'lon qilgan namunalar bilan qiyoslash, ulardagi mazmunning bir xilligi, lekin variantlari o'rtasida ayrim leksik farqlar mavjudligi bizni quyidagi xulosaga olib keldi: To'yga da'vat etuvchi jar matnlari taxminan bir-ikki asrlar mobaynida shakllanib, davomatli

ijro oqibatida sayqal topib, sekin-asta she'riy shaklga tushgan. Jarlar mazmunidagi bir xillik mazkur janrning ko'pchilik o'zbek urug'ari o'rtasida mavjudligidan dalolat bersa, matnlararo so'zlar (leksik)dagi tafovutlar mahalliy koloritdan boshqa narsa emas.

Jar chaqirilgach, atrof qishloq va mahallalarning aholisi guruh-guruh bo'lib, aytilgan vaqtga to'yxonaga kela boshlaydilar. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Qamashi, Dehqonobod, Yakkabog' tumanlarida amal qilinadigan qo'noq soldi udumi haqida to'xtalib o'tish kerak. Ma'lumki, uzoq-yaqindan kelgan qamidosh-urug', oshna-og'aynilar to'yning birinchi kuniyoq sovg'a-salomlar bilan yetib kelishadi. Tabiiyki, ularni to'yxonada joylashtirishga imkon bo'lmaydi. Shunda kelgan mehmonlar o'z to'pi bilan oldindan qo'ni-qo'shni yoki qarindosh-urug'larning xonadonida tayyorlab qo'yilgan joylarga yuboriladi. Bunday to'ylar qo'noqli to'y deb ham yuritiladi. Kelgan mehmonlarni kayvonilar belgilangan xonadonlarga taqsimlaydilar. Ularga atab to'yxonadan qo'niq beriladi, ya'ni mehmonlar soniga qarab guruch, yog', sabzi-piyoz, ichimlik, qatlama-patir, non-barcha narsalar yetkazib beriladi. To'y sohibi esa qo'noqlar tushgan xonadonlarni aylanib yurib, mehmonlarning ko'nglini ovlaydi. Mehmonlar minib kelgan ot-ulovlarga yem-xashak, suv beriladi.

To'yning birinchi kuni so'qim so'yish deb ham yuritiladi. Chunki shu kuni to'yga atab boqilgan jonzodlar so'yilib, elga osh tortiladi. Turli xonadonga tushgan qo'noqlar esa to'yning umumiy oshi yoki boshqa udumlarida ishtirok etsalar ham, biroq boshqa vaqtlarda o'zlariga belgilangan oshpazlar pishirgan taomlarni yeb, o'yin-kulgi qiladilar. To'yning birinchi kuni «Xatna» deb ham yuritiladi. Chunki xuddi shu kuni to'y egasining hayotdan ko'z yumgan ota-onasi yoki boshqa kishilar arvohiga bag'ishlab, jonliq so'yilib, qishloq mullasi bilan katta kishilar tilovat qiladilar. Mullaning oldiga choy, shirinlik, tuz qo'yiladi va u o'qigan har duosidan keyin ana shu narsalami kuf-suf etib dam soladi. Xatnada ishtirok etgan kishilarga

ro'molcha, mullaga esa pul va boshqa sovg'alar hadya etiladi. Dam solingan narsalar (choy, shirinlik, tuz va h.k.)to'y egasiga beriladi.

Ilgari erkaklarga mashhur dostonchi baxshilar termalar, dostonlar aytib xizmat qilganlar. Ularni katta-yu kichik, erkagu ayol barchasi tinglashgan. Hozirgi to'ylarda esa san'atkorlar xizmat qiladilar. Ayollar davrasida esa yo ayollarning o'zlari doira chalishib o'yin qiladilar, yo san'atkorlar musiqa chalib berishgan. Ayollar esa qadimdan aytilib kelinayotgan «Muborakbod» terma qo'shig'ini musiqa jo'rligida ijro etishadi. Bunday terma qo'shiqlarda to'y egalari, xatna qilinayotgan to'ybola madh etiladi; sunnat qilish musulmonchilikning muhim sharti ekanligi, to'y egalari ana shu muqaddas udumni ado etayotganlari bilan murorakbod etiladi. Quyida «Muborakbod» terma qo'shig'idan bir necha namunalar keltiramiz:

Muhanvnadning ummati.

Buvasining himmati,

Muborak, muborak,

Musulmonlik muborak.

Chin insonlik muborak.

«Muborakbod» terma qo'shiqlarining keyingi bandlari ham mana shu tarzda davom etadi:

Hech kishiga kelmas malol,

Uzatgan suvi halol.

Muborak, muborak,

Musulmonlik muborak,

Buxt-ehsonlik muborak.

O'zbeklar sunnat to'yi uchun peshona teri bilan topilgan halol pul to'plashadi. Chunki halol jamg'armadan qilingan to'y farzandga baxt, saodatli kelajak ato etadi. Mana shuning uchun to'ylarda xizmat qilish, yelib-yugurish hech kimga malol kelmaydi. Aksincha, bizlarga ham nasib etsin, bizlarni ham shunday to'ylarga yetkazsin deb har qanday topshiriqni bajonidil bajaradilar. Yuqoridagi qo'shiq bandida ana shu narsalar ifodalangan. Quyidagi bandda esa musulmonlikning muhim sharti ado etilayotganidan xursandlik kayfiyati kuylangan:

Ta'rifi qadim-qadim,

Qadimiy qutlug' udum.

Muborak, muborak,

Cho'ng imonlik muborak.

Keltirilgan termalar o'yin-kulgi, davrani qizitishda xizmat qilishi bilan birga to'ybolaga, to'y egasiga ezgu istaklar tilash, shunday muborak marosimga yetganliklari bilan qutlash uchun xizmat qiladi. "Muborakbod" terma-qo'shiqlari besh misradan iborat band tuzilishiga ega. Dastlabki ikki misra qo'shiq mazmunini harakatga keltirsa, qolgan uch misra naqoratlik vazifasini o'taydi va termaning bosh maqsadini ta'kidlashga xizmat qiladi. Terma yetti hijoli o'ynoqi vaznga ega bo'lib, bandlardagi dastlabki ikki misra juft holda to'liq qofiyalangan.

So'qim so'ydi kuni, ya'ni to'yning birinchi kuni bolalar o'rtasida turli an'anaviy o'yinlar o'tkaziladi. Bu o'yinlar turli shakl va harakatda bo'lib, mazmunan sunnat to'ylarining qiziqarli o'tishiga xizmat qiladi. Ana shunday o'yinlardan biri "oq suyak" deb ataladi.

Ushbu o'yin to'yxona yaqinidagi tekis joyda tashkil qilinadi. O'yinda ishtirok etuvchi bolalar ikki tarafga bo'linib, har ikki qismi o'rtasida tanga tashlanadi. Tanganing belgilangan tomoni tushgan tomon o'yinni boshlab beradi. Ikkinchi tomon teskari o'girilib, ko'zlarini yumib turishadi. Boshqa tarafning o'yinboshisi molning katta oq suyagini qulochkashlab uzoqqa otadi. Suyak yerga tushgach, raqib tomon o'giriladi va har tomonga tarqalib, suyakni izlaydilar. Suyak otgan tomon esa qator tizilib o'tirib, ularni kutadi. Ikkinchi tomon suyakni izlab topadi. Agar ular suyakni topa olmasalar, suyak otgan bolalar uni izlab topadilar va yana shu tariqa o'yinni davom ettiradilar. Agar suyakni ikkinchi tomon topsa, suyak topish navbati ularga o'tadi. O'yin suyakni ko'p marta otgan tomonga to'y egasi tomonidan atalgan sovg'a-salomni berish bilan yakunlanadi.

Mana shunday o'yinlardan yana biri "quloq cho'zma" deb ataladi. Bunda to'ybolaning o'rtoqlari yig'ilib turadilar. To'ybolaning tog'asi yoki amakisi va yoki boshqa yaqinlaridan biri bir ro'molchaga bir qancha tangani solib bog'lab,

uzoqqa otib yuboradi. Bolalar ana shu kichik tugunchakka qarab chopadilar. Unga yetib borgan bola tugunchani olib qochadi, qolganlar uni quvlaydilar. O'yinning sharti shuki, tugunchani olgan bola chaqqonlik bilan quvganlarning qo'lga tushmay belgilangan pakkaga yetib kelib turishi lozim. Ana shunda u o'yinni yutgan hisoblanadi, lattaga tugilgan pul va to'y egasi tomonidan belgilangan sovg'a g'olib bolaga beriladi. Ammo bu o'yinda yutib chiqish ancha mushkul.

Chunki o'n-o'n besh bolaning orasidan yorib o'tish, ularning qo'lga tushmaslik va tugunchani saqlab qolish deyarli mumkin emas. Agar u quvlayotgan bolalarning qo'lga tushib qolsa, bolalar uning qulog'idan cho'zib, tugunchakni yerga tashlashga majbur qiladilar. Tugunchak yerga tashlanganda uni boshqa bola chaqqonlik bilan ilib ketadi. Barcha bolalar uni quva ketadilar. Mana shu tariqa g'olib aniqlanguncha o'yin davom etadi. Atrofdan esa katta-yu kichik, erkag-u ayol bu o'yinni qiziqib tomosha qiladilar.

Yuqorida bayon etilgan ikki o'yinning tavsifidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular o'zbeklarning boshqa o'yinlaridek ko'p vazifalidir. Birinchidan, bu o'yinlar orqali bolalar vaziyatga qarab ish tutish, topqirlikka va tashabbusni qo'lga olib, o'yin shartini tez hamda mukammal ado etishga o'rganadilar. Ikkinchidan, o'yin shartlarini ado etish uchraydigan to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengib o'tishga, turli xil qiynoqlarga chidash, chaqqon harakat qilish, chidamlilikka o'rgatadi. Demak, sunnat to'ylarida o'tkazilgan bolalarning harakati o'yinlari yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Chunki o'yin davomida bolalar halol, hech qanday g'irromlik va ayyorliksiz harakat qilishlari lozim.

So'qim so'ydi kuni kechqurun "shomoshi" pishirib, barchaga tarqatiladi. Mana shundan keyin to'yxonada turli xildagi o'yin-kulgilar qililib, lapar va qo'shiqlar ijro etiladi.

Qashqadaryo vohasining kattagina qismi tog'li-qirli, qolgan qismi esa tekis cho'l zonasidan iborat. Sunnat to'yida shomoshidan keyin ijro etilgan terma-qo'shiqlarda shu yerning o'g'lonlari baland tog'larga, zalvorli qirlarga

qiyoslanib, madh etiladi, dehqonlarning, cho'pon-cho'liqlarning ximmati yuksak baholanib, sharaflanadi. Ana shunday terma-qo'shiqlardan bir-ikki namunalar fikrimizning dalili bo'la oladi:

To'ybolaning uvlari baland ekan, ho-ho,

Alp qomatli bo'ylari baland ekan, ho-ho,

Dadasining qo'ylari tugab bitmas, ho-ho,

To'ydan chiqmas boshginang omon bo'lsin, ho-ho.

To'y bo'layotgan xonadonning boshqa xonadonlardan balandligi, to'y bolaning bo'yi ham alp qomat ekanligi, shunga yarasha to'y og'asining himmati, boyligi ham ko'p ekanligi alohida vasf etilgach, unga yana ko'plab to'ylar o'tkazish nasib etishi tilanadi. Albatta, to'ybolaning bichimi kichik, uyi esa past bo'lishi mumkin, qo'ylari ham u qadar ko'p bo'lmasligi mumkin. Lekin qo'shiq an'anaviy tavsif asosida ijro etilaveradi.

Qo'shiq 12-13 bo'g'inli barmoq vaznida yaratilgan bo'lib, uning dastlabki uch misrasi o'zaro "o'ylari-bo'ylari-qo'ylari" to'liq qofiyalari va misralar so'ngidagi "ho-ho" undovlari orqali uyg'unlik, ohangdoshlik kasb etgan. To'rtinchi misra esa to'y egasiga tilangan ezgu istakni bayon etishga xizmat qiladi.

Navbatdagi to'rtlikda esa umumo'zbek to'ylarini o'tkazishdagi eng ezgu an'analar, to'y qiluvchiga, to'ybolaga yaqin qarindoshlar tomonidan qilinadigan sovg'a-salomlar, ko'rsatiladigan saxovatpeshaliklar tarannum etiladiki, bunday an'analar hozir ham saqlanib qolgan :

To'ybolaning belbog yarashibdi-yey,

Tog 'atari aqchadan qarashibdi-yey.

Ammalari zarchopon kiydirayin deb,

Navbat olishga rosa talashibdi-yey.

Shomoshidan keyin o'tkaziladigan bazmda ijro etilgan qo'shiqlarning mavzu doirasi juda ham keng. Ularning ko'pchiligi, yuqorida ko'rib o'tilganidek, to'ybolani, to'y o'tishiga ko'maklashgan qarindosh-urug'larini madh etishdan iborat bo'lsa, ayrim to'rtliklar sof lirik mazmunga ega bo'ladi. Masalan, quyidagi

to'rtlikda qizning ota-onasi tomonidan ko'rsatilgan qarshilik tufayli o'z sevgisiga yetisha olmagan yigitning armoni ifodalangan:

Harkani-ya, harkani,

Qo'yga qo'shdim serkani.

Beraman deb bermadi

Sochi uzun erkani.

Ba'zi qo'shiqlarda bevafo yor jabr-zulmidan nola chekkan yigitning dard-hasrati kuylangan:

Ro'molim oqdi-ketdi

Daryoning girdobida.

Qoraqosh tashlab ketdi

Qarshining maydonida.

Bu o'yin-kulgida to'ybola va uning qarindosh-urug'larini madh etishga bag'ishlangan qo'shiqlar o'n ikki hijoli barmoq vaznida bo'lib, to'rtlikning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari to'q qofiyalangan. Shu bois ular izchil ritmik tuzilishga ega bo'lib, uyg'un ohangdorlik kasb etadi.

Lirik mazmundagi qo'shiqlar esa o'ynoqi ritmga ega bo'lib, asosan yetti hijoli barmoq vaznida, ikki xil qofiyalanishga ega. Masalan, lirik mavzudagi ikki to'rtlikda birinchisi to'q qofiya orqali a-a-b-a tarzida, keyingi to'rtlikda esa ikkinchi, to'rtinchi misralar to'q qofiya vositasida, birinchi va uchinchi misralar esa so'z takrorlari orqali qofiyalangan. Umuman olganda, bu bazmda ijro etilgan an'anaviy qo'shiqlar badiiy jihatdan puxta, ta'sirchan bo'lib, ular ishtirokchilarning vaqtini xushlash, kayfiyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Qashqadaryo vohasi azal-azaldan dostonchi baxshilarning vatani boiganligi uchun ham ilgari sunnat to'ylariga turli joylardan baxshilar taklif qilingan. Ular yig'ilganlarga turU mavzudagi termalardan, «Alpomish» va «Go'ro'g'li» turkumiga mansub rang-barang dostonlardan kuylab berganlar. Hozir bu an'ana ma'lum darajada so'ngan, bazmlarga esa san'atkorlar taklif qilinmoqda.

Shomoshi bazmidan so'ng to'yning birinchi kuni yakunlanadi va ikkinchi kuni, ya'ni bolani sunnatga yotqazish kuni boshlanadi. Hozir bola peshindan keyin yotqaziladi. Bunga qadar elga osh tortiladi va o'ziga xos udumlar o'tkaziladi. Masalan, ayrim joylarda to'ybolajo'raboshi rahbarligida qishloqdagi biror xonadonga yashiriladi. Bola yashirinadigan xonadon esa tug'mas, farzandsiz oilaning xonadoni bo'lmasligi lozim. To'ybolaning ota-onasi jo'raboshiga pul yoki boshqa sovg'a-salom bergach, to'ybolani sunnat qiladigan uyga olib keladilar.

Kasbi tumaniga qarashli Komilon qishlog'i atroflarida esa ilgari bolani kechqurun sunnatga yotqizganlar. Xatna qilishdan oldin «bola qochdi» marosimini o'tkazganlar. To'ybolani chopon kiyib olgan bo'z yigitlar ko'tarib, yo tog'asinikiga, yo amakisinikiga qochganlar. Ular borgan joyda ziyofat tuzab qo'yilgan bo'ladi. Nihoyat gulxanlar yoqilib, to'yxonadan ularni aytgani bir yigit boradi. Unga sarpolar beriladi va bolani ohb qochgan yigitlar bilan bir nechta gulxanlar yorug'ida turli terma-qo'shiqlar aytishib, to'yxonaga kelishadi. Bu yerda to'ybolani bezatilgan, baland qilib ko'rpalar to'shalgan xonaga olib kirib ketadilar. Tashqarida esa qo'shiqlar aytilib, o'yin-kulgi qilinadi. Bu o'yinda ijro etiladigan qo'shiqlarni bir kishi boshlab beradi, uning qolgan misralariga boshqalar ham qo'shiladilar. Quyida ana shunday qo'shiqlardan namunalar keltiramiz:

Boshlovchi:

Ho, mayda-mayda, mayda,

Istarala mayda, mayday.

Barcha:

Hovligacha mayda tol,

Mayda tolga payvand sol.

Olgan yoring yosh bo'lsa,

Aldab-suldab yo'lga sol.

Ho, mayda-mayda, mayda,

Istarala mayda, mayda.

Bunday lapar-qo'shiqlar ijrosi paytida yigit-qizlar o'yinga tushib turishadi. Shunda aytuvchilar o'yinchi qiz sha'niga ham hazil-mutoyiba mazmunidagi to'rtliklarni bag'ishlashadi:

*Tomni tepib yo qildim,
Oltinbardan to'n qildim.
Bir vengini tor qildim,
O 'ynamoqqa zor qildim.*

To'rtlik so'ngida yana naqorat ko'pchilik tomonidan takrorlanadi:

*Ho, mayday-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Ana shu tariqa o'yin-kulgi ham, lapar-qo'shiq aytish ham davom etadi:

*Tomdan tarasha tushdi,
Zuling yarasha tushdi.
Zulfigga qarab-qarab,
Qalpog 'im yerga tushdi.
Ho, mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Yoshlarning o'yin-kulgisiga tamoshabin bo'lib turganlar boisa, lapar-qo'shiqlar ijrochilari ularga ham yengil hazil bilan alohida bandlarni bag'ishlaydilar:

*Tom ustida beda bor,
Maydasini elab ol.
Bizlar qilgan bazmda
Qarilarga nima bor.
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Ayrim lapar-qo'shiqlarda o'zidan keksaroq kishilarga turmushga chiqqan juvonlar sha'niga hazil qilish bilan yoshlar o'z tengi-to'shlariga turmushga chiqishga ham da'vat etiladi:

*Eshik oldi moshpoya,
Bargi boshingga soya.*

*Seni o'zing yosh juvon,
Umring shu cholga zoya.
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Keltirilgan bandda nozik kinoya va kesatq o'ziga xos tafsil va obrazlar vositasida ifodalangan. Kinoya va kesatqning bunday ifodalanishi esa turkiy xalqlar she'riyati uchun qadim-qadimdan xos bo'lgan tematik-psixologik parallelizmlar orqali ro'yobga chiqarilgan. Darhaqiqat, moshpoya barglari boshga soya sola olmaganidek, cholga turmushga chiqqan juvon ham umrini xazon qiladi. Mana shu hayotiy haqiqat qo'shiqda moshpoya detali va chol kishiga turmushga chiqqan juvon obrazini muqoyasa qilish orqali ifodalangan.

Ayrim lapar-qo'shiqlarda qizlar, juvonlarning orzulari ularning o'zlariga munosib, vafodor umr yo'ldoshlari bo'lishi va yorlari har qadamda g'amxo'rlik, homiylik qilishlari haqidagi istaklari "parangi ro'mol" ramziy detali orqali ifodalangan:

*Parang ro'moli bo'lsa,
Ko'rpa qatiga qo'ysa.
Daladan yori kelib,
Olib boshiga solsa.
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Tassavvur qiling, yigit o'z yoriga xarir ro'mol sotib olib kelib, ko'rpa qatiga yashirib, so'ng dalaga ishga ketadi. Kechqurun daladan horib kelgan yigitni yori ochiq chehra bilan kutib olib, oldiga bir choynak issiq choy qo'yib, o'zi tezroq ochiqqan yorining qornini to'yg'azish orzusida o'choq oldida uymalashib yuribdi. Ochiq chehra va mehr-oqibatdan mast yigit sekin ko'rpa qatidagi ro'molni olib, asta juvonning boshiga solsa, ayolning qanchalik shod-xurram bo'lishini tasavur qilish qiyin. Bunday baxtni, mehr-oqibatni har bir ayol va erkak orzu qiladi. Yuqoridagi lapar-qo'shiq bandida ana shunda) oilaviy baxt haqida xalqimizning asriy orzu-umidi ifodalangan.

Lekin bunday baxt har kimga ham nasib etavermaydi. Ba'zan hayot bol umidida uzatilgan ko'ngil piyolasiga zahar soladi, bir parcha non istagida uzatilgan qo'lga tosh tutqazadi. Quyidagi qo'shiq bandida ana shunday holatga tushgan, ya'ni sevgan yoriga erisha olmagan oshiq yigitning fojiali ahvoli ko'k beda yemagan, sillasi qurigan ko'kot obraziga parallel keltirilishi orqali ifodalangan. Ko'k rangi esa, aslida, azali kishining ramziy ifodasi hisoblanadi:

*Aka oting ko'kmidi,
Ko'k bedasi yo 'qmidi?
Rangingda muncha qoning yo'q,
Sevgan yoring yo'qmidi?
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Biroq oshiq yigit o'z yori visoliga yetishdan umidini uzgani yo'q. U shikasta dil, aftodahol bir qiyofada visol dardida, hech bir kimsaga ko'nglini ochmay yuribdi. Tog'da yurgan ot obrazi oshiqning ana shunday holatiga ramziy ishora vazifasini o'taydi;

*Aka, otingni ko'rdim,
Tog'larda yurgan ekan.
Qayrilib salom bersam,
Tili yo'q hayvon ekan.
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Qo'shiqning navbatdagi bandida esa istioraviy ifoda yana kuchayadi. Hovlidagi tutga osilgan xurmachada sut to'la, qaymoq boylab turibdi, lekin undan ichishning imkoni yo'q. Chunki hovlini qo'rib yotgan it hech kimni xurmachaga yaqin yo'latmaydi. Xurmachadagi sut - oppoq visol ayyomi, sutdan ichish-visolga erishish demak. Ammo hovlini qo'rib yotgan it oshiqqa qarshilik ko'rsatuvchi ma'shuqaning otasi, u har qanday yo'l bilan ikki yoshning visolga yetishuviga qarshilik ko'rsatadi. Mana shu poetik mazmun qo'shiqda o'ziga xos ramziylik asosida, juda nozik istioraviy obrazlar vositasida ifodalangan:

*Hovlichada tutingiz,
Xurmachada sutingiz.
Beray desam qo'ymaydi
Ola bo'ynoq itingiz.
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Yigit-qizlar lapar-qo'shiqning o'ynoqi maromida yanada qizishib o'ynashda davom etishadi, atrofda davra qurib, qarsak chalib, qo'shiq kuylayotganlarga ilhom berayotgan qiz-juvonlar, yoshu qarilar sunna to'yining fayziga fayz qo'shib turar edilar. Qo'shiq-lapar esa o'zining lirik yechimiga yaqinlashib boradi. Oshiq uchun yorning uyi, visol oqshom o'tadigan xonadon quchog'idan shirin makon yo'q. Mana shu makon oddiy hayotiy detallar vositasida sodda qiyoslashlar orqali ifodalangan Bu detallar shinam va rohatijon mehmonxona o'chog'i, ko'kcha qovun po'chog'idan iborat. Darhaqiqat, uzoq yo'l bosib, sovuq yegan mehmoi uchun shinam va issiq mehmonxona o'chog'i oldida o'tirib taom yeyist issiq choy ichib, hordiq chiqarishdan yaxshisi yo'q. Yoki jazirama sara ton chog'i salqin mehmonxonada o'tirib, ko'kcha qovun yeyish, uninj novvotdan shirin selidan lazzat olish kimga yoqmaydi. Mana shunda tabiiy detallarni yorning shirin quchog'iga qiyoslash lapar-qo'shiq ijoc korlarining badiiy hofizasi, hayotni sinchkovlik bilan kuzatish doirasning kengligi va chuqurligidan dalolat beradi:

*Mehmonxona o'chog'i,
Ko'kcha qovun po'chog'i,
Muncha ham shirin ekan,
O'yinchining quchog'i.
Ho, mayda-mayda, mayda,
Istarala mayda, mayda.*

Mana shundan so'ng lapar-qo'shiq ixcham bir to'rtlik band bila yakunlanadi: «Bola qochdi» udumida ijro etiluvchi qo'shiq-laparlariga xos poctik belgilar:

- a) qo'shiq misralarining yetti bo'g'inli barmoq vaznida bo'lishi;

- b) qo'shiq bandlari olti misradan iborat bo'lib, ulardan oxirgi ikki misra naqorat vazifasini bajarishi;
- v) bandlardagi dastlabki to'rt misrada ritmik sintaktik parallelizmlarning mavjudligi;
- g) misralarning o'zaro to'liq qofiyalar vositasida uyg'unlik kasb etishi va nihoyat, butun qo'shiq davomida istioraviy hamda ramziy obrazlarning o'rinli istifoda etilishida ko'zga tashlanadi.

Xullas, "Bola qochdi" udumi Qashqadaryo vohasi sunnat to'ylarini nozik yumor, ba'zan achchiq hajv bilan boyituvchi, hazil-mutoyibaga boy bir uzvi bo'lib, u hozir ham jonli an'anada yashab keladi. Bu udum to'yni lirik kayfiyat bilan bezashi barobarida uning o'zga hududlarda o'tkaziladigan sunnat to'ylaridan alohidaligini, o'ziga xosligini ta'minlovchi bir belgi sanaladiki, bu an'anani yanada jonlantirish folklorshunosligimizning, etnografiyamizning muhim vazifasi hisoblanadi.

Qashqadaryoda sunnat to'yini ko'pkarisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Chunki ko'pkari o'zbek xalqining qadimiy udumlaridan biri hisoblanadi va u sunnat to'ylarining muhim uzvlaridan biri bo'lib qolgan. Sunnat to'ylarida ko'pkarining tashkil etilishi o'ziga xos sabablarga ega. Chunki u to'yni shunchaki qiziqarli o'tkazish uchun emas, balki qo'li halollanayotgan bola chavandozlardek dovyurak, chopqir, chapdast, tish-tirnoqli bo'lsin, degan niyat bilan o'tkaziladi. Bu o'rindi bir narsaga alohida to'xtalib, o'tish kerak bo'ladi. Bola sunnat yoshiga yetib, qo'li halollangandan keyin, unga atab toy sotib olishadi. Olinajak toy sinab, saylab xarid qilinadi. Chunki xalqimiz orasida aytib yuriladigan «Ot olsang, ho'kizqorindan ol, ho'kiz olsang, otqorindan ol» naqliga katta ahamiyat beriladi. Demak, sunnat qilingan bolaga kelajakda ko'pkari chopsa bo'ladigan toy yaxshi niyatlar bilan olib beriladi.

To'yning ikkinchi kuni uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarga osh tortilgandan keyin barcha ko'pkari bo'ladigan joyga taklif etiladi. Viloyatning boshqa tumanlaridan farqli o'laroq, Dehqonobod, Qamashi, G'uzor, Yakkabog',

Koson va Chiroqchi kabi tumanlarda chavandozlar otlarini uloqni iskatib, yarim soatlar chamasi choptirib shaylaydilar.

Mehmonxona vassasi,

Qizil gulning dastasi.

Aytsam ado bo'lmaydi

O'yinchining qissasi.

Aytsa ado bo'lmaydigan «o'yinchining qissasi» minglab oshiq-uma'shuqalarning dardu alami, hijron iztiroblarini o'ziga jo qiluvchi lirik,

kechinma bo'lib, u ijrochilarning badiha qudrati, tinglovchilar va xalq o'rtasida «qoqma» deb yuritiladi. Qoqma davomida chavan-o'yinchilarning xohishi, kayfiyatiga qarab davom etuvchi leytmotivdir. Bevosita mana shu leytmotiv «Bola qochdi» udumining uzoq vaqtlar mobaynida saqlanib kelishi va sunnat to'ylariga alohida ziynat baxsh etadi

“Bola qochdi” udumida ijro etiluvchi qo'shiq-laparlariga xos poetik belgilar:

- a) qo'shiq misralarning yetti bo'g'inini barmoq vaznida bo'lishi ;
 - b) qo'shiq bantlari olti misradan iborat bo'lib, ulardan oxirgi ikki misra naqorat vazifasini bajarishi;
 - v) bandlardagi dastlabki to'rt misrada ritmik sintaktik paralilizmlarning mavjudligi;
 - g) misralarning o'zaro bog'liq qofiyalar vositasida uyg'unlik kasb etishi vanihoyat, butun qo'shiq davomida istioraviy hamda ramziy obrazlarning o'rinli istifoda etilishida ko'zda tashlanadi;
1. Vohada o'tkaziladigan sunnat to'ylari bevosita bolaning bir yosh jins davridan ikkinchi bir yosh jins davriga o'tishini, ya'ni bolalikdan o'smirlikka o'tish davrini nishonlash, qonunlashtirish munosabati bilan amalga oshiriladi.
 2. To'yni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash uzvlari jihatidan voha to'ylarida alohidalik ko'zga tashlanmaydi. Bu narsa Qashqadaryo sunnat to'ylari ham genetik jihatidan umumo'zbek to'ylariga aloqador ekanligidan dalolat beradi.
 3. Qashqadaryo sunnat to'ylari ham uzoq davrlar mobaynida ayrim o'ziga xosliklar kasb etganki, ular qo'noq, bola qochdi, ko'pkari berish (bu udum

Surxondaryo, Jizzax, Samarqand atroflarida ham bor), olqish aytimlarida ko'zga tashlanadi.

QASHQADARYO NIKOH TO'YI FOLKLORI

Dunyodagi ko'pgina xalqlar qatori o'zbek to'ylari orasida nikoh to'ylari turli etnografik va folklor materiallariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham "to'y" so'zini eshitgan har bir o'zbekning ko'z oldiga, eng avvalo, nikoh to'yi keladi. Buning boshqa sabablari ham bor. Nikoh to'yi balog'atga yetgan ikki yoshning el-yurt nigohi oldida, ota-ona, qarindosh-urug', do'st-yor roziligi bilan qo'shilishini va shu orqali jamiyat hayotida davomiylikni ta'minlash, nasl qoldirish maqsadida o'tkaziladigan eng ezgu marosimdir. Chunki dunyoga kelgan har bir inson oila qurish, nasl qoldirishga, demakki, hayotda o'z izini qoldirishni orzu qiladi, unga yetishishga intiladi. Oila degan eng muqaddas jamiyat hujayrasi ham bevosita mana shu marosim orqali vujudga keladi va qadimgi ajdodlarimiz nazdida qonuniy-huquqiy jihatdan tan olinadi.

O'zbek nikoh to'ylari M.Alaviya, H.Ismoilov, B.Sarimsoqov kabi folklorshunos va elshunoslar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa ham, biroq ularning tadqiqotlari umumo'zbek nikoh to'ylariga bag'ishlanganligi sababli, turli

viloyatlarda o'tkaziladigan nikoh to'ylariga xos udumlar hamda aytimlarni to'la qamrab olmagan. Avvalo, Qashqadaryo hududida o'tkaziladigan nikoh to'ylari folklori folklorshunosligimiz uchun miqyos va darajasi bilan emas, balki original hamda betakrorligi bilan ahamiyatli. Ikkinchidan, voha nikoh to'ylari folklori umumo'zbek nikoh to'ylari folklori bilan qanchalar uyg'un hamda alohidaligi, ya'ni o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovordir.

Nikoh to'ylariga oid folklor materialining yana bir o'ziga xos jihati bor. Agar beshik to'yi folklori kattalarning bolaga atab yaratgan og'zaki ijodi bo'lsa, sunnat to'ylari folklori ham, ayrim bolalar o'yinlari hisobga olinmasa, kattalar ijodiga taalluqli bo'lsa, nikoh to'ylarida ijro etiladigan folklor asarlari asosan yoshlar ijodi mahsulidan iboratdir. Chunki nikoh to'yi yigit va qizlar hayotida eng aziz va unutilmas baxtli voqyeadir. Mana shu marosimdan keyin ular hayotiga boshqacha ko'z bilan, ya'ni ham jismonan, ham ma'nan kamolotga erishgan shaxslar ko'zi bilan qaray boshlaydilar. Mana shu marosimdan keyingina ular alohida mas'uliyat his etadilar, voqealarga o'zgacha baho bera boshlaydilar. Demak, nikoh to'ylari folklori tahlili ham boshqa to'ylar folklori tahlidan alohida mas'uliyat talab etadi.

Qashqadaryo vohasidagi nikoh to'ylari ham uch katta bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich qiz tanlash, sovchilar yuborish, unashtirish, fотиha to'yi o'tkazish kabi uzvlardan tashkil topgan. Ikkinchi bosqich katta to'y, ya'ni kelinni kuyovnikiga olib kelishdan iborat. Uchinchi bosqich yuz ochdi, kelinsalom va kuyov chaqirdi kabi uzvlarni o'z ichiga oladi.

Ko'p yillik izlanishlar shuni ko'rsatdiki, nikoh to'ylari barcha joylarda yuqorida ko'rsatilgan uch bosqichda o'tkaziladi. Nikoh to'ylarining yuqorida qayd etilgan uch bosqichda o'tkaziladigan marosim va udumlari shaklan rang-barang bo'lsa-da, biroq ularning hammasi mohiyatan yangi oila qurishdek jamiyatning eng mas'uliyatli muammosini hal etishga qaratilgan.

Farzandlar balog'at yoshiga yetganda ularning tashqi ko'rinishlarida ham, ruhiyatlarida ham o'zgarishlar yuz beradi. Yigitlarda biroz to'ng'lik alomatlari paydo bo'ladi, kechalari ko'cha-ko'ylarda ko'proq yuradigan, qizlarga ko'proq

tegajog'lik qiladigan, gap otadigan bo'lib qoladi. Qizlar esa jiddiy tortib, o'zlariga oro beradigan, uzoq-uzoq o'y suradigan, yigitlar gavjum joylardan ko'proq o'tadigan bo'lib qoladilar. Shunday alomatlarni payqagan ota-onalar o'g'illarini uylash, qizlarini uzatish taraddudiga tushib qoladilar. Ilgari Qashqadaryo qishloqlarida otalar o'g'illarining balog'at yoshlarini sezmasalar va to'y taraddudiga tushmasalar, otalarning oyoq kiyimiga bir dona sabzi yoki piyoz solib qo'yganlar. Oyoq kiyimini (masalan, kavush yoki kalishini) kiyaman degan ota uning ichiga solingan narsadan farzandini uylash payti yetganini bilib olganlar.

Farzandlar balog'at yoshiga yetganda ota-onalar ularning ro'zg'or tebrata olish iqtidori, kasbi-kori, mustaqil biror ishni qila olish kabi jihatlariga ham alohida ahamiyat berganlar. Onalar qizlariga sigir, qo'y yoki echki sog'ish, xamir qorish, non yopish, ovqat pishirish, uy supurish, tikish-bichish kabi ishlarni bajarishga o'rgatgan. Otalar esa o'z o'g'illarini biror hunar yoki ishga o'rgatish bilan mashg'ul bo'lganlar.

Vatan ostonadan, hovli bo'sag'adan, oila sovchilikdan boshlanadi, deganlaridek, farzandi balog'atga yetgan ota-ona dastlab o'z qishlog'i yoki mahallasidan, agar munosib qiz topilmasa, o'zga qishloqlardan qiz tanlay boshlaydilar. Bunda ular qarindosh-urug', tanish-bilish, yor-jo'ralar bilan maslahatlashadilar; tanlangan qizning nasl-nasabi, urug'i, sog'-salomatligi, yetti pushtida yomon kasallik bilan og'rigan (masalan, aqli zaiflik, badanida dog' yoki boshqa kasalliklar borligi) yoxud el ichida yomonlik bilan ot chiqargan kishilar bor-yo'qligiga alohida ahamiyat berganlar. Keyingina tanlangan qizning uyiga sovchi yuborishga ahd qiladilar.

Sovchilar ikki xonadon o'rtasida qarindoshlik iplarini bog'lashga da'vat etuvchi pokdomon kishilar bo'lishlari lozim. Tanlangan qizning oilaviy ahvoli, ota-onasining mavqeiga qarab sovchilar yo ayollar, yo erkaklardan iborat bo'lishlari mumkin. Odatda, sovchilar el-yurt orasida obro'li, tagli-tugli, so'zga chechan, fozil kishilardan iborat bo'ladilar Ularning gaplari mantiqli, ishonarli va tosh bosadigan bo'lishi lozim Chunki ular bo'lajak kelinnikiga elchi bo'lib,

bokira qizning "qo'lini" so'rab borishadi. Umr savdosining pishish-pishmasligi avvalo kuyovning o'zi, uning ota-onasi, qarindosh-urug'i va sovchilarning mahoratiga bog'liq.

O'zbeklarda sovchilar birinchi kelganlaridayoq rozilik berib yuborish odati yo'q. Chunki "qizi borning nozi bor" degan maqolga amal qilib, qiz tomon biroz noz qiladi va sovchilarni uch-to'rt marta qatnashga majbur qiladi. Yigit tomonning bo'lajak kelin xonadoniga ana shunday qatnash jarayoni xalq orasida obrazli qilib "kavush yirtar" deb yuritiladi.

Sovchilar bir necha marta kelgandan so'ng qiz tomon rozilik bermoqchi bo'lsa, sovchilar olib kelgan oq matoni olib qoladilar. Bu odat xalq o'rtasida "Og'iz bog'landi" deb yuritiladi. Qashqadaryoning chorvador tumanlarida dasturxon sari yog' qo'yilgan. Shunda sovchilar olib kelgan patirlardan biri ushatilib, dasturxon atrofida o'tirgan ikki tomonning vakillari sindirilgan patirdan bir parchadan olib, moyga botirib yeganlar. Bu udum "og'iz moylandi", "kulcha sindirish" yoki "patir ushatish" kabi nomlar bilan yuritilgan. Qashqadaryoda sovchilarning birinchi kelishi "eshik ochdi", "rozilik berishi" "boshi bog'landi" kabi nomlar bilan yuritiladi. Agar qizni berishga rozilik bermay, yigitni yomon otliq qilmoqchi bo'lsalar, sovchilar minib kelgan otning dumi qirqib qo'yilgan.

Odatda, sovchilikdan qaytgan ayollar yoki kishilarni o'g'ilning ota-onasi ramziy til bilan "bo'rimi yo tulki?" deb kutib olishgan. Agar umr ishini o'rinlatib, xushxabar olib kelishgan bo'lsa, "bo'ri", o'rinlata olmagan bo'lsalar "tulki" deb javob qaytarganlar. Albatta, bu javoblarda xalqning bo'ri kulti bilan bog'liq qadimgi e'tiqodiy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Nikoh to'ylarining unashtirish uzvi nihoyatda murakkab, mas'uliyatli va rang-barangdir. Masalan, boshqa joylarda bo'lganidek, Qashqadaryoda ham "beshik ketdi", "quloq tishlatar" kabi udumlar juda qadimdan saqlanib keladi. Ikki yaqin o'rtoq yoki bir-biriga o'ta xaddi sig'adigan oshna-og'aynilar o'rtalarida yaqinlikning, samimiylarning yo'qolmasligi, keyingi avlodlari orasida saqlanib qolishini istaganlarida, ikki xonadonning birida o'g'il, birida qiz tug'lsa, o'g'il

bolaga qiz bolaning qulog'ini tishlatganlar. Ular balog'atga yetishgach, sovchilarning ishi osonroq bitgan.

Ikki xonadonda bir o'g'il va bir qiz tug'ilsa, "beshik kertdi" udumi ham o'tkazilgan. Bunda qizcha beshigining biror yeridan pichoq bilan o'yib, kertib olinadi, ya'ni belgi qilib qo'yiladi. Ba'zan o'g'il bola va qizcha ko'ylagining etagidan bir parcha yirtib olinib, bu parchalar birgalikda saqlangan. Bu udum "etak yirtar" deb yuritilgan. Bu udumlar unashtirishning daslabki belgilaridan sanalsa-da, biroq unashtirish sovchilar orqali amalga oshadi. Ko'p hollarda qiz tomonning mavqei, obro'-e'tiboriga ham alohida e'tibor berilgan. Agar yigit tomon qiz tomonga dabdurustdan sovchi yuborishga jur'at eta olmasa, yigitning keksa, ammo yaqin ayol qarindoshlaridan biri tong qorong'usida borib, qizning darvozasi oldini supurib kelgan. Bu narsa bir necha marta takrorlangach, qiz tomon poylab turib, eshik supurayotgan shaxsni ushlab olgan va kimligini bilib olgan. Shunda ular sovchi yuborish mumkin, mumkin emasligini kelishib olishgan. Bu udum hozir deyarli saqlanib qolmagan. Xulosa qilib aytganda, ikki tomonning kelishuviga binoan to'yning daslabki bosqichlarini o'tkazishga kirishiladi.

Non sindirish. Qiz tomon rozilik alomatini bergach, yigit tomon bir necha kundan so'ng alohida dasturxon va sovg'a-salomlar bilan qiz xonadoniga kelishadi. Shunda yigit tomondan va qiz tomondan vakillar o'tirib, fotiha to'yining maslahatini qiladilar. Shunda mulla yoki obro'li keksa kishi yigit bilan qizning taqdiri mustahkam bog'lanishi haqida olqish-fotiha o'qiydi. Keyin davraning eng obro'li, yoshi ulug'i qo'lga bir juft nonni olib, barchaning guvohligida ularni teng sindiradi. Sindirilgan nonning bir qismi shu davrada o'tirganlarga, qolgan qismi esa ayollarga ulashiladi.

Buning ma'nosi shuki, non - tiriklikning eng buyuk ne'mati. Ushatilayotgan non yoshlarning nondek aziz bo'lib yurishlari va o'z qadr-qimmatlarini yo'qotmasliklari istagini ifodalaydi. Nonning juft sindirilishi asosida esa kelin-kuyovning qo'sha qarishlari haqidagi orzu-istaklari ifodalangan.

Fotiha to'yi. Ushbu marosim kelinning uyida o'tadi, ammo asosiy xarajat kuyov tomonidan bo'ladi. Kuyov va kelin tomon bir-birlariga sarpolar, sovg'a-salomlar ulashadilar. Qashqadaryoning ayrim joylarida kuyov tomonidan kelgan vakillar qiz tomon qo'ygan barcha shartlarni, talablarni bajo keltiradilar. Shuning uchun fotiha to'yi "yamoq soldi" deb ham yuritiladi. Fotiha to'yi olib kelgan kishilarni kelin tomon vakillari tayoq bilan asta-sekin urib kutib olganlar. Bu bilan ular ziyon-zahmatlarni, yomon ruhlarni quvganlar. Mana shundan keyin kelinning yaqinlaridan keksa bir xotin mehmonlarga un sepib, yuzlariga un surkab kutib oladi. Bu udum asosida ikki yoshning umr yo'li oq bo'lsin, yangi oila qutli bo'lsin degan istak yotadi.

Fotiha to'yida ikkala tomon katta to'yning o'tkazilish muhlati va boshqa kelishib olishadi. Barchaga osh tortilgach, oqsoqollardan biri fotiha o'qib, unashilgan ikki yoshga baxt, qo'sha-qo'sha farzand tilab, fotiha to'yini yakunlaydi. Bu marosim Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog' atrofida «to'qqiz bichar» deb yuritiladi. Fotiha to'yidan katta to'ygacha «quda qatnovi» degan davr hisoblanadi va bu davrda kuyov tomon kelin tomonga «payshanbalik», hayit va bayramlar davrida «hayitlik», «bayramlik» yuborib turadi.

Fotiha to'yidan biroz o'tgach, «qop qaytardi» marosimi bo'ladi. Unda kuyovga bosh-oyoq kiyim, pishiriqlar yuboriladi. Kuyovning uyida ziyofat o'tkaziladi va kelin tomon yuborgan pishiriqlarni yigit o'z jo'ralari bilan yeydi. Bu marosim ayrim qishloqlarda «quva quvdi», ayrim joylarda esa «savat qaytdi» deb ham yuritiladi.

«Savat qaytdi» dan keyin kuyov tomonidan bir-ikki kishi osh damlab yoki oshga masalliq olib, kelinning uyiga shirinliklar, kelinga ro'mol va boshqa narsalar olib kelishadi. Ushbu udum «hordiq» deb yuritiladi.

Katta to'y arafasida kuyov tomondan «o'tin puli», «tutun puli» ham berilgan. Bo'lajak kuyov o'zi uylanayotgan qishloq yoki ovulga ochiq borib qolsa, kelin tomondagi yigitlarga «ovul puli» ham to'lagan. Bu davrda kelin tomonda «ko'rpa bichdi», «ko'rpa qavish» deb yuritiluvchi ishlar hashar yo'li bilan o'tkazilgan. Xuddi shu paytda kuyov tomon qavilayotgan ko'rpachalarga

solinadigan paxta uchun pul bergan va u «paxta puli» deb yuritilgan. To'y arafasida bundan tashqari yana «kiyim bichar» yoki «sarmo bichar», «sarmo tikar» udumlari o'tkazilib, kuyov tomon «chok puli» ham bergan Qashqadaryoda kelin-kuyovga yangi o'tov tikish marosimi o'tkazilgan va u «qo'l solishish» deb yuritilgan.

Fotiha to'yi bilan katta to'y o'rtasida yilning fasliga qarab "yalpiz oshi", "bug'doy oshi", "qo'sh oshi" kabi udumlar ham o'tkazilgan. Kuyov tomonda kelinga uy tayyorlash yoki hovlini tartibga solishda yigitning jo'ralari ko'maklashgan va bu udum "kuyov hashar" deb yuritilgan.

Endi ikki og'iz qalin puli haqida. Ushbu odat qadimda turъ shakllar- da bizgacha yetib kelgan. Qalin pulining asl mohiyati kuyov tomonning kelin tomonga nisbatan hurmati, moddiy yordamini ifodalaydi. Qashqadaryoning ko'pchilik qishloqlarida qalin puli "sut puli" deb ham yuritiladi.

Chorvachilik rivojlangan hududlarda qadimda qalin puli jonzorlar hisobidan berilgan. Ya'ni cho'pon tayog'i suruvga qarab otilgan. Shunda qancha qo'y suruvdan ajralib chiqsa, ana o'sha qalinga berilgan. Bu qo'ylar xalq orasida "borliq" deb yuritilgan. Ikki tomon o'rtasida qalinning hajmini belgilash marosimi "kelin isish" deb ataladi.

Mana shu o'rinda yana bir narsaga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi. Qashqadaryoda to'ygacha bo'lgan davrda o'tkaziladigan katta marosimlardan biri "to'qqiz jo'natish" deb yuritiladi. Unda kuyov tomon kelinning uyiga yuboradigan narsalarning barchasini to'qqiztadan yuboradi. Masalan, to'qqiz botmon guruch, to'qqiz botmon un, to'qqizta qo'y, to'qqizta ko'ylak, to'qqiz xil mato, to'qqizta ro'mol va h.k. Albatta, barcha narsalarni to'qqiztadan yuborish to'qqiz maqomining qadimdan ota-bobolarimiz nazdida sehrli raqam hisoblanganligi bilan izohlanadi. Kechqurun to'qqiztadan tayyorlangan narsalarni ikki erkak va ikki ayol kelinning uyiga olib keladilar. Kelinning uyida esa qarindosh-urug', kelinning dugonalari olib kelgan narsalarni ko'rib, ma'qullashgandan keyin qizning ota-onasi tayyorlagan barcha narsalarni korchinga joylashtirganlar.

Yuqoridagilar bilan nikoh to'yining birinchi qismi yakunlanadi. Ko'rinib turibdiki, o'zbek nikoh to'ylarining dastlabki bosqichi turli-tuman urf-odat, marosim, rasm-rusumlarga boyligi va ochig'ini aytganda, chiqimdorligi bilan alohida ajralib turadi.

Ikkinchi bosqich - kelin tushdi yoki katta to'y.

Qashqadaryo vohasida ham nikoh to'ylari boshqa regionlardagidek ikki kundan iborat bo'lgan. Bunday muddat kuyov tomonda ham, kelin tomonda ham bir xil bo'lgan. To'yning birinchi kuni "kichik to'y" yoki "xatmi Qur'on" deb yuritilgan. Bunda kelin tomon ham, kuyov tomon ham olamdan o'tgan yaqinlarining ruh-arvohlariga atab, qishloq oqsoqollarini to'plab, ziyofat qilib, Qur'on suralarini xatm qildirgan. To'yning birinchi kunini "xatmi Qur'on" deb atashning sababi shunda.

Kichik to'y kuni "qiz bazmi", "qiz oqshomi", "qiz yig'di", "lapar kechasi" kabi atamalar bilan nomlangan. Chunki uzatilayotgan dugonalarining ziyofatini o'tkazish uchun yig'ilgan qizlar kechani qizdirish maqsadida childirma chalib, o'yin qilishadi. Mana shundan so'ng o'yinni tomosha qilib turgan yigitlar bir tomonga, qizlar bir tomonga turib olishadi, o'rtada baland qilib gulxan yoqishadi. Axborotchilarning ma'lumotiga ko'ra, ilgari Qashqadaryoning chorvador aholisi o'rtasida laparni boshlab beruvchi ayol va erkaklar bo'lgan. Ular bir-birlariga lapar aytishib, yosh yigit-qizlarni ilhomlantirganlar. Hozir bunday boshlovchilar yo'q. Ko'pgina to'ylarda laparni so'zga chechan kayvonilar yoki kishilar boshlab berishadi.

Lapar janrining ma'nosi hozirga qadar ilmiy adabiyotlarda izohlanmagan va bu borada ham birorta yangi izoh bera olmaymiz. Shu bois to'g'ridan-to'g'ri lapar matnlarini tahlil etishga o'tamiz. Biroq shu narsani alohida takidlashni istar edikki, lapar kechasi yigit-qizlar o'rtasidagi mehr iplarini bog'lashga xizmat qilishi barobarida mazkur janr o'ziga xos so'zga chechanlik sinovi, aytishuv sinovi vazifasini o'tagan. Bundan tashqari lapar aytishuv yosh yigit va qizlar

o'rtasida dil rozini bayon etish vositasi ham hisoblangan. Laparni kayvoni quyidagi to'rtlikni aytish bilan boshlab beradi:

Yo'llardan o'ygan bormi.
Bilakuzuk topgan bormi?
Oddiygina yorimni,
Aldab o'tganlar bormi?

Mana shundan keyin yo qiz tomon, yo yigit tomon lapar aytishni boshlab yuboradi:

Yo'llardan o'tgan o'zim,
Bilaguzuk topgan o'zim.
Oddiygina yorimni
Aldablar o'tgan o'zim.

Agar diqqat qilinsa, laparning boshlanishidagi band mazmuni, shakli (vazni), obrazlar tuzilishi, qofiyalanish tartibi keyingi misrada davom ettirilganini ko'rish mumkin. Darhaqiqat, boshlovchi banddagi bilaguzuk topgan yigit o'z baxtini topib, maqsadiga erishgan oshiqning timsoli. Shu bois laparchi yigit tilidan aytilgan banddagi yigit obrazi ana shu baxtiyor oshiq timsolining davomi, aynan o'zidan iborat. Unga qarata qiz tomon o'zining javobini qaytaradi:

Qiz:

Gulgun gutloligini,
Gulim ustida qo 'lim.
Men-ku yo'ldan adashdim,
Qaysidir mening uyim.

Demak, yigitning shirin gaplariga ishonib, aldanib qolgan qiz taqdirga tan beryapti va tezroq el-yurt oldida to'y qilib, men kelin bo'lib tushadigan uyni ko'rsat demoqda. Bunga javoban yigit shunday deydi:

Yigit:

Gulgun guttoli guling,
Guling ustida qo'ling.
Sen-ku yo'ldan adashsang,

Chor atrof sening uying.

Oshiq aldanib taslim bo'lgan ma'shuqaga barcha narsani, jumladan, bovlining to'rt tomoniga qurilgan uylarning barchasini hadya etmoqda.

Lapar to'rtlik ko'rinishidagi she'riy misralardan iborat, qashshoq badiiy shaklga ega bo'lsa ham, mavzu va mazmun jihatdan nihoyatda boy va erkin janr hisoblanadi. Shu bois banddan-bandga obrazlar, ularning noz-karashmali aytishlari keskin o'zgarib ketaveradi. Bu janrning poetik tabiatini belgilovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan lapar bandlarida aldab o'z maqsadiga erishgan oshiq va o'z taqdiriga ko'ngan ma'shuqa haqida so'z yuritilgan bo'lsa, quyidagi bandlarda butunlay boshqa oshiq-ma'shuqlar haqida kuylanadi.

Qiz:

*Negadir-o, negadir,
Umring hir yil kechadir.
Osmonda yorug' yulduz,
Sanab tushgin, nechadir?*

Yigit:

*Nechadir-o, nechadir,
Umrim ming yil kechadir.
Sen narvon bo'l men chiqay,
Sanab tushay nechadir.*

Qiz:

*Ariq labini o'ydim,
Qo'limga xina qo'ydim.
Ota-onamdan kechib,
Yoringa bino qo'ydim.*

Yigit:

Ariq bo'yida maysa,

Maysaning guli mayda.
Hammaning yori uyda,
Bizning qalamqosh qayda?

To'ylarda ijro etiladigan laparlarning mavzu doirasi shu qadar kengki, ularning aytimlarida qiz yigitga mushkul yumushlar bajarishni buyursa, yigit bunday yumushlarni faqat qiz hamroh bo'lsagina ado etajagini izhor qiladi. Ayrim lapar namunalari an'anaviy lirik motivlardan iborai bo'lsalar ham, biroq ularda mahalliy kolorit ustunlik qiladi. Bunday mahalliy kolorit lapar misralarida qo'llangan an'anaviy poetik detallar tarkibida ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek xalqi o'rtasida qadimdan ijro etib kelingan laparlarda "Ariq bo'yida jiyda, Jiydaning guli mayda" deb qo'fiyalangan bo'lsa, S. Ro'ziyeva variantida "Ariq bo'yida maysa, Maysaning guli mayda" deb kuylanadi. Bizningcha, "jiyda"ning "maysa" bilan almashtirilishi mahalliy shart-sharoit, o'simlik dunyosi asosida yuzaga kelgan. Chunki lapar aytuvchi she'riy misralarni quruq ijro etuvchi emas, balki unga ijodiy yondashuvchi, badiiy detallarni bevosita o'zi yashayotgan sharoitdan izlovchi badihago'y ijodkordir. Shu bilan birga u an'anaviy o'zbek laparlarida keng tarqalgan jafokor ma'shuqa obraziga xos yetakchi xususiyatni ifodalovchi "hammaning yori uyda bo'lgan paytda, uning yorining uyda bo'lmasligi" motivini hech qanday o'zgarishsiz qo'fiyalaydi. Chunki yorning zolimligi, bevafoqligi, jafokorligi motivi xalq lirikasi, shuningdek, klassik she'riyatimizda keng tarqalgan motiv bo'lib, xalq laparlarida ham bu motiv an'anaviy qo'llaniladi.

Qashqadaryo nikoh to'ylarida ijro etiladigan xalq laparlari asosan mustaqil to'rtliklar shaklida bo'lsalar ham, biroq ayrim laparlarda an'anaviy shakl tamoman buziladi. Masalan, S. Ro'ziyevadan yozib olingan lapar namunasida qiz aytgan lapar o'n ikki misradan iborat bo'lsa, yigitning qizga aytgan javobi esa olti misradan iborat va hazil-tegajog'lik mazmunidadir:

Qiz:

Oh, jaydari yigitning

Oq o'tovi bor ekan.
Oq o'tovning ichida
Oy kelinchak bor ekan.
Oy kelinchak yonida
Tilla beshik bor ekan.
Tilla beshik ichida
Oy chaqaloq bor ekan.
Oy chaqaloq boshida
Qizil olma bor ekan.
Qizil olmani tishlab
Makka tomon yo'l boshlang.

Qizning tilidan aytilgan o'n ikki misradan iborat bu banddagi har bir obraz, har bir detalning "oq" epiteti bor. Ushbu epitet birinchidan, ikki yoshning bir-biriga mehr-oqibatini, samimiylikni bildiradi. Chunki "oq jiydaning yigiti", "oq o'tov" baxtililik alomati. "Oq" epitetining davomi esa "oy" epiteti bilan davom etadi. Ushbu epitet ham yorug'lik, porloq kelajak belgisidan iborat. Ikkinchidan, o'n ikki misradan yetti misraning "o" tovushi, ikki misraning "t", ikki misraning "q" tovushi bilan boshlanishi laparda anaforik alliteratsiya mavjudligini ko'rsatadi. Anaforik alliteratsiya esa misralar boshlanishiga ohangdoshlik, uyg'unlik bag'ishlashdan tashqari baxt, porloq kelajak, omad, mehr-oqibat ma'nolarini ifodalovchi ramziy obrazlarni alohida ajratib ko'rsatish, ularga alohida urg'u berish vazifasini bajaradi.

Yigitning qizga javobi ham xuddi yuqoridagiga o'xshash, ammo "i" va "q" tovushlarining uyg'unligiga asoslangan, ammo nisbatan ozroq misralardan tashkil topgan:

Yigit:

Makka yo'li uzoqdir,
Ichgan suvim buloqdir.
Icha-icha mast bo'ldim,
Qizlar bilan do'st bo'ldim.

Qizlar ketdi qir oshib,

Bizlar qoldik adashib.

An'anaviy to'rtlik shakldagi bandlardan tuzilgan laparlar Qashqadaryo vohasidagi nikoh to'ylarida ijro etiladigan xalq laparlarining eng katta qismini tashkil etadi. Bunday laparlarda o'tkir yumor, ba'zan keskin hajv, ba'zan tortishuv, ba'zan dardlashuv motivlari amal qiladi. To'rtlik shaklidagi laparlarning tomoshabin-tinglovchilarga ta'siri kuchli kechadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, ixcham an'anaviy shakl lapar aytuvchilar dilidagi nozik kechinmalarni, o'tkir lirik dramatismni, serzavq kollizmni yorqin ifodalaydi. Ikkinchidan, bunday laparlar a-a-b-a shaklida an'anaviy qofiyalanish tizimiga, yetti-sakkiz bo'g'inli yengil va o'ynoqi vaznga egaligi bilan tinglovchilar hamda tomoshabinlarga tez yetib boradi. Shu bois aksariyat nikoh to'ylari laparlari turkiy xalqlar og'zaki lirik janrlarining asosiy shakh hisoblanmish mustaqil to'rtlik bandlardan tashkil topgan.

To'rtlik shaklining xalq she'riyatida yetakchi strofik qolip vazifasini ado etishining o'ziga xos sabablari ham bor. Akademik A.N. Veselovskiy va boshqa ko'plab olimlarning e'tirof etishlaricha, to'rtlik shakli psixologik parallelizmlar qo'llashning eng qulay vositasidir. Psixologik parallelizm esa kishi qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni tabiat hodisalariga uyg'unlashtirgan holda ta'sirchan ifodalash imkoniyatini beradi. Masalan, yuqorida keltirilgan laparlardan birida o'z hayot yo'lini, qizlik qismatini buzib, ota-onasidan kechib, yoriga bino qo'ygan, ishongan juvonning kechinmalari, ruhiy dunyosi ramziy yo'l bilan ifodalangan. Chunki lapardagi ariq bir tekisda oqayotgan qizning bokira hayotidan iborat bo'lsa, ariqning bo'yini o'yishi shu hayotning buzilishini, ya'ni qizning biror yigitga oshufta bo'lib, o'z hayot yo'lining buzilishini anglatadi. Qo'lga xina qo'yishi esa uning yorga erishishini bildiradi. Ushbu holatni ramziy ifodalashdan maqsad qizning yoriga ishonib, ota-onasidan kechishini aytish, bevafo yorga ishonib, hayotdagi eng yaqin kishilardan ajralib qolgan juvonning dard-alamini, afsus-nadomatlarini ifodalashdir. Agar ushbu afsus-nadomat ochiq holda aytilsa, uning ta'sir kuchi yo'qoladi, she'riyatning o'zi qolmaydi. Juvon

dilidagi dard-alamini tabiatga qiyoslash orqali ramziy ifodalash esa psixologik parallelizmning xalq lirikasida qadim-qadimdan sinalgan badiiy usul ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

Qizlar bazmida hamma vaqt ham lapar ijro etilavermaydi. Ayrim hollarda qishloq qizlari to'planishib, childirma chalishib, o'yin qilishadi. Mana shunday paytlarda so'zga chechan qo'shiqchi qizlar lirik qo'shiqlar ijro etishgan.

Ma'lumki, lirik qo'shiqlar tematikasi boy, kishini maftun etuvchi musiqasi bo'lib, ular marosimdan tashqarida ham, marosim paytida ham ijro etilishi bilan alohida ajralib turadilar. Quyida Yakkabog' tumanining Jarqishlog'ida yashovchi Ulash Qobilovadan yozib olingan lirik qo'shiqlardan namunalar keltiramiz.

Olmaning oqiga boq
Qayrilib shoxiga boq.
Otam senga bermaydi,
Qayrilib yoningga boq.

Quyida ikki yoshning turmush qurishiga qarshilik ko'rsatuvchi ota haqidagi lirik motiv mavjud. Bu motiv an'anaviy lirik qo'shiqlarda shu darajada keng tarqalganki xilma-xil variantlarini bitta qo'shiqchi repertuaridan ham yoziib olish mumkin. Masalan, U.Qobilovadan yuqoridagi lirik motiv ishtirok etgan qo'shiqning boshqa variantlari yozib olindi.

*Tomga sepdim sedona,
Terib yesin bedana.
Otam senga bermaydi,
Ketavergin begona.*

Ushbu qo'shiqda qiz otasining qarshiligiga beparvo qaraydi. Chunki u yigitni sevmaydi. Shu bois u yigitga begona deb murojaat etadi. Lekin ayrim lirik qo'shiqlarda yorning noz-karashmasi, jafokorligi o'ziga xos detallar vositasida ifodalangan:

*Suv keladi loylanib,
Ichida o'rdak aylanib.
Yoring kelsa, sen chiqma,*

Yursin chorvoq aylanib.

Lirik qo'shiqlarda yorga mushtoqlik, uning qaddi qomatiga shaydolik motivlari kuylanadi. Bunday qo'shiqlar orqali iboli qishloq qizlari qalblarida jo'sh urgan dil izhorlarini ifodalaganlar:

*Soy bo'yida o'tirvolib,
Suvdi muncha loylaysan?
Sallangdi do'l qo'yvolib,
Yuragimni dog'laysan.*

Lirik qo'shiqlarda yaqin qarindoshlarga kelin bo'lib tushgan juvonlarning hasratlari, ichki iztiroblari kuylangan. Chunki or-nomus, hayo-ibo va andisha, qolaversa, qarindosh-urug'chilik munosabatlari kelinlarga ko'ngil dardlarini ochiq aytishga yo'l bermaydi. Mana shunday paytlarda lirik xalq qo'shiqlari kelinlarning, qiz-juvonlarning dil tajimoniga aylanadi:

*Tutga chiqib tut yedim,
Bir shoxiga to'ymadim.
Ammamga kelin bo'lib,
Orzu-havas ko'rmadim.*

Lirik qo'shiqlarda yorning bevafoqligi, hijron motivlari keng tarqalgan. Ma'shuqa o'zining tolei yo'qligi, bunday tolesizlikka esa bevafo yor sababchi ekanligidan noliydi. Bu xildagi qo'shiqlar qizlar bazmida ijro etiluvchi qo'shiqlar orasida uchrab qoladi:

*Oqdir bilagim, oqdir,
Yordan tolsin yo'qdir.
Yordan tolsin bo'lsa,
O'lsam armonim yo'qdir.*

Biroq qo'shiqlar orasida yorning kuydirmajonligi, noz-karashmasi ustunlik qiluvchi motivlar ko'p kuylanadi. Bunday motivlar xalq lirik qo'shiqlarining eng ko'p tarqalgan turlarini tashkil etadi:

*Ro'molimning uchini
Tugmachangga tugdiray.*

Qoshimga o 'sma qo 'yib,

Kuyaganni kuydiray.

Lirik qo'shiqlar ko'proq yetti hijoli barmoq vaznida bo'lib, ular a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Yengil o'ynoqi vazn, kishi qalbiga borib yetuvchi visol, hijron, vafodorlik va bevafolik kabi lirik motivlar xalq qo'shiqlarini turli joylarda, vaziyatlarda kuylashga moslashtirgan.

Qizlar bazmida to'plangan qishloqning qiz-juvonlari yarim tungacha katta gulxan atrofida to'planishib, yo lapar aytishib, yo lirik qo'shiqlar kuylashib, yarim tunga qadar bazm qurishgan. Mana shundan keyin ular ziyofat yeyishib tarqalishgan. Nikoh to'yining kichik to'y deb atalgan birinchi kuni mana shu bilan yakunlangan.

To'yning ikkinchi kuni "ijob to'yi" deb yuritiladi. Bu kuni qizning uyida "supra ochdi", "is chiqardi", "qozon moylar" kabi marosimlar o'tkazilgan. Unda supra ochilib, xamir qoriladi, qozonga moy solinib, is chiqariladi. Bir nikohli, serfarzand, pok ayol xamirni ochib, cho'lpak qiladi va kuyovnikiga yuboriladigan dasturxonlarga, shuningdek, kishining uyida xizmat qilayotganlarga tarqatiladi. Chalpak pishirgan ayolga ko'ylaklik, qolgan ishtirokchilarga oq ro'mol ulashiladi.

Agar qiz yolg'iz farzand bo'lsa, kuyov tomonning roziligi bilan ichkuyov qilingan. Bunday hollarda to'y sarflari, barcha rasm-rusumlar kelin-ning uyida o'tkazilgan va bunday to'y "qo'noq to'y" deb yuritilgan. Ichkuyov, ko'pincha, qalin to'lashga qurbi yetmagan yigitlardan qilingan. Qalinning toianmay qolgan, keyin sekin-astalik bilan to'lanishi lozim boigan qismi "qora" deb yuritilgan.

Katta to'y kuni shomga yaqin kuyov jo'ralari bilan kelinning uyiga yo'lga chiqadilar. Ular yo'l bo'yi bir ovozda "oblo" aytib boradilar. Bu aytim hozir ko'p joylarda ijro etilmasa ham, ammo ayrim o'rta yoshdagi yoki keksalar xotirasida saqlanib qolgan. Aytimning namunasi quyidagicha:

Yakkaxon: Buxor bordim, Buxor bordim,

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Tagi zindon ekan ko'rdim,

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Allohning bandasi hamma,

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Muhammad qavmimiz jumla,

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Bu olam kenga-keng, torga-tor.

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Kimi xush, kimi zor, kimi xor.

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Bu yurtning cho'llari biyobon.

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Yakkaxon: Bu yurtning xalqlari to'yabon.

Naqarot: Oblo-oblo, oblo-o!

Mazkur aytim nikoh to'yida bir nechta vazifani bajaradi. Birinchidan, unda musulmonlikni, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning ummati ekanligimizni tan olish va shukronalar qilish yetakchilik qiladi. Ikkinchidan, ilgari kuyovnavkarlar kelin xonadoniga yayov yoki otliq borishgan. O'rtadagi masofani jim bosib o'tish, so'ppayib kelin xonadoniga kirib borish to'y marosimi ruhiga to'g'ri kelmaydi. Demak, to'yga to'yona kayfiyat, xushchaqchaqlik bag'ishlash ham bevosita ana shu aytim vositasida ta'minlangan.

Kuyovlar kelin hovlisida biroz o'yin qilishgach, maxsus ziyofat tuzalgan uyga olib boriladi. Uy eshigi oldida maxsus poyandoz solinadi. Kuyov poyandozni bosib o'tgach, yigitlar uni talashadi va bu odat «oyoq bosish» deb yuritiladi. Poyandoz shunday kuyovlik bizlarga ham nasib etsin degan niyat, orzu bilan talashiladi. Shundan so'ng kuyov kelin turgan xonaga olib kiriladi. Keksa bir kampir kuyov va kelinning betiga oyna tutib, «hazorali» degan aytimni aytadi. Bu aytim quyidagicha:

Go'yanda:

Yuzingiz yorug' bo'lsin doim.

Ayollar jo'r bo'lib: Hazorali!

Go'yanda:

Uyingiz to'liq bo'lsin doim.

Ayollar jo'r bo'lib: *Hazorali!*

Go'yanda:

G'am-kulfatdan uzoq bo'ling.

Ayollar jo'r bo'lib: *Hazorali!*

Go'yanda:

Suvi tiniq buloq bo'ling.

Ayollar jo'r bo'lib: *Hazorali!*

Go'yanda:

Etak etak farzand ko'ring.

Ayollar jo'r bo'lib: *Hazorali!*

Go'yanda:

Muhammadning qavmi bo'ling.

Ayollar jo'r bo'lib: *Hazorali!*

Shundan so'ng xonaga isiriq solinadi va kelin-kuyovning atrofidan aylantirib, quyidagicha aytimni aytadi:

Hazor isvand, hazor isvand,

Hazor dardga davo isvand.

Nazarimizda, shu o'rinda "Hazorali" aytimi bilan bog'liq ayrim mulohazalarimizni bildirib o'tish lozim. Ma'lumki, musulmon dunyosida payg'ambardan keyin uning ishlarini davom ettirgan to'rtta salaf borligi barcha tomonidan e'tirof etiladi. Ko'pchilik bu choryorlar - Abubakr, Umar, Usmon va Ali deb aytadilar va bunday qarashlar tarafdorlari sunniylar deb ataladi. Faqatgina Alini tan oluvchilar shialar deb yuritiladi.

Bizningcha, aytimda har bir misradan keyin "Hazorali" deb turish ushbu aytim shia mazhabidagi aholi o'rtasida yaratilganini ko'rsatadi. Chunki ushbu aytim ko'proq Qashqadaryoning ayrim joylaridagi nikoh to'ylaridagina ijro etiladi va sunniylar o'rtasida aytilmaydi. Mana shundan kelib chiqib aytish

mumkinki, "Hazorali" Hazrati Ali tarafdorlari tomonidan yaratilgan va voha aholisi o'rtasiga tarqalgan.

Kuyovnavkarlarga to'qqiz xil taom tortiladi va bu narsa "to'qqiz tovoq" deb yuritiladi. Kuyov va jo'ralari to'qqiz tovoqqa pul tashlashadi. Shundan keyin "shirin choy" beriladi va ikki yoshning turmushi shirin bo'lsin degan orzu-istak bilan barcha bu choydan bir ho'plamdan ichadi. Bundan tashqari, bu xonaga bir laganda kuyovga bir "ilik" ustuxon kiritadilar. Bu esa kuyovning iligi baquvvat, serfarzand bo'lsin degan istak bilan qilinadi. Kuyov bu laganga ham pul tashlaydi.

Mana shundan keyin kuyov nikoh o'qitish uchun mo'ljallangan uyning eshigi oldiga olib boriladi. Ichkarida kelin dugonasi va yaqin qarindosh ayollar bilan eshik oldida o'tiradilar. Tashqari tomondan esa kuyov, mulla, kuyovning yaqin qarindoshi, vakil bo'luvchi kishi turadilar.

Nikoh o'qish marosimi barcha joylarda deyarli bir xil. Faqat bir o'rin haqida qisqacha to'xtalish lozim. Qizning roziligini olgach, mulla kuyovga murojaat qilib: "agar falonchining qizini tan mahramlikka qabul qilayotgan bo'lsang, olti oygacha yakka tashlab ketmaysan, mabodo xizmat taqozosi bilan biror joyga uzoqroq muddatga ketadigan bo'lsang, o'sha muddatga yetarli oziq-ovqat, kiyim-bosh g'amlab ketishing lozim. Olti oygacha kelingga achchiq qamchi urmaysan", deb totuvlikka chorlovchi pand-nasihatlarini aytadi, kuyovga majburiyatlar yuklaydi. Ana shu shartlarni bajarish haqidagi va'dani olgach, mulla nikoh duosini o'qiy boshlaydi. Mana shu paytda kuyovning yo yangasi, yo ammasi uning egnidagi to'nning o'ng yelkasidan uchi tugilmagan ip o'tkazilgan ignani o'tkazib turadi. Bu rasm "yelka ko'klatar" deb yuritiladi. Ushbu marosim kuyov-kelinning hayotga xuddi tikib qo'yilgandek doim birga bo'lsin, degan istak bilan qilinadi. Ayni paytda kuyov boshidan bug'doy yoki arpa sepib turiladi. Bu ikki yosh serfarzand, to'q, badavlat umr ko'rishsin, degan niyatda qilinadi. Nikoh duosi o'qilayotgan paytda mullaning oldiga bir kosada suv qo'yiladi va mulla unga kuf-suf qilib turadi. Nikoh marosimidan keyin barcha ishtirokchilar ana shu suvdan yaxshi niyatlar bilan bir-bir ho'playdilar.

Mana shundan keyin kuyov va kelinni maxsus chimildiq tortilgan xonaga olib kiradilar. Kuyov kirib kelishida kelin tomonidan bir kayvoni ayol kuyovni chimildiqqa o'tkazmaslikka harakat qilib, "it irillatar" rasmini boshlaydi. Kuyovjo'raga sarpo berilgach, u kuyovni o'tirganlarga qarata ta'zim qildiradi. Shu paytda kelinni o'lanlar aytgan holda chimildiqqa boshlab kelishadi. Bu o'lanlar takrorlanib turiladi. Quyida ana shunday o'lanlardan ayrim namunalarini keltiramiz:

Bizlar yor-yor aytaylik,

Birday bo'lib, yor-yor.

Tong saharda ochilgan

Gulday bo'lib, yor-yor.

Davlatning borida

To'y qila ko'r, yor-yor.

Ostonasi tillodan

Uy qila ko'r, yor-yor.

Yor-yor aytib kelamiz

To'yingizga, yor-yor.

Shoyi belbog' bering

Belimizga, yor-yor.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida aruz vazniga mos keluvchi turkiy xalqlar og'zaki ijodi janrlariga to'xtalib, yor-yorlar haqida shunday yozadi: "Yana chinga durkim, turk ulusi zuffof va qiz ko'churur to'ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag'oyat muassir va ikki navdur. Bir navchi hech vazn bila rost kelmas va bir navida bir bayt aytilurkim, munsahiri motviyi mavquv bahridur va yor-yor lavzini radif o'rnig'a mazkur qilurlar".

Yuqorida ijro etilgan yor-yor Alisher Navoiy qayd etgan "Chinga"ning aruz vazniga, xususan, uning munsarihi motviyi mavquf bahriga mos keluvchi turining aynan o'zginasidan iborat.

Yor-yor aytib kelaman,

Yo'l beringlar, yor-yor,

*O'lanchining piriman,
Qo'l beringlar, yor-yor.
Hay-Hay o'lan, jon o'lan
To'ydur bugun, yor-yor,
Do'st kelib, dushman ketar
Kundur bugun, yor-yor.*

Kelinning qo'liga ikki dona non bilan oyna tutqazilib, o'g'il chaqaloq beriladi. Keyin chaqaloq qaytarib olinadi. Kelin va kuyov oynaga qarashadi. Bir oynada har ikkisining aks etishi ularing ruhi qo'shilganligini anglatadi, chaqaloq va juft non ularning qo'sha qarishi, uvali-juvali hamda to'q umr kechirishlariga istak bildirish ma'nolarini anglatadi. Mana shundan keyin kayvoni ayol kelin va kuyovga bir mayizni ikkiga bo'lib beradi. Bu ularga topganlarini baham ko'rishlarini anglatadi. Kayvoni ayolning ko'rsatmasi bilan kuyov kelinning sochlarini pastga qarab silaydi. Bu udum "Soch silatar" deb yuritiladi. Oyna ko'rsatish esa "Oyna ko'rsatar" udumi deb yuritiladi. Ushbu udumlarning barchasi yosh kuyov-kelinga yaxshi istaklar tilashga qaratilgan.

Mana shundan keyin kayvoni ayol yoqilgan chiroq keltirib, dastlab kuyov-kelinning, so'ngra chimildiq atrofidan uch marta aylantirib, ularga quyidagicha yaxshi niyatlar bildiradi:

*Chiroq chiroqdan aylansin,
Chiroq chimildiqdan aylansin.
Kuyov kelindan aylansin,
Kelin kuyovdan aylansin.
Ikkalasi bir-birlaridan avlanib,
O'g'il-qizlari ko'p bo'lib,
Bir umr qo'sha qarisinlar.*

Yuqorida aytilgan rasm-rusumlar tugagach, kayvoni kuyov va kelinning oldiga dasturxon yozib, ikkita non, quymoq shaklida to'rt dona tuxumni qo'yadi. Kelin-kuyov ulardan totinishgach, kuyov jo'ralarining yoniga qaytadi. Kelinni esa dugonalari kiyintira boshlashadi. Kelinning ota-onasi tayyorlagan ko'rpa-

to'shak, gilam, sandiq va boshqa narsalar arava yoki mashinaga yuklana boshlaydi. Paranji yopintirilgan kelin ota-onasi oldiga olib boriladi. Kelin "bergan tuzingizga rozi bo'ling" deya onasiga ta'zim qiladi, so'ngra otasiga ham ta'zim qiladi. Shu yerda kelinning otasi qiziga oq yo'l, shirin turmush, baxtli umr tilab fotiha beradi.

Ilgari kelin va dugonalari aravalarda kuyovning uyiga borishgin. Hozir yengil mashinalarda borishadi, kelinning sepi va boshqa narsalar yuk mashinasida olib boriladi. Kelin aravada olib ketilganda yo'l-yo'lakay dugonalari yor-yor aytishib borishgan. Qashqadaryo vohasida aytilgan yor-yor namunalaridan keltiramiz. Xuddi shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joiz, yor-yor qo'shiqlari kuyovning uyiga yetguncha qadar bosib o'tiladigan yo'lning serfayz o'tishini ta'minlashdan tashqari to'yga o'ziga xos ta'sirchanlik, shukuh bag'ishlaydi. Qolaversa, yor-yor qo'shiqlari turmushga uzatilayotgin qiz va uning dugonalari uchun ko'ngil dardlarini yozish, sevishganlarga dil izhor qilish kabi vazifalarni ham o'tagan:

Aravaning cho'pchagi yoriq ekan, yor-yor,

Kuyov bergan qo'ylari oriqlik ekan, yor-yor.

Terisini oborib po'stin qilsin, yor-yor,

Suyagini oborib ustun qilsin, yor-yor.

Keltirilgan yor-yor namunasida o'ziga xos yumor, hazil-mutoyiba ruhi ustunlik qiladi. Kuyov tomon bergan qo'ylarning oriqligi yengil hazil bilan hajv qilingan bo'lsa, ularning terisi po'stinga, suyagi ustunga yaramasligidan kulinmoqda. Bu xildagi yumor va yengil hajvlar kuyov bilan kelin tomonning qadimgi dual jamiyat qoldiqlari sifatida saqlanib kelinayotganligidan dalolat beradi.

Har bir joyning o'ziga xos yor-yorlari bor. Shu bilan birga o'zbek xalqi yashaydigan barcha hududlar uchun an'anaviy yor-yorlar ham borki, ular Qashqadaryoning barcha yerlarida ham bir xilda ijro etiladi:

Daryoga tosh otmanglar, botar-ketar, yor-yor,

Uzoqqa qiz bermanglar, olar-ketar, yor-yor.

Ushbu yor-yor misralari xalqimizda bir xilda tushunarli bo'lgan ramziy obrazlarga boyligi bilan keng tarqalgan. Daryo - safar, ayriliq ramzi. Daryoga otilgan toshning nom-nishonsiz botib ketishi uzoqqa tushgan qizning domdaraksiz yo'qolib ketishiga qiyoslangan. Ramziy obrazning hayotiyligi, tasvirlangan. Ta'sirchanligi va aniq tasvirga mosligi yor-yor misralarining hayotiyligi, ta'sirchanligini ta'minlagan.

Har bir ota-ona o'z qizining ko'z oldida bo'lishini istaydi. Lekin afsuki, ko'pincha qiz bola palaxmon toshidek qismati buyurgan yerga tushadi. Ota-ona uzoqqa, begona xonadonga tushgan farzandining holi qanday kechganidan tashvishga tushadi, hamma vaqt uning tinchligini, omonligini tilashadi. Quyidagi yor-yor misralarida ana shu ezgu istaklar ifodalangan:

Uzoqqa bergan qizning rangi sariq, yor-yor.

Darhaqiqat, begona xonadonga, buning ustiga ota-onadan uzoqqa tushgan qiz dastlab o'z uyini, ota-onasini, aka-ukalarini qo'msaydi, bu xonadondagilarning qosh-qovog'iga qarab yashaydi. Uni bir tomondan o'z uyining o'kinchi qiynasa, ikkinchi tomondan yangi xonadonning turish-turmushiga ko'nikish qiynaydi. Olib ketilayotgan kelinga mana shunday yor-yorlarning aytilishi uni oldinda turgan qiyinchiliklarga bardosh berish, sog'inch va o'rtanishlarga sabr-toqat qilishga da'vat etadi. Shuning uchun yor-yor qo'shiqlarining ham estetik, ham ma'naviy foydali jihatlari mavjud.

Yor-yorlar mavzusi rang-barangdir. Ayrim yor-yorlar kelinning ta'rifu-tavsifiga bag'ishlangan. Ularda kelinning to'lg'onib turgan sochlari o'ynab turgin ko'zlari, shirin-shirin tillari vasf etiladi:

Sunbul kabi zulflari to'lg'onadi, yor-yor,

Tog'da bitgan loladek hid beradi, yor-yor.

So 'z so'zlagan tillari shakardayin, yor-yor,

O'ynab turgan ko'zlari gavhardayin, yor-yor.

Keltirilgan yor-yor namunasi ko'rinib turibdiki, qo'shiqning har bir ijrosi masnaviyga o'xshab jiddiy qofiyalangan (a-a, b-b), yor-yor so'zi esa misralar oxirida radif vazifasini bajaradi.

Shu o'rinda yor-yorlarning sintaktik xususiyati haqida ikki og'iz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, she'riy misra, ko'pincha, gapning normal grammatik qurilishiga zid holda inversiya orqali tashkil topadi. Masalan, normal grammatik tartibga ko'ra oldin gapning egasi, keyin ikkinchi darajali bo'laklar va gap oxirida kesim keladi. She'riyatda esa inversiya talabi bilan oldin kesim va ikkinchi darajali bo'laklar, oxiri esa ega keladi. Masalan, "zulflari toig'onadi" gapi normal grammatik holat bo'lsa, she'riyatda "to'lg'onadi zulflari" tarzida kelishi qo'shiqqa o'zgacha ohang, o'zgacha ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Xalq yor-yorlarini ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, she'riy misrada oldin ikkinchi darajali bo'laklar, ya'ni aniqlovchi, so'ng ega, kesim kelgan.

Masalan:

Sunbul kabi zulflari to'lg'onadi, yor-yor,

Tog'da bitgan loladek hid beradi, yor-yor.

So'z so'zlagan tillari shakardayin, yor-yor,

O'ynab turgan ko'zlari gavhardayin, yor-yor.

Agar yor-yor misralari shu shaklda tuzilganda, har bir misra ega-kesim o'rtasidagi tugal munosabatni, ya'ni predikativlikni ifodalovchi oddiy gaplar shakliga tushib qoladi. Lekin, Alisher Navoiy aytganidek, har bir misra oxirida "yor-yor" lafzining radif vazifasida takrorlanib kelishi har bir misraga she'riy ruh, poetik ohang va badiiy tugallik bag'ishlab turadi. Natijada, har bir she'riy misra inversiyasiz ham she'riy sintaksisga tushib qoladi. Bunday hodisa yuqorida biz tahlil qilgan misollargagina taalluqli, deb o'ylagan edik. Ammo ushbu janrning boshqa namunalariga murojaat etish normal grammatik tartibda, inversiyasiz ham she'riy ohang, poetik sintaktik tuzish mumkinligi qonuniy hol ekanligini tasdiqlaydi. Quyidagi misollar fikrimizning qonuniy ekanligini tasdiqlaydi:

Shildir-shildir shuvoqqa sirg'am tushdi, yor-yor,

Sinalmagan yigitga singlim tushdi, yor-yor.

Yor-yorlarda ritmik-sintaktik, tematik-psixologik parallelizmning go'zal va yorqin namunalari ko'zga tashlanadi. Birinchi misradagi shildir-shildir

shuvoq sinalmagan yigitning ramziy ifodasi bo'lsa, sirg'a kelin bo'lib tushgan singilning ramziy ifodasi. Sirg'aning qurib yotgan shuvoqlar orasiga tushishi uning topilmasligidan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, ritmik-sintaktik va tematik-psixologik parallelizmning yor-yor misralarida ko'p kelishi ularning ramziy obrazlarning qiyosiy tahliliga asoslanganidir, deb xulosa qilish mumkin.

Ayrim yor-yorlarda oddiy maishiy voqealar, qiz va yigit tomonlari o'rtasidagi oldi-berdi, sarf-xarajatlar bayon etiladi. Bular milliy urf-odatlarimiz va etnografik detallar sifatida ahamiyatlidir.

Uzun-uzun yo'l yurdik deb erinmanglar, yor-yor,

O'n besh tillo pul berdim deb kerilmanglar, yor-yor.

O'n besh tillo pulingizni xarjlab bo'ldik, yor-yor,

To'lgan oydek qizingizni boshlab keldik, yor-yor.

Yuzaki qaralsa, mazkur yor-yorda shunchaki kuyov tomonidan berilgan o'n besh tillo pul ustida gap borayotgandek ko'rinadi. Ammo jiddiyroq e'tibor berilsa, o'n besh tillo pul uchun yigit xonadoniga "to'lgan oydek qiz" doimiy voqea qilib olinmoqda. Demak, qalin puli qilib berilajak pul ham asosan to'y uchun, ikki yoshning tashkil topajak yangi ro'zg'ori uchun xarjlanadi. Sobiq sho'rolar davrida qalin puliga qarshi qattiq kurash olib borildi. Agar chuqurroq o'ylab qaralsa, qalin puliga bu qadar qarshi kurash olib borishga hojat yo'q. Chunki xalq o'rtasida "qalin puli - qalliq puli" degan ibora yuradi. Ana shu ibora qalin pulining qalliqqa, yangi oilaga sarflanishi hech kimga sir emas. Yuqoridagi yor-yorda ana shu narsa haqida nozik poetik mulohaza yuritilganligini ko'ramiz.

Qashqadaryoning ayrim joylarida yor-yor qo'shiqlari dastlab xudoni yodga olish, payg'ambarlar ruhini shod etish bilan boshlanadi. Albatta, ilgari barcha to'ylarda ijro etilgan yor-yorlar xuddi shunday ruhda boshlangan bo'lsa ham, biroq sobiq sho'rolar davrida ular unutildi. Ular ba'zi keksalar xotirasidagina saqlanib qoldilar, xolos. Quyida ana shunday yor-yorlardan namuna keltiramiz:

Avval boshlab xudoni yod etaylik, yor-yor,

Payg'ambarlar ruhini shod etaylik, yor-yor.

Payg'ambaming qizini Ali olmish, yor-yor,

Yig'lama qiz olish shulardan qolmish, yor-yor,

Bo'sag'asi tillodan uy seniki, yor-yor.

Musulmon dunyosida barcha narsaning, jumladan, qiz chiqarish va o'g'il uylantirish ham payg'ambarimiz va uning avlodlari bilan bog'liq an'analarga borib taqaladi. Yuqoridagi yor-yorda payg'ambarimizning kuyovi Hazrati Ali haqida so'z yuritilgan va qiz chiqarish an'anasi payg'ambarimizdan meros qolganligiga ishora qilingan. Albatta, o'g'il uylantirish yoki qiz uzatish to'ylari turli-tuman shakllarda juda qadimdan kelayotgan udum hisoblanadi, ammo uning musulmonchilik an'analari bilan bog'liq shakllari haqiqatdan ham payg'ambarimiz va uning avlodlaridan qolgan an'analardan boshlanib, hozirga qadar yetib kelganligi hech kishini shubhaga solmaydi. Xuddi shunday motiv S. Ro'ziyevadan yozib olingan yor-yor variantida ham sal o'zgacharoq shaklda ifodalangan. Biroq asosiy g'oya, fikr yuqoridagi variantdan farqlanmaydi:

Taxta-taxta ko'prikday taxting bo'lsin, yor-yor,

Payg'ambardi qiziday baxting bolsin, yor-yor.

Payg'ambardi qizini Ali olgan, yor-yor,

O'g'il-qizni to'y qilish shundan qolgan, yor-yor.

Yor-yorlardagi "taxta ko'prik" - uzatilayotgan bokira qizning qismatini anglatuvchi ramziy obraz. Ana shu ko'prikdan omon-eson o'tib olgan qizgina baxtli turmushga, porloq kelajakka, demakki, yaxshi oilaga ega bo'ladi. Shuning uchun "taxta ko'prik" juda ko'p o'zbek xalq yor-yorlarida qo'llaniladi.

Kelin bo'lib yangi xonadonga ketayotgan har bir qizning ko'nglida xavotirlik, notinchlik bo'ladi. Bu narsa kelinlik mas'uliyatini chuqur his etish, yangi xonadon tartiblariga chiday olish kabilar bilan bog'liq bo'ladi. Qolaversa, qadrdon ota-onasi bilan bir umrga ajralish xayoli ham qiz dilida mungli tu'yg'ular tug'diradi. Quyidagi yor-yor misralarida ana shunday kechinmalar ifodalangan:

Tokchadagi qatiqni chang bosibdi, yor-yor,

Tortmadagi qaychini zang bosibdi, yor-yor,

Chiqadigan qizimni g'am bosibdi, yor-yor.

Uzatilayotgan qiz dilini g'am bosishini aytishdan oldin ana shu kayfiyatga hozirlash maqsadida bir necha ramziy obrailar keltiriladi. Ana shu obrazlar kishi dilini g'ash qiladigan xarakterga ega. Masalan, tokchada ichish uchun qo'yilgan oppoq qatiqning chang bosgan izini yoki biror narsani qiyish uchun tortmaga solingan qaychining zang bosishini ko'z oldingizga keltiring. Har ikki holat ham kishi dilini g'ash qiladi. Mana shunday g'ashlik esa uzatilayotgan qiz dilida ham bo'ladi. Qiz dilidagi g'ashlik va g'amning qay darajada ta'sirchanligini ifodalash maqsadida oldin ikkita noxush kayfiyat qo'zg'atadigan ramziy obraz keltirilgan.

Shunday yor-yor namunalari ham borki, ularda ona va uzatilajak qiz o'rtasidagi ayrim kelishmovchiliklar ifodalangan. Bunday kelishmovchiliklar bo'y yetgan qiz va ona o'rtasida, shuningdek, er yetgan o'g'il bilan ota o'rtasida ham yuz beradi. Chunki bo'yi yetgan qizda yoki er yetgan o'g'il xarakterida keskin o'zgarishlar yuz beradi. Ular ko'p xayol suradigan bo'lib qoladilar, kattalar tomonidan aytilgan yumushlar o'z vaqtida bajarilmaydi, muomalada qo'rslik alomatlari seziladi. Shu bois ona va qiz, ota va o'g'il o'rtasida ayrim kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Quyidagi yor-yor misralarida ana shunday oilaviy kelishmovchiliklar dialog yo'li bilan ifodalangan:

- Igna uchi sindi deb urdi enam, yor-yor,
Taxta-taxta ko'prikdan o'tdim ena, yor-yor.
Ko'p ko'rganing men bo'lsam, ketdim ena, yor-yor.
- Bor-bor qizim, bor qizim, baxtli bo'lgin, yor-yor,
Sulaymonning qiziday taxtli bo'lgin, yor-yor.

Yor-yor qo'shiqlaridagi emotsional kuch, ta'sir ularda uzatilayotgan qizning yoshligida onasi yoki aka-ukasi bilan urishishi va shu orqali ular o'rtasida uzr so'rash kabi holatlar bayon etiladi. Masalan, bir vaqtlar ignaning uchini sindirganligi uchun o'z qizini urgan ona ana shu voqea eslatilishi bilan

ko'ngli bo'shab "unga baxt va Sulaymon payg'ambarning qiziga hadya etilgan afsonaviy taxt" tilanmoqda.

Ba'zi yor-yorlarda xuddi shunday motiv qizning otasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bunday yor-yorlar tezda (pochcha) obrazi bilan bog'lanadi:

Jezdam chekkan chilimning nayi sinsin, yor-yor,

Singlimni urgan jezdamning qo'li sinsin, yor-yor.

Xurmadagi qatiqni kim to'kibdi, yor-yor,

Kelin bo'lgan singlimni kim so'kibdi, yor-yor.

Yor-yorlarda kuyovga hazil qilish, kuyov tomon ustidan yengil yumor bilan kulish motivlari ham ko'p uchraydi. Biroq bunday yumorga boy hazil xarakterdagi yor-yorlarga kelinni uzatib boruvchilar ruhida jonlanish uyg'otish bilan birga butun marosimga o'ziga xos kayfiyat, alohida surur baxsh etadi:

Chimildiqning boshidan sichqon qochdi, yor-yor,

Chakop mayiz topolmay kuyov qochdi, yor-yor.

Mana shunday misralardan keyinoq kuyovning alpligi, polvonligi ta'rif-u tavsif etiladi va hazil orqali qilingan "tanqid" ruhi o'zgaradi:

Kuyov pochcham belbog'i alvon ekan, yor-yor,

Kuzanka ham qo'ymabdi polvon ekan, yor-yor.

Yor-yorlarda kuyovning chinorday bo'ydorligi va baquvvatligi vasf etilib, uni yomon ko'zlardan asrash haqidagi istaklar ifodalangan misralar ham uchraydi:

Chimildig 'im chip-chinor, bo 'ying chinor, yor-yor,

Bo'yginangga ko z tegmasin, taqay tumor, yor-yor.

O'tmishda ba'zi ota-onalar turli sabablar bilan o'z qizlarini keksa kishilarga uzatganlar. Buning sababi turlichadir. Masalan, qizning otasi qarzdor bo'lib, ana shu qarz evaziga keksa davlatmand kishiga qizini berishga majbur bo'lgan. Ba'zan keksa eshonu mullalarga qiz nazr qilingan va hokazo. Qanday sabab bilan yosh qiz keksa kishiga uzatilgan bo'lmasin, xalq estetikasi bunday nikohlar bilan kelisha olmagan. Shuning uchun ham yor-yorlarda ana shunday nikohlar ustidan kulingan:

Ot bog'ladi tiariga, naridan ham xariga, yor-yor,

Otang seni berdilar o'zidan ham qariga, yor-yor.

Qizning o'zga xonadonda xavotir olishi, o'zining qadrdon xonadonidan ketishi kabi motivlar yor-yorlarda turli-tuman ramziy obrazlar bilan aloqadorlikda talqin etilgan. Masalan, quyidagi yor-yorda uzatilayotgan qizning yot xonadondagi ahvolidan bezovtalanib yig'lashi ot bo'lib tog'da kishnayotgan toychoqning holatiga qiyoslanadi. Bunday qiyos esa yor- yorga tabiiylik, real hayotiylik bag'ishlaydi:

Tog'da toychoq kishnaydi ot bo'ldim, deb, yor-yor,

Uyda qizim yig'laydi yot bo'ldim, deb, yor-yor.

Tokchadagi piyozdi po'sti qani, yor-yor,

Ketib turgan singlimni do'sti qani, yor-yor.

O'z farzandini o'zga xonadonga uzatayotgan ota-onaning yuragida dard-alam bo'ladi. Lekin ular hayot talabi, turmush qonun-qoidalariga bo'ysunishga majbur. Ota-ona ko'nglidagi ana shu dard-alam yor-yorlarda o'z ifodasini topgan:

Olqishlangiz jamoat, oldi-ketdi, yor-yor,

Ota-onasin yig'latib singlim ketdi, yor-yor.

Ota-ona uchun o'z jigarbandini uzatish qancha og'ir bo'lmasin, bu qizbolaning azaliy qismati, ota-onaning esa bo'ynidagi qarzi. Shuning uchun xalq o'rtasida obro' bilan qiz chiqargan kishilar har tomonlama qadrlanadi. Yor-yordagi "Olqishlangiz jamoat" gapi qiz uzatilayotgan ota-ona uchun katta baho, beaded minnatdorchilikning ifodasidan iborat.

Yor-yorlarda uzatilayotgan qizga achinish, unga hamdardlik bildirish ko'p tarqalgan motivlardan sanaladi. Quyidagi yor-yor fikrimizning dalilidir:

Singlim uchun qovurg 'am qayishadi, yor-yor,

Singlim bergan uzugi mayishadi, yor-yor.

Albatta, yuqoridagi yor-yor misralari S.Ro'ziyeva qanday aytgan bo'lsa, shu holicha yozib olindi va keltirildi. Aslida xalq qo'shiqlari va yor-yorlarida keng qo'llaniladigan tematik-psixologik parallelizmlar talabiga ko'ra, dastlab ramziy obraz keltirilib, asosiy obraz unga qiyoslanib, ya'ni undan keyin keltiriladi. Yuqoridagi misolda parallelizm usuli buzib, dastlab asosiy obraz ifodalangan

misra, keyin esa ramziy obrazli misra keltirilgan. Shuning uchun ham bu misralarning emotsional ta'siri u qadar kuchli ifodalanmagan. Chunki yor-yor misralari quyidagicha tartibda aytilishi lozim:

Singlim bergan uzugi mayishadi, yor-yor,

Singlim uchun qovurg'am qayishadi, yor-yor.

Darhaqiqat, yor-yorda singli bergan uzukning mayishishini aytish asosiy maqsad emas, balki uzoqqa uzatilayotgan singilga achinishni aytish bosh maqsad hisoblanadi.

Kuyovni payg'ambarlarimiz ham izzat qilgan ekan. Shu bois kelin uzatib borayotgan ayollar tilidan aytilgan yor-yorlarda ham kuyovni ta'rif-u tavsif etish, uni olqishlashga bag'ishlangan misralar ham keng o'rin olgan:

Singlim tushgan joylarga oy bo'layin, yor-yor,

Kuyov chekkan chilimga nay bo'layin, yor-yor.

Nikoh to'ylarida kelinni olib ketishda qishloqdan chiqaverishda o'smirlar qizg'anish, "rashk" ma'nosida yo'lni turli narsalar bilan to'sib turishadi. Mana shunda kelin tomonni boshlab ketayotgan kuyov tomonning vakili yo'lni to'sgan kishilarga pul yoki kiyim-kechak berib, ko'nglini olmasa, to'siq ochilmay, kelin va uning karvoni ushlab turiladi. Kuyov tomonning vakili, agar vakil bo'lmasa, kelin tomonning biror vakili u-bu narsa berib, o'smirlarning ko'nglini olsa, yo'l ochiladi. Ushbu odat Qashqadaryoda "boqqan" yoki ayrim joylarda o'tmishda "boqon soldi" deb yuritilgan.

Kelin va uning dugonalari kuyovning xonadoniga yetib kelishgach, kelin tushirish marosimi bo'lib o'tadi. Qashqadaryoning deyarli barcha tumanlarida bu marosim gulxan yoqishdan boshlanadi. Kelin kelgan arava yoki mashina oldiga, shuningdek, kuyov hovlisida katta-katta gulxanlar yoqiladi. Kuyovning onasi mashina yoki arava ortiga qo'yilgan sandalning ustiga chiqib, kelinning ukasi yoki jiyanini pul, pichoq yoxud boshqa biror narsa berib, rozi qilgach, sandal ustiga tushiradi. Mana shundan keyin kuyov kelinni ko'tarib yerga tushiradi. So'ngra kelinchakning ikki tarafidan ikki ayol va kuyovning onasi hovlida yoqilgan gulxan atrofidan uch marotaba aylantirishib, o'lan aytishadi. Albatta,

kelinchakni gulxan atrofida uch marotaba aylantirish o'tning poklovchilik vazifasini o'tashi haqidagi qadimgi otashparastlik qoldiqlaridan hisoblanadi. Mana shu udum paytida ham quyidagicha o'lanlar aytishadi:

Hay-hay o'lan, jon o'lan, jon g'animat, yor-yor,

Bir jon emas, hay o'lan, jonon g'animat, yor-yor.

O'lanning boshlanish misralaridayoq foniy dunyoning o'tkinchiligi, hayotning g'animatligi, barchaning ham o'limga mahkumligi, binobarin, yorning qadr-qimmatiga yetish lozimligi alohida uqtirilmoqda. Yor-yorning dastlabki misralaridanoq bunday misralarni aytishdan maqsad ikki yoshga bir-birlarining qadriga yetishlarini alohida eslatishdan iborat. Keyingi misralarda esa kelinning ta'rifu tavsifi, u bilan kelgan dugonalari va yangalarning sifatleri kuylanadi:

Havodagi yulduzni sakkiz denglar, yor-yor,

Sakkiz qizning sardori keldi denglar, yor-yor.

Qat-qatgina qatlama qatlanadi, yor-yor,

Qizni olib yangalari o'tlanadi, yor-yor.

Qizni olib yangalari turatursin, yor-yor,

Oq sut bergan onasi rozi bo'lsin, yor-yor.

Ayrim joylarda ijro etilayotgan yor-yorlar faqat mavzu rang-barangligi bilan emas, balki misralarning tuzilishi bilan ham farqlanadi. Masalan, quyidagi yor-yorlarda ikkinchi misraning boshidagi birikma shu misraning oxirida alohida takrorlanib keladi:

Hay-hay o'lan, jon o'lan,

Jonim qizim, yor-yor, jonim qizim.

Ikkalangiz birlashing,

O't yulduzim, yor-yor, o't yulduzim.

Kuyovning hovlisidagi gulxan atrofida aytiladigan "yor-yor"lar kompozitsion jihatdan yaxlit izchil syujet tuzilishiga ega bo'lgan voqebandlikni tashkil etadi. Masalan, vohaning Kitob, Qamashi tumanlaridan yozib olingan materiallar buni tasdiqlaydi. Ularda dastlab to'yga yig'ilgan barcha aholining diqqat-e'tiborini aytilayotgan "yor-yor"ga qaratish yetakchilik qiladi:

Bir so'z aytay, xaloyiq, quloq soling, yor-yor,

Duru gavhar so'zimni terib oling, yor-yor.

Mana shu fikr boshqa qishloqlardagi qiz-juvonlar tomonidan sal boshqacharoq bir tarzda ifodalanadi:

Yor-yor aytsak, jamoat, xush dengizlar, yor-yor,

Xush bormikan, do'st bormikan, yor-yor.

Yig'ilgan jamoaga murojaatdan keyin yor-yor aytuvchilar kuyovning onasi, ya'ni qaynona ta'rifini boshlaydilar. Chunki kuyovning xonadonida kelin ustidan nazorat qiluvchi, uning asosiy hukmdori qaynona hisoblanadi. Qaysi kelinning qaynona bilan munosabati yaxshi bo'lsa, shu xonadonda tinchlik, shodu xurramlik bo'ladi. Mana shu hayotiy haqiqatni yaxshi bilgan dono xalqimiz o'zining yor-yorlarida qaynona ta'rifu tavsifiga katta o'rin berishgan:

Mehmon kelsa, yugurgan dilbar xotin, yor-yor,

Quda pochcham davrini surgan xotin, yor-yor.

Xush kelibsiz, qudalar, g'am bo'lmasin, yor-yor,

Qudaoyim dunyoda kam bo'lmasin, yor-yor.

Qaynona ta'rifidan keyin butun jamoa, kelin tomonidan kelgan mehmonlar tilidan unga o'ziga xos "vazifa" ham yuklatiladi. Natijada, "yor-yorlar pand-nasihat mazmunini kasb etadi:

Qaynonasi boshini yaxshi silang, yor-yor,

Dil ko 'tarib chiroyli, shirin so'zlang, yor-yor.

Mana shundan keyin "yor-yor"lar mavzusi kuyov ta'rifiga qaratiladi. Bunda yigitning qaddi qomati, xarakter-hikmatlari kabilar bayon etiladi:

Kuyov yigit ta'rifin qilay bayon, yor-yor,

Yigitlarning ichida sohibqiron, yor-yor.

So'zga chechan o'lanchilar kuyov ta'rifini tafsilotlarga boyitib, bundan ham jozibaliroq ifodalaydilar. Biz mazkur misol bilan chegaralanamiz. Kuyov ta'rifidan so'ng tavsif navbati kelinga qaratiladi va unda qizning vazmin, andishali hamda go'zalligi kuylanadi. Kelinga xos sifatlardan vazminlik, andishalilik va chiroyning tanlab olinishi bejiz emas. Chunki andisha, vazminlik

va jozibali chiroy har bir kishining ichki hamda tashqi go'zalligini ta'minlovchi belgilardan iborat:

Endi aytay, yoronlar, qiz ta 'riftn, yor-yor,

Vazmin, yaxshi qizkelin bir nozanin, yor-yor.

Epli-sepli kelinim shirin kalom, yor-yor,

So'zlarini eshitganlar bo'lgay g'ulom, yor-yor.

Bizni ko'cha so'rasang, osh taxtaday, yor-yor,

Kelinimiz so'rasang, oq paxtaday, yor-yor.

Gulxan atrofidagi ijro etiladigan yor-yorlardagi eng maroqli o'rinlardan biri ularda kelinga o'z uyi, ya'ni ota uyi bilan qaynotaning xonadoni butunlay boshqa-boshqa olam ekanligini esdan chiqarmaslik, o'z uyida har bir narsa kechirimli bo'lishi, ammo yangi xonadonda o'zgacha holat, o'zgacha baho mavjudligini eslatish motivining mavjudligi hisoblanadi. Albatta, ushbu motiv yalang'och misralarda aytilmay, yor-yorlarda o'ziga xos ramziy detallar orqali nozik ishorada bayon etiladi. Mana shu faktning o'ziyoq yor-yorlarda kuyovni, ayniqsa kelinni insofga, adolatga chorlovchi, ularga o'git beruvchi motivlar anchagina ekanligini, boshqacha aytganda, yor-yorlar nikoh to'ylaridagi xalqning etik hamda estetik tamoyillarini ifodalovchi vositalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Masalan:

O'z otamning eshigi if or eshik, yor-yor,

O'taringda sochlaringni silar eshik, yor-yor.

Qaynotaning eshigi tikon eshik, yor-yor,

O'taringda sochlaringda shar eshik, yor-yor.

Yor-yorning boshqa bir variantida ushbu motiv boshqa detallar vositasida kuylangan. Biroq har ikki variantda ham bir xil fikr, yagona g'oya ifodalangan:

Ota-onang eshigi Bog'dod eshik, yor-yor,

Kirganingda sochingdan silar eshik, yor-yor.

Qaynonangdi eshigi huvaydo eshik, yor-yor,

Kirganingda sochingdan solar eshik, yor-yor.

Mana shundan so'ng yor-yor misralari kuyov-kelinga baxt-saodat, qut-baraka, bolali-chaqali bo'lishlari haqidagi ezgu istaklar tilashdan iborat olqish xarakteriga ko'chadi. Yor-yorning bunday xarakterga ko'chishi, o'z navbatida, kelinni gulxan atrofida uch marta aylantirish udumining nihoyasiga yetganligini anglatadi. Shuning uchun ham oian misralari sof olqishlar ruhini kasb eta boradi:

Hay-hay o'lan, jon o'lan, topsin rahmat, yor-yor,

Kelinimiz qut bo'lib ko'rsin davlat, yor-yor.

Ikkisining uylari misli gulzor, yor-yor,

O'g'il-qizi ko'p bo'lsa, ko'ngli o'sar, yor-yor.

Kuyov-qayliq ikkisi unib-o'ssin, yor-yor,

To'qqiz qizu to'qqiz o'g'il xudo bersin, yor-yor.

O'zbeklarda eng baxtli oila - bu ko'p bolali oila. Shu bois kuyov-kelinga "to'qqiz qiz-u to'qqiz o'g'il" tilanmoqda. Bu narsa to'qqiz raqamining baxtli sehrli raqam sanalishi bilan aloqadordir. Chunki xalqning e'tiqodi va qarashlariga ko'ra, sehrli raqamlar bilan tilangan har qanday istaklar albatta ro'yobga chiqadi. Shu tariqa yor-yor olqishlar ikki yoshga baxtli umr tilash bilan davom etadi:

Boshidagi jig'asi davlat bo'lsin, yor-yor,

Quyidagi qushlari farzand bo'lsin, yor-yor.

Tushgan joyda kelinimiz izzat ko'rsin, yor-yor,

Ham qaynona, qaynotadan hurmat ko'rsin, yor-yor.

Xullas, yor-yor olqishlar bilan kelinni uch marta gulxan atrofida aylantirish, ya'ni uni turli ziyon-zahmatlardan poklash marosimi yakunlanadi. Xuddi shu o'rinda boshqa bir masala haqida qisqacha to'xtalib o'tish lozim. U ham boisa, nikoh to'yida ijro etiladigan janrlaming o'zaro munosabati masalasidir. Albatta, marosim folklori janrlarining o'zaro munosabati maxsus tadqiqotlarni talab etuvchi masala hisoblanadi. Lekin biz bu masalaning kichik bir qirradi haqida yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tishni zarur.

Ma'lumki, janrlararo munosabat hamma vaqt hayotiy zarurat taqozosi bilan, vaziyat talabi bilan amalga oshadi. Yuqorida keltirilgan yor-yor olqishlari

marosim olqishining shu nuqtadagi talabi bilan vujudga kelgan. Chunki kelinni kuyov xonadoniga olib kelish, uni yomon ruhlar ta'siridan poklovchi olov atrofida aylantirish udumi oxirida yaxshi tilaklar bildirish marosimning tabiiy ehtiyoji hisoblanadi.

Shuning uchun ham yor-yor mazmunida olqish aytish ruhi ustunlik qila boshlaydi. Natijada, yor-yor janrining shakliy tuzilishi asosida olqish aytila boshlavdi va bunday o'ziga xos sinkretizm marosim ishtirokchilarida tabiiy qabul qilinaveradi. Bunda yor-yor janridan badiiy shakl, olqish janridan mazmun olinib uyg'unlashtiriladi. Nikoh to'ylari marosim folklori doirasida janrlarning o'zaro munosabati mana shu tariqa voqye bo'ladi.

Albatta, keyingi paytlarda gulxan atrofida kelinni aylantirib, yor-yor aytishlar deyarli qilinmay qoldi. Bordi-yu, bu udum o'tkazilganda ham, ularda yor-yor olqishlari juda kam aytiladigan bo'lib qoldi. Bu narsa nikoh to'ylarining ijtimoiy taraqqiyot jarayonida katta o'zgarishlarga uchrashi, marosim tarkibida turli-tuman yo'qotishlarga uchrashi oqibatida yuz berdiki, masalaning bu jihati elshunoslarimiz tomonidan alohida tadqiq qilinishga muhtojdir.

Endi yor-yorlarning vazn tuzilishiga kelsak, aksariyat yor-yor namunalari, Alisher Navoiy aytganidek, aruz she'riy sistemasining munsarihi matviyi mavhuf vazniga to'g'ri keladi. Biroq shunday yor-yorlar ham borki, ular hijo miqdori jihatidan munsarih bahrining matviyi mavhuf vazniga to'g'ri keladi, ya'ni o'n ikki hijodan iborat. Lekin aruz hijolarning miqdoriga emas, balki sifatiga (uzun-qisqalikka) asoslanadi. Xalq o'rtasida hijolarning uzun-qisqalik jihatidan bir xilda takrorlanishiga e'tibor bermaslik sababli yor-yor uchun xos bo'lgan aruzga xos maxsus bahr sof saqlanib qolmagan. Mana shuning oqibatida ko'plab yor-yorlarimiz o'n ikki hijodan emas, balki o'n uch hijodan iborat tuzilishga ega bo'lib qolganlar. Masalan:

Boshidagi jig'asi davlat bo'lsin, yor-yor, -13

Qo 'lidagi qushlari farzand bo'lsin, yor-yor. -13

Ayrim yor-yorlardagi marom (ritm) izchilligi barmoq she'riy tizimidagi turoqlanish tartibi tufayli ta'minlanadi. Biroq yozma she'riyatdagi barmoq

tizimida yor-yorlardagi turoqlanish ijro holatida belgilanadi. Agar yuqoridagi yor-yor misralarini yozma she'riyatning turoqlanish talablari jihatidan ohb qarasaq, har bir misra beshta turoqqa bo'linadi. Bu turoqlar tarkibi esa $4+3+2+2+2=13$ nisbatdadir. Ammo marosim jarayonida yor-yor kuylanadi. Kuylanish jarayonida esa misralarning turoqlanish nisbati $7+4+2=13$ bo'ladi. Buning sababi shundaki, kuylanish paytida turoqlar bosh turoq (sezura)lar bilan bir o'ringa to'g'ri keladi. Bosh turoq (sezura) yor-yorlarda ikkita bo'lib, ularning birinchisi yettinchi hijodan keyingisi, ikkinchisi o'n birinchi hijodan keyingi o'rinlarga to'g'ri keladi. Ma'lum bo'ladiki, turoqlanish jihatidan bu xildagi she'riy misralarda yozma she'riyat bilan folklor she'riyati farqlanmaydi.

Endi yor-yorlarning band tuzilishiga kelganda shuni aytish kerakki, yor-yor matnlari yozib olinganda ham, nashr etilganda ham har misrani o'rtasidan kesib, ikki misra shakhga keltiradilar. Natijada, masnaviy shaklida qofiyalanuvchi har biri bayt to'rt misradan iborat band shakhga kelib qoladi. Agar Alisher Navoiyning turkiy xalqlar og'zaki she'riyatidagi: "chinga"ga bergan ta'rifidan kelib chiqilsa, yor-yorlarning har biri to'rt rukndan iborat bolishi kerak. Mana shu talabdan kelib chiqilsa yor-yor misralaridagi ikkinchi bosh urg'u (sezura)dan keyin misrani kesib, sun'iy yangi misra hosil qilish nikoh to'ylari folklorining eng mashhur, yetakchi janrini noto'g'ri shaklda chop etish hisoblanadi. Quyida "O'zbek xalq ijodi" seriyasida chop etilgan "Oq olma, qizil olma" to'plamidagi bir misol orqali fikrimizni tasdiqlaymiz. Masalan, to'plamdagi to'rtlik shaklida berilgan:

Ovdir-shovdir oq munchoq,

Toqinarsan, yor-yor.

Buridan borib onangni

Sog 'inarsan, yor-yor.

Aslida, xalq she'riyati talablariga ko'ra, bu yor-yor to'rtlik shaklida emas, balki masnaviy shaklida qofiyalangan bayt shaklida, ya'ni ikki misradan iborat tuzilishga ega bo'lishi lozim. Ana shunda har bir misra oxiridagi qofiya va

radiflar ham o'rni-o'rnida keladi, ruknlar (turoqlar) miqdori ham har bir misrada, Navoiy ko'rsatganidek, to'rttadan (qo'sh misra hisobida musamman, ya'ni sakkizta) bo'ladi.

Ovdir-shovdir oq munchoq toqinarsan, yor-yor,

Bundan borib onangni sog'inarsan, yor-yor.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, yor-yorlarni yozib olishda va chop ettirishda faqat masnaviy shaklidagi tuzilishni saqlash kerak.

Yor-yorlar badiiyatida obrazlar tizimi belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur janrda rang-barang obrazlar ishtirok etadilar. Bunday xususiyat janrning o'ziga xos ijtimoiy tabiati bilan belgilanadi. Birinchidan, yor-yorlar an'anaviy janr bo'lib, uzoq davrlar mobaynida nikoh to'ylari marosimlari amaliyotida istifoda etib kelinadi. Natijada, har bir mustaqil yor-yorning juda ko'plab variantlari vujudga kelgan. Ikkinchidan, yor-yorlarning mavzu doirasi nihoyatda keng qamrovli bo'lganligidan ularda har bir obrazning turli-tuman, hatto bir-biriga zid variantlari yaratilgan. Masalan, bir yor-yorda kelin bo'layotgan qiz - yetim, uning dodiga, ko'ngil nidosiga e'tibor beruvchi kimsa yo'q, u mushtipar va aftodahol. Chunki otasi katta boylik yoki qarzi evaziga uni sinalmagan yot bir joyga sotib yuborayapti:

Osmondagi yulduzni otgan ota, yor-yor,

O'z qizini yot qilib sotgan ota, yor-yor.

O'z qizining o'rniga bodom eksin, yor-yor,

Bodom shoxi qayrilsa, bolam desin, yor-yor.

Ushbu yor-yorlardagi psixologik parallelizmlar shunchaki qizning ruhiy holatini ifodalash uchun keltirilgan emas. Ularda xalqning e'tiqodiy qarashlaridan sug'orilgan ramziy obrazlar vositasida kelin bo'lib kelayotgan mushtipar qizning achchiq dil nolalari ifodalangan. Chunki ota tomonidan otilgan osmondagi yulduz - iffati, ibosi va husni bilan baxth bo'lishga huquq bokira qizning ramziy ifodasi. Parallelizm yot yerlarga zolimlik bilan sotilayotgan qizning oddiy qizlardan emasligini, binobarin, u o'ta baxt-saodat beruvchi munosib joylarga kelin bo'lishga arziydigan qiz ekanligini ta'kidlash uchun "osmondagi

yulduz" obraziga muqoyasa qilingan. Darhaqiqat, osmondagi yulduzni otgan zolim ota o'z manfaati uchun o'z qizini yot yerlarga ham sotishi tabiiy. Biroq bir payt kelib, u keksayadi, holdan qoladi va unga farzand mehri, madadi kerak bo'ladi. Afsuski, mana shunday paytlarda bodomning nozik, go'zal shoxlari qayrilib singanidek, yot yerlarga sotilgan qizning ham umri xazon bo'lgan. Keyingi yor-yor misralaridan yot yerlarga sotilgan qizning keyingi ahvolidan, baxtsiz turmushidan xuddi bodom shoxi singanda kishi qalbida noxush va achinarli his-tuyg'u tug'ilganidek, afsus-nadomat tug'ilmasin, degan ogohlantirish ohangi seziladi. Demak, shoxlari qayrilajak bodom yot yerga sotilayotgan bechora qizning ramziy obrazidir. Ayrim yor-yorlarda kelin bo'layotgan qiz barcha tengdoshlarining ham husnda, ham odobda, mehnatsevarlik va loabarlikda sardori sifatida beriladi. Yor-yorda ta'riflangan "sakkiz qizning sardori" degan epitet ko'p qizlarning har tomonlama sardori degan ma'noni anglatadi.

Ayrim yor-yorlarda esa kelinning husn-u jamoli, aql-u kamoli ta'riflanadi. Bunda qizning nozik did bilan terilgan qora qoshlari istio- raviy yo'l bilan "qalam-qalam qoshlari" deb tavsiflanadi, uning yuzidagi xoli esa no'xot-no'xot deb mubolag'a qilinadi:

Tog 'da bitgan loladek hid beradi, yor-yor,

Qalam-qalam qoshlari chizilgandek, yor-yor.

No'xot-no'xot xollari yozilgandek, yor-yor,

Davlat bilan yetgaysan murodingga, yor-yor.

Ba'zi yor-yorlarda o'gay onaning ta'na-yu dashnomlarini yeb o'sgan qizning butun hovlini bo'shatib, o'zga hovliga ketayotgani, bunday kunni allaqachonlardan buyon xohlab yurgan o'gay ona ko'nglining taskin topishi juda ham ta'sirchan ifodalangan:

Oftobaga suv quydik, ilimaydi, yor-yor,

O 'gay ekan onasi, yig'lamaydi, yor-yor.

Ignaginam sindi deb urding, onam, yor-yor,

Enai ketib boraman, tinsin ko 'ngling, yor-yor.

Yuqoridagidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, keltirilgan barcha misollardagi kelin obrazi bu yagona obraz emas. Ular turli-tuman qismlarga ega bo'lgan ko'plab kelinlarning obrazi. Mana shu nuqtai nazardan qaralsa, yor-yorlardagi otanonalar, aka-ukalar, opa-singillar, dugonalar va kuyovlar obrazi ham o'z qismatiga ega bo'lgan ko'plab shaxslarning rang-barang obrazlaridan iborat. Binobarin, aytish mumkinki, yor-yorlar turli-tuman qismlarning shodlik, baxt, omad, baxtsizlik, omadsizlik va g'am-anduhni ifodalovchi nikoh to'ylarining qomusiy sig'imdagi lirik janri hisoblanadi.

Yor-yorlarda barqaror epitetlar nihoyatda keng qo'llaniladi. Epitet esa obrazning turli qirralarini aniqlab, qabartirib beruvchi badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Masalan: "shildir-shildir shiboq", "shovdir-shovdir oq munchoq", "Bog'dod eshik", "dursun-dursun yer", "to'rtquloqli qozon", "oq bo'z ot", "qalam-qalam qosh", "no'xot-no'xot xol", "qat-qatgina qatlama", "qiyomatli ota", "mis panjara", "shakar-shakar so'zlar", "oq Ipak", "qizil Ipak", "o't yulduz" kabi birikmalarda qo'sh epitetlar, shuningdek, alohida epitetlar qo'llanilgan.

A.N.Veselovskiy epitetlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'ladi. Yor-yorlarda har ikki xil epitetlar qo'llanilgan. Miqdoran olib qaralsa, bular: 1) Tautologik epitetlar. 2) Izohlovchi epitetlar. Yor-yorlarda tautologik epitetlar, masalan, "qiyomatli ota"dagi "qiyomatli", "o't yulduz"dagi "o't" nisbatan kam uchraydi. Ammo obrazning biror qirrasini, doimiy yoki o'tkinchi belgisini aniqlovchi, ta'kidlovchi "Bog'dodi eshik", "shildir-shildir shiboq (shuboq)", "qalam qosh" kabi birikmalardagi izohlovchi epitetlar sermahsul. Buning sababi shundaki, obrazning muayyan sifatini, belgisini kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatishi yor-yor janri uchun xarakterli. Mana shuning uchun ham yor-yorlarda juft epitetlar ko'p qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, yor-yorlar poetik jihatdan puxta sayqallangan. mavzu qamrovi keng janrlardan biri bo'lib, u nikoh to'ylarining yetakchi janri sifatida milliy madaniyatimizning bezagiga aylangan. Qashqadaryo nikoh to'ylarida aytiladigan yor-yorlar kimning tilidan aytilishiga qarab ham bir necha

qismlarga bo'inadi. Kelinni olib kelgan dugonalari shartli tarzda uning tilidan yor-yor aytadilar. Masalan:

*Osmondagi yulduzni otgan otam, yor-yor,
Oqizini yot qilib sotgan otam, yor-yor.
Ignaginasi yitdi deb urding, onam, yor-yor,
Endi ketib boraman, tinsin ko'ngling, yor-yor.*

Quyidagi yor-yor misralari esa qizning onasi tilidan aytiladi. Albatta, qizning onasi qo'liga childirma olib yor-yor demaydi, u quda sifatida o'z obro'si bilan turadi. Lekin uning dilidagi gaplari yor-yorchi qiz-juvonlar tomonidan kuylanadi:

*Taxta-taxta ko 'prikdek ahding bo'lsin, yor-yor,
Payg 'ambarning qizidek baxting bo'lsin, yor-yor.
Payg 'ambarning qizini kim ko 'ribdi, yor-yor,
Ota-ona diydoriga kim to'yibdi, yor-yor.*

Ayrim qishloqlarda esa kuyov tilidan aytiladigan yor-yorlar ham borki, ulardan ayrim namunalar Kitob, Qamashi kabi tumanlardan yozib olingan. Kuyov tilidan aytiladigan yor-yorning bir namunasi:

*Daryolarning ul yuzida bo'tako 'zmi, yor-yor,
Yuz-ko 'zlari yarqiragan to'da qizmi, yor-yor.
Hay-hay o 'lan, jon o'Ian, quloq soling, yor-yor,
Yayrab aytgan yallasidan bahra oling, yor-yor.
Daryolarning ul yuzida rayhon, jambil, yor-yor,
Aytadigan bir so'zim bor, o 'zginang bil, yor-yor.*

Xullas, yor-yorlar kimning tilidan aytilishidan qat'i nazar, har bir joyda nikoh to'ylaridagi qizni kuyov xonadoniga olib borish paytidagi eng og'ir, eng ta'sirchan, vaziyatga emotsionallik, shukuh va zavq bag'ishlovchi janr hisoblanadi. Shuning uchun ham u eng ko'hna va eng navqiron janr bo'lib qoladi.

Qadimda kelinning dugonalari uni o'rtaga olib, hovlidagi gulxanni uch marta aylantirib, yor-yor aytilayotgan paytda kuyov bir-ikki jo'rasi bilan tomga

chiqib turgan. Bunday irim erkak kishining obro'si, mavqei ham har vaqt oilada baland bo'lsin, degan ma'noni anglatadi.

Gulxan atrofidagi udum tugagach, kelin bezatib qo'yilgan uyga boshlab kelinadi. Uyning bo'sag'asiga oq va qimmat baho mato solinadi. Kelin uni bosib o'tgach, bu raatoni kayvoni yoki hali turmushga chiqmagan qizning dugonalaridan biri "bizga ham shunday to'ylar nasib qilsin deb" oladi.

Ayrim qishloqlarda kelinni uyga yetaklab kirishda, ya'ni poyandozni bosib o'tgandan keyin qaynonasi "xush keldingiz" aytimini aytadi. Uning atrofidagilar jo'r bo'lishib "hazorali" deb turishadi:

Hazorali, hazorali,

Oftobim, anbarim, xush keldingiz,

Jonim, oltin parim, xush keldingiz.

Hazorali, hazorali,

Davlat boshingizda bo 'Isin, xush keldingiz,

Himmat qo'lingizda bo 'Isin, xush keldingiz.

Hazorali, hazorali.

Ushbu aytim kelinning uyida tutilgan chimildiqqa kuyov olib kirilganda aytilgan aytimdan farq qiladi. "Xush keldingiz" xonadonga yangi a'zo bo'lib kelayotgan kelinning poyqadami oq bo'lsin, degan ma'noda aytiladi. Unda qaynonaning kelin kelganidan xursandligini, mamnunligi aks etadi. Kelin xonadonida ijro etilgan aytim bilan "xush keldingiz" aytimini bir-biriga yaqinlashtirib turgan narsa har baytdan so'ng ko'pchilik tomonidan takrorlanib turadigan "hazorali" so'zidir.

Bizningcha, "hazorali" tarzida, ya'ni bitta "z" va shu tovushdan keyin "o" tovushi emas, balki "i" tovushi bilan aytilishi to'g'ri. Chunki vohada shia mazhabiga mansub urug'lar ko'p bo'lib, ushbu so'z ana shu mazhabdagi kishilardan shaklan biroz o'zgarishlarga uchragan holda saqlanib qolgan bo'lishi kerak. Agar so'z "hazorali" shaklida bo'lsa, uning ma'nosi payg'ambarimizning kuyovi Hazrati Ali hamma vaqt, hamma joyda bizga madadkor, yordam berishga hozir-tayyor ma'nosini anglatadi. Chunki musulmon dunyosida og'ir

vaziyatlarda qiyin holatlarda, og'ir yuklarni ko'tarishda kishilar "yo, pirim Shohimardon", "yo, Ali", "Hazrati Ali qo'llasin", deb murojaat qiladilar. Mana shu nuqtai nazardan kelib chiqil- sa, xonadonga yangi a'zo bo'layotgan kehnning qadami qutlug' bo'lishida Hazrati Alining qo'llashiga hozir bo'lsin ma'nosida unga "Hozir Ali" deyilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik xalq o'rtasida bu ifodaning ma'nosiga ahamiyat bermaslik oqibatida ikki so'z qo'shib aytilib, uning tarkibidagi ayrim tovushlar o'zgarib, "hazorali" shakliga kelib qolgan bo'lishi mumkin.

Xonadon qizning, kuyovning kiyimlari bilan bezatilgan bo'lib, uning bir burchiga chimildiq tortiladi. Bu uy kelinchakning uyi hisoblanadi. Bu uyga kelin dugonalari bilan, quda tomonidan kelgan boshqa ayollar, kuyov tomonidagi mezbon ayollar, yangalar kirishadi. Kelin chimildiqning ortiga o'tqazilgandan keyin chimildiq qayirib ochiladi, dugonalari esa kuyovning ota-onasiga, yaqin qarindoshlariga, tanish bilishlariga "kelin salom"ni aytib turishadi, har bir shaxsga aytilgan salomdan keyin kelin egilib salom beradi. Qadimdan bunday kelinsalomlar Ollohga, payg'am- barimiz va uning choryorlariga salom berishdan boshlangan.

Qashqadaryo vohasida kelinsalomning ikki shakli qayd etildi. Birinchisi - qo'shiq uch misradan iborat bandlardan tashkil topgan. Masalan:

*Yomg'ir yog'ib ho'l qilgan,
Ikki yorni bir qilgan,
Xudo taologa salom.*

Yomg'ir yog'dirib, hamma yoqni ho'l qildirgan. o'z qudrati bilan ikki gulning - ikki yoshning taqdirini bir-biriga qo'shgan Olloh Taologa salom berish orqali kelin-salom aytuvchilar butun mavjudotni yaratgan yagona Ollohning qudratiga, uning yagona va abadiyligiga iymon keltiradilar. Mana shundan so'ng kelinning salom berish navbati payg'ambarlarga keladi:

*Oq ro'molning rishtasi,
Osmonlar farishtasi
Payg'ambarlarga salom.*

Keltirilgan bandda farishtalarning oq kiyimda, odamzot bilan Oллоh Taolo o'rtasida vositachilik vazifasini ado etuvchi pokiza xilqat ekanliklari alohida ta'kidlangan. Musulmonchilikda farzand uchun xudo, farishta va payg'ambardan keyin eng muqaddas zot ota-ona hisoblanadi. Shu bois kelin salomlarning navbatdagi misralari ota-onaga bag'ishlanadi. Ota-onaga qaratilgan salomlarda dastlab ularga xos xislatlar, tashqi va ichki xususiyatlar yengil hazil orqali qayd etib o'tiladi, bunday yumordan hech kim xafa bo'lmaydi, ularni samimiy qabul qiladilar:

Uhu-uhu yo'talgan,

Obdastani ko'targan

Qayinotasiga salom.

Darhaqiqat, o'g'lini uylagan qayinota hovlida salobat bilan yo'talib, o'zining borligini bildirib, tahorat uchun obdasta ko'tarib yuradi. Obdasta detalini eslatish va uhu-uhu yo'talni alohida ta'kidlash orqali xalq ijodkorlari yosh kelinchak, umuman barcha yoshlarga bir qancha narsalarga so'zsiz amal qilish haqida nozik shama qilganligi, shubhasiz. Birinchidan, kelin uchun qayinotali xonadon tabarruk va muqaddas, salobatli va badavlat oila. Binobarin, bu xonadonga oyoq bosayotgan kelin chaqqon, lo'bar, andishali va hushyor bo'lishi shart. Ikkinchidan, qayinota obdasta ko'tarib yuradi. Demak, u iymoni baquvvat, pokdomon, shariatning barcha shartlariga to'liq rioya qiluvchi insondir. Kelin esa shunga munosib bo'lishi, hamma vaqt qayinotaning, qayinonaning tahorati uchun obdastaga iliq suv tayyorlab qo'yishi lozim. Kelin salom misralari, umuman, mazkur janrga xos muhim xususiyat shuki, ularda bir-ikki yetakchi delal vositasida chuqur mohiyath, ma'nodor mazmuni ifodalash. Chunki janming ijro etish o'rni, vaqti, vaziyati nihoyatda qisqa, mas'uliyatli, ayni paytda jozibali. Demak, ixcham misralarda, xarakterli detallar vositasida salom berishi lozim bo'lgan kishilarga yengil hazil orqali kishilarni zeriktirmaydigan tarzda aytim aytilib, kelinni salom qildirishdan iborat vazifa ushbu janrga xos yetakchi xususiyat hisoblanadi.

Kelinsalom navbati qayinonaga keladi. Yuqorida aytilganidek, barcha qayinonalarga xos bo'lgan yetakchi xislatlar mujassamlashgan misralar aytiladi:

Oq saqichday erigan,

O'g'il tug'ib kerilgan,

Qayinonasiga salom.

Mazkur misralarni yaratgan xalq ijodkorlarining topqirligi, inson ruhi- ning chuqur qatlamlarini nozik ilg'ay olishlariga yuqoridagi kelinsalom misralarini tinglagandan keyin tahsin aytmay iloj yo'q. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu misralarda ham bitta nozik detalni real hayotiy narsaga parallel keltirish orqali qayinonalarga xos xarakter yengil yumor orqali shunday nazokat bilan ifodalanganki, mana shu narsaning o'zi xalq ijodining juda yuksakligini ko'rsatadi. Ma'lumki, yuzaki qaralsa, oq saqich juda qattiqdek ko'rinadi, ammo u og'izga solinishi bilan tezda erib, chaynashga o'ng'ay bo'lib qoladi. Oq saqichdagi bunday xususiyatni qayinonaga qiyoslashga hojat bormi? Hojat borligi hamda inson ruhiy olamiga mutanosibligi hayratlanarli darajada. Haqiqatan ham har qanday qayinona o'g'ilning onasi - yangi oilaning boshlig'i bo'ladigan kuyovning onasi. Binobarin, uning gapi - gap, amri - amr bo'lishi lozim. U o'zining bu holati bilan kerilishga loyiq. Kelinlar uchun bunday qaynonalar zolim, berahm bo'lib tuyuladilar. Qaynonadagi g'ururga chiday olmagan ko'pchilik kelinlar oilada ko'plab urush-janjallarga, qo'ydi-chiqdilariga sabab bo'ladilar. Mana shunday paytlarda kelinlar kelinsalomda aytilgan oq saqichni eslab, yaxshi so'z va harakat bilan qayinonaning ko'nglini ovlasalar, vassalom, u darhol crib ketadi va o'z shadidan qaytadi, oradagi Ago barham topadi. Axir aqlli-hushli qaysi ona o'z farzandining oilasini buzishni xohlaydi. Kelin salomdagi oq saqichning xususiyatini qaynonaning xislatiga qiyoslab keltirish orqali tajribali xalq ijodkorlari yosh kelinlarni hayotda o'ktam, dono va tadbirkor bo'lishga da'vat etmoqda.

Kelinsalom davom etar ekan, kuyovning eng yaqin kishilari bo'lmish aromalariga ham navbat yetadi. Odatda, to'ylarda kuyovning ammalari o'zlarini eng g'amxo'r kishilar qilib ko'rsatishga intiladilar. Ular ko'pincha amalda hech

narsa qilmasalar ham, to'y paytida, ayniqsa, kelin kelganda o'ta jonbozlik ko'rsatishga intiladilar. Mana shunday xislat kelinsalomda "ko'pirib turgan sovun", "ichi tushgan qovun" kabi detallarga o'xshatilgan holda ifodalangan. Chunki ammalarning o'z jiyanlariga qilayotgan jonbozliklarini sovunning ko'pirib turishiga, lekin ozgina fursatdan keyin ko'pikning qurib qolishiga o'xshatish uchun katta hayotiy tajriba, sinchkovlik hamda badiiy mahorat talab qilinadi. Biroq bu o'rinda faqat tashbehning o'zi kamlik qiladi, chunki har qanday tashbeh kishini-tinglovchini ishontira olishi kerak. ilmiy til bilan aytganda, yuqoridagi o'xshatishni asoslash determenizm kerak.

Xalq dahosi bunday asoslashni ham bitta nozik detal bilan o'z o'miga qo'ya olgan. Bu detal esa ichi tushgan qovundan iborat. Qovunni kishi yeyish uchun oladi, yaxshi qovun esa kishiga lazzat, huzur bag'ishlaydi. Ammo huzur qilib yeyish uchun olingan qovunning ichi tushgan bo'lsa, kishining hafsalasi pir bo'ladi. Ammolarning sovunning ko'pigiday hovliqishlarini ichi tushgan qovunga muqoyasa qilish orqali xalq dahosi bunday g'amxo'rliklarga ishonma, o'zingdan qolma, demoqchi bo'ladi. Quyida biz ana shu misralarni keltiramiz:

Ko'pirib turgan sovunday,

Ichi tushgan qovunday

Ammalariga salom.

Kelinsalom aytuvchilar nazaridan kuyov bo'lish navbatini kutib turgan qayinilar ham chetda qolmaydilar. Ular o'z tavsiflarida qayinilarning xulq-atvoriga xos yetakchi detallarni yengil yumor orqali ifodalaydilar:

Qiyiq chorsi yarashgan,

Kuyovlikni talashgan,

Qainilariga salom.

O'zbeklarda qo'ni-qo'shnicilik yuksak qadrlanadi. Chunki har bir xonadonda bo'layotgan voqyealardan birinchi bo'lib qo'shnilar xabardor bo'ladilar. Xalqimiz orasida aytilib yurgan "Hovli olma, qo'shni ol" maqolida qo'shnining roli juda yaxshi ifodalangan. Chunki qo'shni oilada kechayotgan ishlardan xabardor bo'lishi bilan birga bu ishlarning faol ishtirokchilari, yaqin

ko'makchilari ham hisoblanadilar. Biror oilada to'y yoki boshqa ma'raka o'tkazilmoqchi bo'lsa, darhol qo'shnilar xabardor qilinadi, ular bilan maslahat qilinadi. Kelinsalomlarda qo'shnilarga nisbatan aytilajak o'rinlarda qo'ni-qo'shnicilikka xos eng muhim munosabatlar tilga olinadi:

Devor osha qaragan,

To'y qachon deb so'ragan

Qo'shnilariga salom.

Mana shu tariqa yaqin qarindoshlar, qo'shnilar va boshqa kishilarga salom yo'llangach, navbat kuyovga keladi. Bunda kuyovning beqasam to'n yarashgan qaddi qomati, beliga bog'langan qiyiqning yarashimligi va shu kabi xislatlar alohida madh etiladi:

Beqasam to'n egnida,

Qiyiq chorsi belida

Kuyovto'raga salom.

Kelinsalom qo'shiqlarining mohir ijrochilari vaziyatga qarab, marosim ishtirokchilarining aksariyatiga badihago'ylik bilan yangi-yangi misralar bag'ishlayveradi. An'anaga ko'ra, kelin salomlar Oллоh Taolo, payg'ambarlar, avliyolar vasfi bilan boshlangan bo'lsa, uning nihoyasi ham o'ziga xos an'anaviy tugallanma bilan yakunlanadi:

Bo'yniimdagi marjonim

To'kilib ado bo'ldi.

Sizga aytgan salomim

Shu bilan ado bo'ldi.

Biroq Qashqadaryoning barcha joylarida bunday tugallanmalar uchrayvermaydi. Uch misradan iborat shakliy tuzilishga ega bo'lgan kelin salomlar asosan yetti hijoli yengil, o'ynoqi vaznda yaratilgan bo'lib, ularning birinchi, ikkinchi misralari o'zaro qofiyadosh, uchinchi misrada esa salom yo'llagan shaxsning ismi aytiladi.

Kelinsalom qofiyalari sifat jihatdan to'liq uyg'unlashgan qofiyalardan iborat. Buning bosh sababi kelinsalomlar asosan ikki misraning ohangdoshligiga

tayanadi. Mana shuning uchun ham dastlabki ikki misradagi qofiyalar deyarli to'q qofiyalardan tashkil topadi. Masalan: "qovunday-sovunday", "yarashgan-talashgan", "rishtasi-farishtasi" kabi.

Biroq ayrim salomlarda och qofiyalar qo'llanilgan hollar ham uchrab turadi. Ba'zi kelinsalomlarda esa umuman qofiya yo'q bo'lib, qofiya vazifasini misralar oxiridagi so'z takrorlari ado etadi. Masalan, "yo'talgan-ko'targan", "erigan-kerilgan"lar och qofiyani tashkil etsalar, "egnida-belida", "ho'l qilgan-bir qilgan" kabilarda qofiya mutlaqo yo'q. Bunday hollarda misralar oxiridagi ohangdoshlikni turli xildagi qo'shimchalar uyg'unligi ta'minlaydi. Boshqa aytimlarda esa ohangdoshlik faqat so'z takrori hisobiga ta'minlanadi.

Ikkinchi xil kelinsalomlar olti misradan iborat bo'ladi. Bunday band tuzilishiga ega bo'lgan kelinsalomlar mazmuni uch misradan iborat band tuzilishidagi salomlardan farqlanmaydi. Band misralarining miqdoran oshishi esa keyingi uch misraning faqat takror va ta'kiddan iboratligidadir. Qaynotaga yo'llangan olti misrali kelinsalom uch misradan iborat kelinsalomdan mazmunan farqlanmaydi. Ammo keyingi uch misrada salom yo'llangan shaxs va yo'llangan salom alohida ta'kidlanadi, xolos. Mana shu tariqa banddagi misralar miqdori oltitaga yetadi:

*Uhu-uhu yo'talgan,
Obdastasin ko'targan,
Eshitib olsin qayinotasi
Sizga salom yor-yor.
Qayinotasiga salom.*

Olti misralari banddan tashkil topgan kelinsalomlarda kuyovning bobosiga bag'ishlangan salomlar ajralib turadi. Ularda boboning savatday soqoli, to'la gavdasi alohida ta'kidlab o'tiladi:

*Soqollari savatday,
Yoqqa bosgan bovatday,
Eshitib olsin buvasi
Sizga salom yor-yor.*

Salom-salom, kelin salom,

Buvasiga bir salom.

Keksayib darmondan qolgan, yuz-qo'llarini ajin qoplagan ozg'in momolar ham kelinsalomlarda alohida tilga olinadi, chunki kelinni chimildiqa olib kirishda qari momolar ham tomoshabin sifatida ishtirok etadilar. Momolarga bag'ishlangan kelinsalomlardagj o'xshatishlar tinglovchilarda yengil kulgi uyg'otib, marosimning ruhiga ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Paytavasiz kiyilgan mahsini yoki ozg'in cchkini ko'z oldingizga keltiring: mayishib, qatqat buklanib yotgan mahsi, qorni qapishib, yergacha osilib yotgan beso'naqay echki cho'pday ozg'in, zo'rg'a yuradigan, bukchayib, serrayib qolgan mo- molarga juda-juda o'xshab ketadi. Yengil yumor bilan sug'orilgan bunday salomlardan momolar ranjimaydilar, balki yosh-yalangning nazaridan chet- da qolmaganliklari uchun aytimni samimiy kulgi bilan qabul qiladilar:

Paytavasiz mahsiday,

Ich tashlagan echkiday,

Eshitib olsin momosi

Sizga salom yor-yor.

Salom-salom, kelin salom,

Momosiga bir salom.

Ayrim qishloqlarda kuyovning bobosiga xos boshqa xislatlar eslatib o'tiladigan salomlar hammavjud. Aytim misralarining mazmuniga e'tibor berilsa, bunday salomlar ko'proq vohaning chorvador tumanlariga oid ekanligi anglashiladi. Chunki chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qishloqlarda keksa bobolarning asosiy mashg'uloti eski kiyimlarni kiyib, o'tloq-qirlarda qo'ylarni boqishdan iborat. Ular kuni bo'yi ba'zan och, ba'zan to'q qo'y galalari ortida yuradilar, shom qorong'usida qo'ylarni qo'tonlarga qamab, keyin uyga qaytadilar. Mana shu hayotiy haqiqat kelinsalomlarda o'zining to'laqonli ifodasini topgan:

Qo'tonga qo 'y qamagan,

Yaktagini yamagan,

To'yib ovqat vemagan,

Eshitib olsin buvasi

Sizga salom, yor-yor.

Buvasiga bir salom.

Mazkur kelinsalomda kuyovning buvasiga xos belgilarning muhimlari sanalib o'tiladi, biroq bu belgilar yana birorta detal bilan boyitilganda, salomlar bandi tarkibidagi misralar oltita emas, balki yettita yoki sakkizta ham bo'lib qolishi mumkin. Mana shu faktga asoslanib aytish mumkinki, Qashqadaryo vohasida ijro etiluvchi kelin salomlarning strofikasi (band tuzilishi) asosan uch, olti misradan iborat bo'lsa ham, ayrim hollarda aytuvchilarning badiha quvvatiga qarab yetti yoki sakkiz misrali ham bo'lishi mumkin. Masalan, kuyovning ammasiga yo'llangan quyidagi salomda ham band misralari yettitadan iborat:

Ichi qozon kuyasi,

Qonquv gapning uyasi,

Pilikdayin chuyasi,

Eshitib olsin ammasi

Sizga salom, yor-yor.

Salom-salom, kelin salom,

Ammasiga ming salom.

Agar uch misrali band tuzilishiga ega bo'lgan kelinsalomlarda kuyovning ammalari og'izda kerilib, amalda hech narsa qilmaydigan qarindoshlar sifatida tilga olingan bo'lsalar, yetti misrali salomlarda ham ularga salbiy munosabat mavjudligi seziladi. Kuyovning ota-onasi, hattoki uning o'zi haqida ham ammalar ichiqoralik bilan munosabatda bo'ladilar. To'y arafasi va undan keyin ham imkon topilgan vaziyatlarda ular fisqi fasod gaplarni tarqatib yuradilar. Ammalarga nisbatan bunday munosabatning aniq hayotiy asoslari bor. Chunki aka yoki ukaning xonadonida uning xotini boshchilik qiladi, xonadon boshlig'i bo'lmish aka va uka ham barcha narsalarda faqat xotinlari bilan kengashib ish tutadilar. Demak, ularning opa-singillari nazardan chetda qoladilar. Qolaversa, o'zbeklarda oilada erning qarindoshidan ko'ra xotinning qarindoshlari ko'proq erkinroq bo'ladi. Mana shu holat ham ammalarga yoqmaydi. Ammalarga xos ana

shunday xislatlar kelinsalom aytimlarida ro'y-rost qayd etiladi. Ammo bu aytimlardan ammalarning dili og'rimaydi. Chunki janr tabiatiga xos hazil-huzulga, yengil hajv va yumorga moyillik ammalarning bundan ham og'irroq tanqidlarni hazilga yo'yib qabul qilishlariga imkon beradi.

Kuyovning opalari bo'lishi mumkin. Ularning erlari esa to'yning faol tashkilotchilari sifatida yelib-yugurib xizmat qiladilar. Nihoyat, kelinsalom berish navbati kuyovning pochchalariga ham yetib keladi. Bu salomlarda Pochchalar biroz tanqidiy munosabatga loyiq tarzda ta'riflanadilar:

Uvadasi uvalgan,

Darvozasi suvalgan.

Sallasi zab chuvalgan,

Eshitib olsin pochchasi

Sizga salom, yor-yor.

Salom-salom, kelin salom,

Pochchasiga bir salom.

Kuyov va uning yaqinlariga salom berilar ekan, uning chechasi (yangasi) yoddan chiqib qolishi mumkin emas. Chunki yangi kelinning tinch hayot kechirishi, yangi xonadonning og'ir-yengilini, chuqur-chanog'ini oson o'zlashtirib olishida chechalar asosiy roi o'ynaydilar. Bundan tashqari, yangi kelgan kelin bilan kuyovning chechasi ovsin sanaladi. Ular bir-birlari bilan hammavaqt ichki raqobatda bo'ladilar. Shu sababli boisa kerak, kelin salomlarda chechalarga jiddiy, ko'tarinki tavsiflar berilgan- ligining guvohi boiamiz. Kuyov yigitning jo'ralari esa quyidagicha ta'riflanadi:

Husayni uzumning g 'o 'rasi,

Kuyov bolaning qo 'rasi,

Eshitib olsin jo 'rasi

Sizga salom yor-yor.

Salom-salom, kelin salom,

Jo'rasiga bir salom.

Qashqadaryo qishloqlarida aytiladigan kelinsalomlarda kuyovning akasiga. ya'ni kelinning qayinakalariga bir necha xil ta'riflar beriladi. Bir xil salomlarda u biroz hajv ostiga olinadi. Masalan:

*Og'zidan nosi anqigan,
Ko'cha-ko'yda sanqigan,
Ro'zg'orini tang qilgan,
Eshitib olsin qayinakasi
Sizga salom yor-yor.
Salom-salom, kelin salom,
Qayinakasiga bir salom.*

Kelin salomlarda kuyovning ukasi ham bir necha xil ta'riflangan. Qayinukaga yo'llangan salomlardau o'ziga zeb berib yuradigan, ulfatchiliklardan qolmaydigan, sarf-xarajati katta, pul topishga mohir yigit qiyofasida namoyon bo'ladi:

*Import tufli poshnasi,
Pultoparlar oshnasi,
Yarimtaning tashnasi,
Eshitib olsin qayinisi
Sizga salom, yor-yor.
Salom-salom, kelin salom,
Qayinisiga bir salom.*

Mana shu tariqa kelinsalomlar davom etib ketaveradi. Aytuvchilarning badihago'yligi bilan bog'liq tarzda, kuyovning yaqinlari, ulfatlari mazkur janrning asosiy ob'ektlari sanaladilar.

Kelinsalomlar asosan yetti-sakkiz hijoli barmoq vaznida yaratilib, sitrofik (band) shakliga qarab ikki xil qofiyalanish tartibiga egadirlar. Birinchisi uch misradan iborat band tuzilishiga ega bo'lgan kelinsalomlarda birinchi, ikkinchi misralari o'zaro masnaviy shaklida a-a, b-b, v-v kabi qofiyalangan, uchinchi misrasi esa salomning kimga yoilanayotganini bildiruvchi qismdan iborat. Olti yoki yetti misrali salomlarda dastlabki uch yoki to'rt misra o'zaro qofiyalanib

kelsalar. keyingi uch misra qofiyasiz bo'ladi. Xullas, juda boy qofiya, ba'zan esa tajnisli qofiyalar ham uchrab qoladi.

Kelinsalomlarda eng ko'p qo'llanadigan badiiy tasviriy vositalardan biri o'xshatish (tashbeh) bo'lib, u salom yo'llangan ob'ektning sifati, miqdori va boshqa xususiyatlarini aniq ifodalab berishda keng istifoda etiladi.

Xullas, kelinsalomlar o'tmish bilan zamonani bog'lovchi, yosh kelin-kuyovlarni, ularning yaqin qarindosh-urug', yor-do'stlarining ko'ngni ko'tarib, ruhiyatini tetiklashtiruvchi, hozir ham to'ylarda jonli ijro etiluvchi folklor janridir.

Mana shu tariqa kuyovning yaqinlari va boshqalarga kelin salom berib bo'lgach, chimildiq tushiriydi. Biroq bu bilan ham marosim voqyealari ham yakunlanmaydi. Qashqadaryo, Buxoro, Farg'ona to'ylarida ilgari "kuyov o'tirsin" va "kelin o'tirsin" udumlari o'tkazilgan. "Kuyov o'tirsin" marosimi kuyovnavkarlar kelib, ziyofat tuzalgan xonaga kirganda o'tkazilgan. Bu haqda elshunos N.P.Ix) bacheva hamda folklorshunoslar prof. O.Safarov hamda tojik folklorshunosi F.Zehniyevalaming maqola va kitoblari mavjud.

Kelin kuyovning uyiga keltirilgach, kelinsalomlardan so'ng chimildiq tushi- rilgach. "kelin o'tirsin" udumi o'tkazilgan va u bilan bog'liq aytimlar ijro etil- gan. "Kelin o'tirsin" kelinning o'zini tarbiyalab o'stirgan ota-onalariga, shu- ningdek, to'yga yig'ilganlarga hurmatini ifodalaydi. "Kelin o'tirsin" aytimlari marosimga uzviy bog'liq holda o'ziga xos ijro xususiyatiga ega. U yakka ijro etiladi va ijrochining badihago'ylik iste'dodi hamda voqyelikka munosabati, ya'ni dunyoqarashi bilan bog'liq holda turlicha hajmga ega boladi.

"Kelin o'tirsin" aytimlarida, odatda, kelinposhshaning husni-latofati, chevar-pazandaligi kabi fazilatlar ta'rifu tavsif etiladi. Bevosita shu kelin tufayli yuzaga kelayotgan yangi oilaga ezgu tilaklar bildiriladi va kelinga yengil tegajog'lik ham qilinadi:

Upaday oppoq kelinim,

Maydon supaday kelinim.

O'zi Shahrizabzdan kelgan,

*Dilu jonim kelinim,
Kelinposhsho, o'tirsinlar.*

"Kelin o'tirsin" aytimlarida ham xuddi yor-yorlardagi kabi kelinga turli-tuman narsalarni, xususan, "ostonasi tillodan" uyni va boshqa ko'p narsalarni hadya etish motivi yetakchilik qiladi:

*O'tiring, kelin, o'tiring,
Kamay-surnay chalingan
To'y sizniki, o'tiring.
Ostonasi tillodan
Uy sizniki, o'tiring.
Beqasam to'nlar kiygan
Yor sizniki, o'tiring.
Qirmizi gilamlar solingan
Uy sizniki, o'tiring.
Shohi ko'rpalar to'shalgan
To'y sizniki, o'tiring.*

Agar kelin tezda o'tiravermasa, qaynona yoki uning tilidan kayvoni aytimni davom ettiradi. Endi kelinga uy-joy, mol-dunyogina emas, balki obro'-e'tibor, izzat-u hurmat ham hadya etiladi:

*Agar kelin o'tirmasa, uylarni berdim,
Povgakni qo'yib, to'rlarni berdim,
Boru yo'q davlatimni berdim,
Barcha savlatimni berdim,
O'tirsin, kelin, o'tirsin.*

Xalq o'rtasida izchil vazn, ravon qofiya va maxsus band tuzilishiga ega boigan shunday aytimlar borki, ular ayrim keksa ayollarning, ayniqsa, ilgari kayvonilik qilgan ayollarning xotirasida saqlanib qolgan.

Kelin o'tirsin aytimlarining mavzu doirasi keng bo'lib, unda kelinchakka uy-joy, mol-davlat, yaxshi farzand tilanibgina qolmay, balki yaxshi odob, qaynonaga hurmat-ehtirom ham tilangan:

*Kelin-kelin desinlar,
Jonona kelin desinlar,
Qaynona ish buyursa,
Malol kelmay ailsinlar.
O'tiring, kelin, o'tiring.*

Kelin bo'lib tushgan xonadonni o'zining xonadoni, shu uyning g'am-u tashvishini o'ziniki deb bilish oilani oila qilaman degan ayolning qo'lidan keladi, xolos. Ro'zg'or qilishning nozik kaliti hisoblangan narsani kelinchakning qulog'iga quyib qo'yish uchun xizmat qilgan kelin o'tirsin aytimi xuddi mana shunday o'rinlarda katta tarbiyaviy vosita vazifasini ham ado etadi:

*Kelin-kelin desinlar,
Jonona kelin desinlar,
Shu uyning tashvishini
O'ziniki bilsinlar.
O'tiring, kelin, o'tiring.
Kelin-kelin desinlar,
Jonona kelin desinlar.
Kuyov bilan o'zini
Qo 'sha ho'kiz desinlar.
O'tiring, kelin, o'tiring.*

Uyda ayolning fe'li ochiq bo'lsa, mehmon kutib, yugurib xizmat qilsa, bu xonadondagi erkakning umri uzoq, istiqboli porloq bo'ladi. Chunki "erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin" deb xalqimiz bekorga aytmagan. Xuddi mana shu hayotiy masala kelin o'tirsin aytimlaridan bejiz o'rin olmagan:

*Kelin-kelin desinlar,
Janona kelin desinlar.
Uyga mehmon kelganda
Dillaridan kulsinlar.
O'tiring, kelin, o'tiring.*

Ushbu aytimlar vohaning barcha nikoh to'ylarida jonli ijro etilmay qolganligi sababli asta-sekin jonli yashashdan tushib qolmoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'p hollarda, kelin o'tirsin aytimlari she'riy shaklda emas, balki oddiy nasriy shakllarda aytila boshlandi. Bunday aytimlar esa estetik vazifadan ko'ra informativ funktsiya ado etadi. Masalan, "o'tiring, kelin poshsho, o'tiring. Uyimizning to'ri, qalbimizning qo'ri, yemishimizning zo'ri sizniki bo'lsin, o'tiring".

Xulosa qilib aytganda, kelin aytimlari vohaning nikoh to'ylarida ijro etiluvchi eng jozibali aytimlardan biri bo'lib, u endilikda asta-sekin ijro etilmay qolayotir. Qadimgi milliy qadriyatlarimizga ma'naviyatimizning sarchashmalari sifatida yuz burgan hozirgi mustaqillik sharoitida kelin o'tirsin kabi udumlarimiz tiklanishi lozim. Bunday savobli ishda folklorshunoslar va etnograflar, mahalla yoki qishloq faollari, ziyolilar jonbozlik ko'rsatishlari zarur.

Mana shu tariqa o'zga bir oilaning bekasi sifatida kelinchak kutib olinadi. To'yning ikkinchi qismi esa kelin-kuyov tomonidan yig'ilgan ayollarning eng keksasi, ko'p farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan momo tomonidan berilgan duo-fotiha bilan yakunlanadi. Bunday olqishlar esa ayrim joylarda nasriy shakldagi oddiy aytimlardan iborat bo'lsa, ayrim momolar xotirasida esa sof she'riy olqishlar ham saqlanib qolgan. Masalan:

So'm-som tila, so 'm tilla
Suvga solsa, botmasin.
Xudoyim bergan shu davlat
Tepkilasa, ketmasin.
Atta bo 'Isin, batta bo'lsin,
Bolalari katta bo'lsin,
Borgani bozor bo'lsin,
Yovlari bemor bo'lsin,
Hovlisi udum bo'lsin,
Umlari uzun bo'lsin,
Ivitgani qatiq bo'lsin,

Mol-davlati ortiq bo'lsin.

Soqqanlari sut bo'lsin,

Ro'zg 'orlari but bo'lsin.

O'choqlari to'la kul bo'lsin,

Atrofi to'la ul bo'lsin.

Omin, xudoyim, o'zi yetkazsin!

Shu olqishdan so'ng chimildiq ortida kelin va kuyov, uyda esa kelin-kuyov tomonidan tayinlangan yangalargina qoladi, boshqa barcha mehmon-u mezbolar tarqaladilar. Mana shu bilan nikoh to'yining eng mazmunli, eng qiziqarli hisoblangan ikkinchi qismi yakunlanadi.

Katta to'yning ertasi esa ertalab kelinchakni qaynotasi o'tirgan uyga boshlab kirishadi. Bu yerda "yuz ochar" marosimi o'tkaziladi. Kelinchak yumshoq xulqli bo'lsin deb to'yga so'yilgan terining ustiga, istarasi, nafasi issiq bo'lsin deb olov yonib turgan o'choqqa yaqin o'tqiziladi. Kelinchakning qo'lga bir qoshiqda moy beradilar, u moyni olib olov ustiga quyadi. Bu bilan kelinchakning har bir harakati iliq va samimiy, yog'day silliq bo'lsin. degan istak bildiriladi. So'ngra dasturxon yozilib, non, qat- lama, qand-kurs, turli xil shirinliklar va ilik go'sht qo'yiladi. Kelin lo- monidan kelgan kayvoni ayol qayinotaga "keliningiz choy ichmayapti, ovqat yemayapti, beradiganingizni bering", deydi. Qayinota kelinchakka yuzlanib, "sigir berdim, qo'y berdim, yilqi berdim, tuya berdim" deydi. So'ngra kayvoni ayollar qistovida kelinchak tamaddi qilgandek boiadi. Mana shundan keyin ko'pchilik "kelinning yuzini oching", deyishadi. Kelinning yuzi ochilgach, ko'rmana beriladi va kelinchak yana chimildiq ortiga qaytarib kelinadi. Bunday yuz ochar marosim Qashqadaryoning Dehqonobod, Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog' kabi tumanlarida o'tkaziladi.

Vohaning boshqa tumanlarida esa, xuddi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi kabi "yuz ochar" marosimi chimildikli uyning o'zida o'tkaziladi. Unda kuyovning yaqin kishilari, qarindoshlari sovg'a-salomlar hadya etishib, kelinchakning yuzini ko'rishadi. Eng qizig'i shundaki, biror-bir sabab bilan yuz

ochar marosimida ishtirok eta olmagan kuyovning yaqin kishisidan to o'sha udumni ado etmaguncha kelinchak qochib yuradi.

Mana shu marosim bilan nikoh to'yining uchinchi qismi yakunlanadi. To'yning ota ko'rdi, kuyov chaqirdi kabi alohida-alohida rasm-rusumlari esa keyinchalik o'tkazilaveradi. Eng muhimi shundaki, kelin-kuyov chimildiqa kirgan vaqtdan boshlab chillali sanaladilar. Ular va shu xonadon yolg'iz qoldirilmaydi.

Xullas, Qashqadaryo vohasida o'tkazilayotgan nikoh to'ylari va to'ylarda ijro etilayotgan folklor janrlari, bir tomondan, umumo'zbek nikoh to'ylarida keng ifoda etilayotgan janrlar bilan umumiylik kasb etadi. Lapar, yor-yor, kelin salom kabi marosim lirikasining janrlari ana shular jumlasidandir. Ikkinchi tomondan, vohadagi nikoh to'ylarida ijro etilayotgan shunday janrlar borki, ular faqat voha, qolaversa, qisman Buxoro, Surxondaryo, Samarqand nikoh to'ylarida ham uchraydi. Bunday janrlar sirasiga "oblo-oblo", "kelin o'tirsin", "hazorali" kabilami kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent: O'zbekiston, 1994.-155 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: Sharq, 1998.-78 6.

3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 3 jildlik saylanma. 1-jild. Toshkent: Meros, 1994. -77 b.
4. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent: Fan. 1974. -222 b.
5. Alaviya M. O'zbek xalq ko'shiqlari. Toshkent: Fan, 1959. -15 b.
6. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. 14-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. -180 b.
7. Boychechak: Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari // Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar O.Safarov, K.Ochilov. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. -33 b.
8. Veselovskiy A.N. Iz istorii epiteta // Istoricheskaya proza. M., 1989. S. 59-75.
9. Veselovskiy A.N. Psixologicheskaya poetika // Istoricheskaya proza. Moskva,, 1989. S. 101 - 104.
10. Gorkiy I.K. Ob istoricheskoy poetike Aleksandra Veselovskogo // Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. Moskva., 1989. S. 11 - 31.
11. Gordlevskiy V.A. Osmanskaya svadba. Moskva., 1914. - 207 s.
12. Gulyor. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar M. Ali, K. Aminov va boshqalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1967. - 236 b.
13. Davkarayev N. Ocherki po istorii dorevoluyusionnoy karakalpakskoy literaturi. Tashkent, 1959. - 221 s.
14. Dorochenko Y. A. Zoroastriysi v Irane. Moskva.: Nauka, 1982. -133 s.
15. Drevnetyurkskiy slovar. Nauka, 1969. -676 s.
16. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. Toshkent: O'qituvchi. 1994. - 320 b.
17. Japakov N. Obryadoviye pesni // Ocherki po istorii karakalpakskogo folkloru. Tashkent: Fan, 1977. - 280 s.
18. Jirmunskiy V.M. Vvedeniye v metriku // Teoriya stixa. D., 1975- S.129-142.

19. Jirmunskiy V.M. Kompozitsiya liricheskix stixotvorenii // Teoriya stixa. L., 1975. S. 445 - 446.
20. Jirmunskiy V.M., Zaripov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos,- M.: Goslitizdat, 1947.-520 s.
21. Jo'rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. Toshkent.-2008. 172 b.
22. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. Toshkent: Fan, 1991.-132 b.
23. Inoyatov M. O'zbek xalq ijodiyoti an'analari. Toshkent.: 2013. 132b.
24. Islam: Ensiklopedicheskiy slovar. M.: Nauka, 1991. -311 s.
25. Ismoilov X. "O'zbek to'ylari. Toshkent: O'zbekiston, 1992. -189 b.
26. Ishonkulov X. Brak i svadba u naseleniya Xodjenta v novoye vremY. Dushanbe: Irfon, 1972. -215 s.
27. Kelinoy qo'shiklari: xalq qo'shiklari va termalari / Yozib oluvchi va tuplovchi O.Sobirov. Toshkent: F.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. -240 b.
28. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent: Fan, 1979.-151 b.
29. Mirzayev T.M. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. Toshkent: O'qituvchi, 1969. -230 b.
30. Oq olma - qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari / To'plovchi M.AlaviY. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. -155 b.
31. Sarimsoqov B. Marosim folklori // O'zbek folklori ocherklari. Toshkent, 1988. 186- 208-betlar.
32. Sarimsoqov B. Hatna to'ylari folklori // O'zbek folklori ocherklari. Uch jildlik. 1-jild. Toshkent, 1988. 190 - 191-betlar.
33. Sarimsoqov B. O'zbek marosimi folklori. Toshkent: Fan, 1986. -216 b.
34. Sarimsoqov B.I. Oilaviy-maishiy marosimlar folklori // O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent, 1990. 129 - 137-betlar.
35. Sattorov M. O'zbek udumlari. Toshkent: Fan, 1993. -222 b.

36. Yunusov G‘ozi Olim. Alla to‘g‘risida bir necha so‘z // Maorif va O‘qituvchi. 1926. №4.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Qashqadaryo vohasi o'zbek beshik to'ylariga xos aytim, olqish va qo'shiqlar... ..	7
Vohaning sunnat (xatna) to'ylar folklori janrlari.....	39
Qashqadaryo nikoh to'yi folklori.....	58
Xulosa.....	111
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati.....	114